

**Muhammad RAHMON**

*Iltifot*

Kel, qo'g'irchoq o'ynaymiz,  
Bo'lsin shkaf – xonasi.  
Sen uning otasisan,  
Men-chi uning onasi!

Tura tursin qo'g'irchoq,  
Mayli, uni qo'yaylik.  
Kel, bu o'yin yoqmasa,  
Bekinmachoq o'ynaylik.

Bu o'yinni, gapi rost,  
Bo'lmas sira yangi, deb.  
Nima qilamiz shundoq  
Toza uyni changitib!

Qara, oftob charaqlar,  
Bola to'la ko'chamiz.  
Qani, yur, mazza qilib  
Bir halinchak uchamiz.

O'tiribsan nega jim,  
Bunga ham xushing yo'qdir –  
Bilasanmi, unda biz  
O'ynaymiz "do'xtir-do'xtir".

Og'rib qolgan tomog'ing,  
Menda bor ukol, dori...  
Injiq bola ekansan,  
O'ynamayman, e, bor-e!

**Muassislar:**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi

1982-yildan chiqa boshlagan.

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin SAYYID  
Nodir JONUZOQ  
Iqbol MIRZO  
G'ayrat MAJID  
Sobir O'NAR  
Kengesboy KARIMOV  
Shuhrat SIROJIDDINOV

**Jamoatchilik kengashi:**

Alisher SADULLAYEV  
Minhojiddin MIRZO  
Botirjon ERGASHEV  
Bahodir KARIMOV  
Ilhom TO'XTASINOV  
Rustam MUSURMON  
Abatbay DANIYAROV  
Farrux JABBOROV

**Bosh muharrir v.b.:**

Nurilla CHORI

**Mas'ul kotib:**

G'iyosiddin O'NAROV

**Muharrirlar:**

Sardor TOLLIBOYEV,  
Dilnoza RUSTAMOVA

**Rassom:**

Asliddin KALONOV

**Manzilimiz:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi binosi.  
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz

Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz

Tel.: (71) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: S.Tolliboyev

4

**Sodiq Norboyev**


Sen – mard o'g'lonsan!



8

**Omon Muxtor**

Sherlok Xolms Buxoroda  
yoxud sirli qo'lyozma tarixi



21

**Faxriyor**

“Oshiqlikdan pesh  
maqom yo'q”



24

**Jontemir**

Yigit umrim  
o'tmasin bekor...



**26**

**Lola Nurimova**  
Bahorning sehgarg  
boqiy chiroyi



**27**

**Xolmuhammad  
Karimiy**  
Muharrir tavsiyasi



**32**

**Farog'at  
Xudoyqulova**  
To'zg'ib xayolingiz,  
bo'ronday  
kezsam...



**34**

**Suhrob Ziyoy**  
"Oldinda bir yo'l  
bor..."



**41**

**Rustam  
Jabborov**  
Muruvvat



**52**

**Munisa  
A'zamova**  
Javzo, salqin sahar,  
bir so'ri havas...



**53**

**Sardor Salimov**  
Ruhim ozod bo'lsa  
mendek qolipdan...



**54**

**Jessi Styuart**  
Singan olcha  
daraxti





# Sen – mard o‘g‘lonsan!

## **Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik**

O‘zbekiston yoshlari va talabalari forumi o‘tkazilgan Botanika bog‘ida ularning ilm-fan, texnologiyalar, adabiyot, san‘at kabi sohalarda erishayotgan natijalarini aks ettiruvchi ko‘rgazma va namoyishlar tashkil qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu forumda yoshlarning ixtirolari, ijod namunalari bilan tanishdi. Badiiy chiqishlarini tomosha qildi. Ular bilan suhbatlashib, o‘qish va izlanishlariga muvaffaqiyatlar tiladi. Shundan so‘ng Prezidentimiz bayram tadbiri maydoniga kelib, barcha yigit-qizlarni 30-iyun – Yoshlar kuni bilan tabrikladi.

Mamlakatimizda himoyasi yoshlar ta‘lim-tarbiyasi, huquq va manfaatlarini himoyasi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bu borada alohida davlat tashkiloti – Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilgan. Qolaversa, Agentlik qoshida o‘ttizdan ortiq nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Barcha shahar va tumanlarda “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi, turli sohalarni qamrab olgan 5 tashabbus loyihasi amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e‘lon qilingani ham yoshlarga e‘tiborning yorqin ifodasidir.

Davlatimizning yoshlarga oid siyosatida ikkita eng muhim yo'nalish bor: birinchisi – ularga zamonaviy bilim berish, ikkinchisi – yoshlar bandligini ta'minlash. Keyingi yillardagi islohotlar, tashabbus va yangi tizimlar zamirida ana shu maqsad mujassamdir.

2021-yilning o'zida 92 mingdan ziyod o'g'il-qizlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2 trillion 300 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Hududlarda tashkil etilgan 186 ta Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi 3 ming loyiha doirasida 50 mingta yangi ish o'rnini yaratilganligi ularning mamlakat ravnaqi yo'lida dadil qadam tashlayotganligidan darak beradi.

Shu kuni yoshlar orasida el-yurt manfaati yo'lida ko'plab ezgu ishlarni amalga oshirayotgan va bu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev e'tiboriga tushgan uka-singillarimizning ko'pligi



barchamizni quvontirdi. Ana shunday yoshlardan biri Otabek Shukurovdur.

O'tgan yil odatdagidan boshqacharoq boshlandi. Seryog'in yoki qurg'oqchilik bo'lmadi, ammo koronavirus deb atalgan ko'zga ko'rinmas ofatning "sharofati" bilan karantin e'lon qilindi. Nafaqat o'zbekistonliklar, balki insoniyat boshiga katta tashvishlarni ham keltirgan pandemiya davrining, ayniqsa, dastlabki paytlari anchagina xavotirlarga sabab bo'ldi.

E'tiborlisi, mana shunday vaziyatda saxovatpesha yurtdoshlarimiz ham qarab turishmadi: o'z mehr-u ixtiyori, xayr-saxovati bilan davlatimizga, el-yurtga imkoniyatlari doirasida tirkak bo'lishdi. Ayni shu kunlarda Internet saytlarida va ijtimoiy tarmoqlarda bu xayrli ishlarga yosh sportchimiz ham qo'shilgani haqidagi xabarlar tarqaldi. Ushbu xabarlarda O'zbekiston milliy terma jamoasi hamda "Sharja" klubi a'zosi Otabek Shukurov o'zi tug'ilib o'sgan Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi kam ta'minlangan oilalar va karantin davrida ishsiz qolgan muhtojlarga 100 million so'mga yaqin oziq-ovqat xarid qilib, tarqatgani haqida xabarlar tarqaldi. O'shanda yoshgina yigitning mamlakat sharafini munosib himoya qilishi bilan birga mana shunday ezgu ishlarga bosh-qosh bo'layotganini ko'rib, "Sen – mard o'g'lonsan" degan gapni ichki bir g'urur bilan ko'nglimdan o'tkazganim rost. Bunday tuyg'u ming-minglab ko'ngillardan o'tgan bo'lsa, ne ajab!

Xalqimizda "Qo'li ochiqning yo'li ochiq" degan gap bor. Buning zamirida nechog'liq katta ma'no mujassamligi, nazarimda, Otabek Shukurov misolida yana bir bor o'z ifodasini topdi. Bo'lmasa, bir o'ylab ko'ring: mamlakat miqyosidagi nufuzli bir tadbirda mamlakat rahbarining e'tiboriga tushib, o'sha paytning o'zida e'tirofga sazovor bo'lish, albatta, quvonchli hodisa.

Ushbu nufuzli tadbirning tantanalari qismi ham shunday unutilmas taassurotlarga, holatlarga boy bo'ldi. Prezident so'zlagan nutqida, iste'dodli va iqtidorli yoshlarning yuksak e'tiro-

flarga sazovor bo'lishi – bularning barchasi o'g'il-qizlar hayotida yangi bir sahifani ochib, quvonchli onlarni taqdim etdi. Davlat rahbarining O'zbekiston terma jamoasi hamda BAAning "Sharja" klubi a'zosi Otabek Shukurovga "Mard o'g'lon" davlat mukofoti berilishini aytishi ham bunga bir misoldir.

Tadbirda nutq so'zlagan Qashqadaryo viloyati hokimi Zoir Mirzayev ham ushbu sportchi yigit haqida shunday iliq fikrlarni bildirdi:

"Birlashgan Arab Amirliklarining "Sharja" klubida o'ynayotgan futbolchimiz o'zi topgan mab-

lag'lari hisobidan 12 milliard so'm sarflab, bolalar bog'chasi ochdi. Yaqinda esa yangi o'quv markazi faoliyat boshlaydi. Bu yigitning o'zi ham "Nima topsam, O'zbekiston rivoji uchun tikaman", degan gapni ko'p aytadi. Bolalar bog'chasida 200 nafarga yaqin bola tarbiyalanmoqda. Unda o'zbek tili bilan bir qatorda rus, ingliz va arab tillari o'rgatiladi. Ertaga o'zi tug'ilgan qishloqda 100 nafar bolaga mo'ljallangan ingliz va arab tilidan dars beriladigan markazning ochilishi bo'ladi. Otabekning o'zi bugun forumga kelib, vakil sifatida qatnashyapti".

"Bu yoshlarimizdan minnatdorman, ularning O'zbekistonga kelib, ishini davom ettirayotganini, albatta, inobatga olaman. Bugun borib bu sportchiga "Mard o'g'lon"



mukofotini berish bo'yicha qarorga qo'l qo'yaman. Ertaga markazning ochilishida unga mukofotni yetkazib berishadi", – dedi Prezident.

Va'da bajarildi, ertasi kuni Qarshi shahrida davlatimiz rahbari tomonidan "Mard o'g'lon" ordeni bilan mukofotlangan Otabek Shukurovga ushbu mukofotni topshirishga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Bevosita uning o'zi tomonidan tashkil etilgan "Sharja" maktabining tantanali ochilish marosimi bilan uyg'un holda bo'lib o'tgan ushbu tadbirda Qashqadaryo viloyati hokimi Zoyir Mirzayev ishtirok etib, ordenni Otabekka tantanali topshirdi. Shuningdek, futbolchining otasi G'ayrat Murodovga zotdor otlardan biri – qorabayir sovg'a qilindi.

Yaqinda bir tanishimizning uyida mehmon bo'lganimizda, xonadonning yoshi ulug' otaxoni dasturxon atrofidagi gurungimizda Otabekka ana shunday ta'rif berdi: "Farzandlar yaxshi, solih bo'lsa, har doim otalarga rahmat olib kelishgan, mukofot ham". Istardikki, yurtimizda shunday mard o'g'lonlar safi kengaysin.

*P.S: O'zbekiston yoshlari va talabalari forumi doirasida yoshlarning adabiy-ijtimoiy nashri "Yoshlik" jurnali tomonidan "Yoshlik" – yoshlar minbari" nomli adabiy-ma'rifiy kecha bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Minhojiddin Mirzo, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, shoir Nodir Jonuzoq, professor Bahodir Karimov, yozuvchilar: Sobir O'nar, Luqmon Bo'rixon, Nurilla Choriyev va yosh ijodkorlar so'zga chiqishdi.*

*Forum doirasida o'tgan adabiy-ma'rifiy anjuman kuy-navolarga ulandi. Yoshlarning sevimli san'atkori Shuhrat Daryoning yoshlik va muhabbat tarannum etilgan qo'shiqlari kechaga yana-da fayz bag'ishladi.*


**Sodiq NORBOYEV,**  
jurnalist



# Sherlok Xolms

## BUXORODA

yoxud sirli qo'lyozma tarixi



### Omon MUXTOR

1941-yil 16-iyulda Buxoroda tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. ToshDUning Filologiya fakultetining jurnalistika bo'limini tugatgan. "Chorlar quyoshli yo'llar", "Ohang", "Yog'du", "Marvarid", "Shiddat" she'riy to'plamlari, "Nigoh", "Qushlar va tushlar", "Shaharlik kelinchak", "Hayot darvozasi", "Bolalikka sayohat", "Vazifa", "O'lmagan jon" kabi nasriy asarlar muallifi. "Yillar shamoli", "Egilgan bosh", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ffu", "Aflotun", "To'rt tomon qibla" kabi zamonaviy va tarixiy mavzulardagi romanlari ham bor. O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan (1997). 2013-yil 10-may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

Buxoroyi sharifga ziyoratga kelgan do'stlarim Tohir Malik va Tursunboy Adashboyning shaharning muqaddas joylari, tarixiy yodgorliklari bilan tanishtirib yurgan edim. Hazrat Imom Hojatbaror ichidagi masjidning pastak minorasi ostida kalta soqol qo'ygan, boshiga fo'ta o'rab, odmi yaktak kiygan bir kishi ikkita singan g'ishtning ustiga o'tirib olib, oldiga yoyilgan eski matoga turli kitob-daftarlarni sotish uchun terib qo'ygan ekan. Aft-angori naq Xo'ja Nasriddinni eslatuvchi bu zot bilan eski qadrdonlardek quyuq so'rashib, bisotidagi narsalarni ko'zdan kechirishga kirishdik. Shunda chiroyli muqovalangan ingliz tilidagi yuqqagina qo'lyozma-daftarni ko'rib qoldik. Uning tepasiga o'qlovdek harflar bilan "Artur Konan Doyl" deb yozib qo'yilgan edi. Bu esa uchalamizning ham e'tiborimizni darhol o'ziga jalb etdi.

Shu o'rinda Artur Konan Doylning kimligi, tarjimai holi, charm muqovali qo'lyozmaga nega qiziqib qolganimiz haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish lozim. Yoshligida tibbiyot bilim yurtida o'qigan Artur dastlab kema tabii sifatida ko'p marta dengiz safarlariga chiqib, bir necha yil Afrikada odamlarni muolaja qiladi. So'ngra Londonga qaytib, kichkina shifoxona ochadi. Biroq ishi yurishmaydi. Ermak yo'lga badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Uch jildlik she'r, bir qancha romanlar yozsa-da, unchalik nom qozonolmaydi.

Kunlarning birida ko'chadan o'tib ketayotgan yo'lovchi Arturga o'quvchilik chog'ida saboq bergan Jozef Bel ismli o'ta ziyrak va topqir muallimini eslatib yuboradi. Shunda Konan Doyl beixtiyor u haqida kitob yozishga qaror qiladi. Ammo qahramonni Jozef Bel o'rniga Sherlok Xolms deb ataydi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Sherlok Xolms hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan kitoblar Artur Konan Doyl nomini butun dunyoga mashhur qilib yuboradi.

Ta'kidlash joizki, Sherlok Xolms timsolida muallif va muallim fe'l-atvori mujassamlashgan. Shu sababli kitobxonlar adibni asar qahramoni bilan bir deb o'ylab, uni shu nomda atab, ko'cha-ko'ya ortidan to'p-to'p bo'lib ergashib yurgan... Ammo aslida Konan Doylga Sherlok Xolmsdan ko'ra boshqa qahramon – doktor Vatson ko'proq yaqindir. Bir qarashda doktor Vatson Sherlok Xolmsning yonida yurgan "ikkinchi darajali personaj", xolos. Shuning barobarida, usiz Sherlok Xolms yo'q – butun voqea u orqali (uning tilidan) hikoya qilinadi. Boshqacha aytganda,



Konan Doyl hayotda ko'rgan-kechirgan, his etgan, o'ylaganlarini ikkinchi darajali qahramonga "yuklaydi".

Yana bir e'tiborga molik jihati shuki, adibning asarlaridan doktor Vatsonning ma'lum muddat Sharqda, jumladan, Afg'onistondagi harbiy lagerlarda davolash bilan mashg'ul bo'lgani, shu davrda boshqa qo'shni yurtlarga ham safar qilgani haqida ma'lumot olish mumkin. Bu esa doktor Vatson, to'g'rirog'i, Artur Konan Doyl Buxoro haqida ham ancha-muncha ma'lumotlarga ega bo'lgan, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Qolaversa, u hakim sifatida Abu Ali ibn Sino asarlari va ularga yozilgan sharhlardan ham yaxshi xabardor bo'lgan.

Qisqasi, yigirma yil mobaynida Sherlok Xolmsga bag'ishlab kitob yozgan adib Sharq (asosan, Buxoro) hayotidan asar yozishni o'ylagan, ayrim tafsilotlarni qog'ozga tushirib borgan. Tasavvur qilish qiyin, lekin xuddi shunday bo'lgan edi... Qo'lyozma hali qiyomiga yetmagani bois uni yana bir qur ko'rib chiqish, ayrim tuzatishlar kiritish kerak edi. Bundan tashqari, Konan Doyl asarni odatdagi tartibda doktor Vatson "tili"ga ko'chirishga ham ulgurmagan edi. Afsuski, bu ishlar qoralama holicha qolib ketadi. Bu orada qo'lyozma sirli ravishda g'oyib bo'ladi. Keyinchalik bir gal Parijda, yana bir gal Tehronda o'sha qo'lyozma topilgani to'g'risida gap chiqadi. Asar katta narxga baholanadi. Uni kitob qilib chiqarish-chiqarmaslik borasida ham ko'p bahs-munozaralar bo'lib o'tadi. Vaqt o'tishi bilan bu gaplar-da unutiladi...

Qo'limizdagi daftar, aftidan, o'sha qo'lyozma edi. Qanchalik hayajonlangan bo'lmaylik, Tohir Malik sipolik bilan sotuvchidan qo'lyozmani qanchaga berishini so'radi.

– Bizda katta pul yo'q! – deya Tursunboy Adashboy ham luqma tashlab qo'ydi.

– Sizlarni tanigandek bo'ldim, – deb kulimsiradi "Xo'ja Nasriddin". – Men kitob uchun yozuvchidan pul olmayman. Bu

sizlarga hadya! Lekin yo'qotmanglar! Tekin olmaylik desangizlar, sopol kosada bir kosa suv kifoya...

Uchovimiz bu gapdan keyin shoshilganicha sopol kosa qidirib ketdik. Ziyoratgoh ro'parasidagi bozorni aylanib, bir do'kondan chiroyli guldor kosa xarid qilib, tezda orqaga qaytdik. Darvoza oldida kosani toza suvga to'ldirib, boyagi joyga keldik. Biroq hovuz bo'yida o'sha ikkita singan g'ishtdan bo'lak hech narsa yo'q edi. Kitob sotuvchini qidirib masjidga mo'raladik, yon tomondagi hujralarga qaradik. Bizni tanigan zot g'oyib bo'lgan edi. Axiyri, noiloj suv to'la sopol kosani singan g'ishtlar ustiga qo'yib, chang tushmasligi uchun bir varaq oq qog'oz bilan yopdik.

Qo'lyozma qo'limda qoldi.

Uni birinchi bo'lib Tohir Malik o'qimoqchi edi, ammo men buxorolik ekanimni pesh qilganicha bir gapda turib



*oldim. Toshkentga qaytgach, lug'at yordamida qo'lyozmani o'qishga tushdim. U maromiga yetmagan bo'lsa-da, Artur Konan Doylning boshqa asarlari singari g'aroyib va jozibali edi. Ana o'sha qo'lyozma bilan tanishimg...*

## Buyuk Buxoro safari

I

Yomg'ir yog'ay-yog'ay deb turgan dim yoz kuni.

Sherlok Xolms "Baker-street" ko'chasidagi kichkina uyda qadrdoni doktor Vatson bilan suhbatlashib, ora-sirada "Ahmad" choyidan ho'plab o'tirar edi. To'satdan ularning gurungini uy sohibasi missis Xadson bo'ldi:

– Xolms! Sizni bir musulmon savdogar so'rayapti.

Missis Xadson odamning kimligini ilk ko'rgandayoq chamalashni Sherlok Xolmsdan o'rgangan.

– Kirsin, – dedi oromkursida o'tirgan Xolms biroz ajablangan ko'yi.

Xonaga boshida simobiy salla, egnida yengil shohi to'n, qora soqolli kishi kirdi. Mehmenni qarshilab o'rnidan turgan mezbolar unga bo'sh kursidan joy ko'rsatishdi.

– Siz – Sherlok Xolms! Siz – doktor Vatsonsiz! – dedi mehmon adashmay. Xolmsga alohida e'tibor bilan qarab, yana qo'shib qo'ydi: – Men sizni shunday jussasi ixcham, lekin o'zi kibor, ko'zlari o'tkir, chaqnoq, kelishgan qiyofada tasavvur qilgan edim. To'g'ri chiqdi!

Xolms iltifot uchun minnatdorchilik bildirib, mehmonga bir piyola choy quyib uzatdi. (Xonadondagi chinni lagan, choynak va piyolalar Vatsonga tegishli edi).

– Bugun qahva ichishdan choyga o'tgan edik. Endi bilsam, bu sizning kelishingiz alomati ekan! – dedi Vatson lutf qilib.

Mehmon piyolani qo'lida aylantirayotib, yon-atrofga sinchkov ko'z tashladi:

– Ikkovingiz bir vaqtlar bu uyni ijaraga olgansiz. Keyinchalik doktor Vatson uylanib, ko'chib ketgan. Siz esa, Xolms, shu yerda qolavergansiz.

– Buning nima ahamiyati bor?! – deya gap qotdi qiziqqon Vatson.

– Men sizni uchratolmayman, deb qo'rqan edim. Xayriyat, do'stingizning oldida ekansiz! – dedi-da, mehmon maqsadga ko'chdi: – Men Umar Xo'ja degan buxorolik savdogarman. Bizning bir shoirimiz "Agar o'lsam, birodarlar, meni Londonga ko'mgaysiz", deb yozgan. Bu kaminaga bag'ishlangan, chunki umrimning yarmi shu yerda o'tdi.

Sherlok Xolms bir qarashdayoq mehmonning arab ham, afg'on ham emasligini payqagan edi. Keyingi zamonlarda arablar, afg'onlar, yana hindlar-u afriqolik habashlar ozodlik, mustaqillik uchun inglizlarga qarshi bir necha bor urush e'lon qilgan. Shu sababli ular inglizlarni unchalik xush ko'rmasligi aniq edi. Mehmorning o'zlariga nisbatan yuz-ko'zidagi xayrixohlikni Xolms darhol payqagan edi.

– Bu yerda bir qancha do'konlarim bor, – deb so'zini davom ettirdi Umar Xo'ja. – Lekin hozir oldimda tijoratdan bo'lak bir tashvish ko'ndalang bo'lib turibdi.

Sherlok Xolms ham mehmonga iltifot ko'rsatdi:

– Xo'sh, qanday tashvish ekan? Tortinmay so'zlayvering, qulog'imiz sizda.

– Gapni uzoqdan boshlashga to'g'ri keladi, – dedi Umar Xo'ja xijolatomuz jilmayib. – Buxoro amiri Ahadxon janobi oliylari otam bilan yoshlikdan do'st tutingan. Shul sabab menga mudom mehribonlik ko'rsatadi. Amir Ahadxon Rusiyaga borib, podshoh hazratlarining qo'lini olib qaytgan. Mamlakatimiz hozir vassal holatida. Amir aslida Rusiyaning ham, Angliyaning ham Sharqdagi zo'ravonlik siyosatini ma'qullamaydi. Ma'rifatli va zehnli amir xorij siyosati, matbuot va madaniy hayotini doimiy ravishda kuzatib boradi. Darvoqe, ul zot Vatsonning ilgari Bo'mbayda bo'lganidan xabardor. Jangda qattiq yarador bo'lib, omonatni topshirishingizga oz qolganini ham eshitgan. Xolms, amirim sizning ko'plab kishining gunohsiz ekanini isbotlab, ularni dordan, qamoqdan, surgundan qutqarganingizga qoyil qolgan. Biz amir bilan sizlar haqingizda ko'p gaplashganmiz. Xullas, amir Ahadxon ikkovingiz bilan yuzma-yuz ko'rishish istagida. Shu maqsadda siz janoblarni Buxoroga taklif qildilar.

– Buxoro juda uzoqda. Bunday safar muayyan tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Qolaversa, xavf-xatardan ham xoli emas, – dedi Sherlock Xolms.

– Eng muhimi, amir bizni nima uchun Buxoroga chorlayapti? Har holda, faqat suhbatlashish uchun emasdir?

Bunga javoban Umar Xo'ja qo'ynidan shapaloqdek xat chiqardi.

– Bu sizlarning Buxoro va atrof yerlarda xavfsiz yurishingizga kafolat xati. Ahadxon imzo chekib, muhr bosgan... Taklif qilganlariga, albatta, biron sabab bo'lishi kerak. Ammo uni men bilmayman. Aytmaganlar... Meni esa bu ishga bosh qo'shishga mushkul bir savdo majbur qildi, – deya Umar Xo'ja uzoq sukutga cho'mdi. Nihoyat, choy ho'plab dardini yora boshladi:

– Balog'at yoshiga yetganimda padari buzrukvorim Usmon Xo'ja menga bebaho bir yoquttosh sovg'a qilgan. Men toshni yonimda saqlashga o'rgangan edim. Lekin bir gal Buxoroga borganda Ark tepasiga chiqib ayvonda tahorat olayotganimda birov cho'ntagimga qo'l soldimi yoki o'zim tushirib qo'ydimmi, bilolmay qoldim. Odatda, Ahadxon huzuriga kirguncha ko'p odam bilan ko'rishaman, birovi o'g'irladimi, buni ham payqamadim.

– Yoningizda yaqin kishilaringiz yo'qmidi? – deb sekin qiziqsindi Sherlock Xolms.

– Sinashta mirzamdan bo'lak hech kim yo'q edi, – deya chuqur xo'rsindi Umar Xo'ja. – Xullas, bu qanday sodir bo'ldi, tushunmayman. Boshim qotib nima qilishga hayronman. Amirimga bu to'g'rida og'iz ochmaganman, chunki gap chuvalashib ketadi... Shu o'rinda Ahadxonning ayrim o'zliklarini aytmasam, sizlar ahvolni tasavvur qilishingiz qiyin. Janobi oliylarini xotinboz deyishga til bormaydi, ammo zaifalarga ishqiboz ekani butun Buxoroda ma'lum. G'azal aytish podshohlarning ishi emas, lekin amirim bo'sh vaqtlarda g'azal yozadi. Gap shundaki, Ahadxon zaifalar bilan do'stlashib, ularga g'azal o'qib berishni yaxshi ko'radi. Har yili bir-ikki marta Peterburg yoki Yaltaga borib, u yoqlardan ham "g'azalga mushtoq" uch-to'rt xonimni Buxoroga, saroyga olib keladi. Bu xonimlarning o'zi betayin-bedavo ekani bir bo'lsa, ularga ergashib keladigan qalang'i-qasang'i tanish-bilish-u qarindosh-urug'i ikkinchi g'avg'o! Bunday

sharoitda aksar xizmatchilarning oshkor nima qilayotganini ko'rib tursang-da, maxfiy ishlarini Xudodan bo'lak hech kim bilmaydi... Inchunun, yordamingizga muhtojman.

Sherlok Xolmsga buxorolik savdogarning hikoyasi ming yillik afsonadek tuyuldi. Shu bilan birga, izquvarligi tutib, voqea mag'zini chaqishga urina boshladi. Sharq hayoti bo'yicha deyarli "savodsiz" Xolms qarshisida "bilimdon" Vatson negadir xomush tortib o'tirardi.

– Buxoroning shavkati, boyligi dunyoga mashhur, – deya bosiq so'z boshladi Vatson. – Uni agar Rusiya egallamasa, Angliya mustamlakaga aylantirishi aniq edi. Buxoroni ikkinchi Makka atab, chor-atrofdan odamlar doim unga talpinadi. Bunday joyga borish juda gashtli. Lekin siz oddiy bir muammoni, nahotki, o'sha yerda hal qilolmadingiz?

– Buning iloji yo'q, – dedi Umar Xo'ja. – Eng avval amirimning sizlarni o'z huzurida ko'rish istagi! Men buni bajo keltirmasam, qanday odam bo'ldim?! Qimmatbaho tosh masalasiga kelsak, bu ishning hidini chiqarmay, xamirdan qil sug'urgandek bajarish kerak. Men mulkdorman, bisotimda nimalar borligini hammaga oshkor qilolmayman. Ayniqsa, saroy a'yonlari bilan munosabatda sir saqlay bilish muhim. Boshqacha bo'lishi mumkin emas...

– Agar Vatson hamrohlikni qabul qilsa-yu biz Buxoroga boradigan bo'lsak, bu qay tarzda amalga oshadi? – deb so'radi mehmondan Sherlock Xolms.

– Ko'pchilik Buxoroga rasmiy tartibda sayohat qilishni yoqtirmaydi. Ilgari Buxoro Rusiyaning vassali bo'lmasa hamki, rasmiy bordi-keldilar Rusiya orqali amalga oshgan. Rus imperatorlari nomidan xat olib, qo'riqchilar qurshovida borilgan. Masalan, Abdullaxon davrida anglorus savdo kompaniyasi vakili, Moskovda yashagan Jenkinson degan kishi ingliz hamkasblari Richard va Robert Jonson bilan tatar tarjimon yollab Buxoroga borgan. Keyinchalik Borne degan ingliz zobiti ham rasmiy tartibda Buxoro bilan tanishgan. Qozon dorilfununida o'qigan, chegara posbonlari tarjimoni Denilson degan shaxs Ja'far ismli tatar mulla qiyofasida savdo karvoni bilan birga o'lkamizga safar qilgan... Tatarlar musulmon bo'lgani va til bilgani sababli, aksariyat hollarda

shu niqobdan foydalanilgan. Sharq G'arb uchun doim sirli makon bo'lib kelgan. Lekin hozir sharoit o'zgardi. Rusiya hammayoqqa mulozim-u xufiyalarini sochib tashlagan. Buxoroda qadimdan har xil millat yashagani-yu, endi amirga nisbatan oq poshshoning ko'proq hukmi o'tganidan mahalliy aholi eshik oldida mabodo biron ajnabiyni ko'rsa, ajablanmaydigan bo'lib qoldi... Sizlarni Buxoroga o'zim boshlab boraman. Shu bois hech qanday xavotirga o'rin yo'q.

Umar Xo'ja so'zini tugatib, sukutga cho'mdi.

Uzoq maslahatlashuvdan so'ng Sherlok Xolms sirli taklifga rozi bo'ldi. Umar Xo'ja yo'l xarajatlarini to'lab, mehmonlarga Abduqodir ismli mirzasini yordamchilikka tayinladi.

## II

Safar taraddudi bitguncha Abduqodir har kuni Sherlok Xolmsdan xabar olib turdi. Uning har gal goh qahva, goh "Ahmad" yoki "Akbar" choyini ko'tarib kelganini ko'rgan Sherlok Xolms musulmonchilikdan uzoq Angliyada Oллоh va payg'ambar nomi bilan bog'liq choy turlarining keng tarqalgani sabablari bilan qiziqib qoldi. Shu bahonada Sharq hayotiga doir bir dasta kitobni o'qib chiqdi. Ular ichida mojar olimi Vamberining Buxoro tarixi to'g'risidagi kitobi Xolmsning alohida e'tiborini tortdi.

Nihoyat, "Shekspir" nomidagi tezyurar kemada Sherlok Xolms do'sti doktor Vatson bilan Umar Xo'ja va mirza Abduqodir hamrohligida ummon orqali Hindistonga yo'l oldi.

Bu davrda Angliya Hindiston va Afg'onistonda o'z hukmronligini o'rnatgan, Turkistonni esa Rusiya egallagan edi. Bu o'lkada g'ayridin xorijliklarni "farangi" deyishardi. Angliya bilan Rusiya orasida ko'p yillik raqobat hukm surayotgani sababli rus ma'murlari inglizlarni unchalik xushlamas, mahalliy aholi o'rtasida ham inglizlarga nisbatan sovuqroq munosabat qaror topgan edi.

Tabiat injiqliklari, dengiz qaroqchilarining hamlalari kabi turfa sarguzashtlarni boshdan kechirgan kema Hindistonga yetib keldi. "Do'sting uchun zahar yut" qabilida safarga rozilik bergan ehtirosli doktor Vatson yo'lda ko'p bora asabiylashdi. Sherlok Xolms esa kuni bo'yi xotirjam trubka tutatib o'tirar, goho qadrdon

skripkasida allaqanday kuyni ezib chalar edi. Ustiga-ustak, Xolms nimagadir Vatson va Umar Xo'jadan o'zini olib qochib, Abduqodir bilan uzoq suhbat qurishni odat qildi. Ajablanarlisi shundaki, so'qqabosh izquvar mirza bilan nuqul ayollar haqida gap sotishar edi. Bu holat sirdan qaragandagina shunday bo'lib, aslida, Xolms Umar Xo'ja o'zining "Baker street" ko'chasidagi kulbaga qadam qo'ygan kundan buyon amir Ahadxon nega o'zini taklif qilgani to'g'risida bosh qotirayotgan edi. Axir, amir izquvarni faqat "diydor"lashish uchun chaqirmagandir! Bu – katta jumboq... O'tgan davr mobaynida izquvar Buxoro tarixi va hayoti to'g'risida ozroq tasavvurga ega bo'ldi. Biroq Angliya ko'z tikkan o'lkani chor Rusiyasi tomonidan egallanishi keskin siyosiy vaziyatni yuzaga keltirgan bo'lib, bunday sharoitda sirli safarga chiqish chindan xatarli edi.

Dehli va Qobulda inglizlar ko'p bo'lgani sababli izquvarlar o'zini ancha xotirjam his etdi. Hindiston va Afg'onistonda ham Umar Xo'janing savdo tarmoqlari, sheriklari bor ekan. Shu bois bu yerda ma'lum muddat ushlanib qolishdi. Doktor Vatson eskidan tanish zobitlarni uchratib qolgani uchun mehmondorchilik yana uch-to'rt kunga cho'zildi. Bu esa yo'l charchoqlarini biroz tarqatgandek bo'ldi. Ammo Umar Xo'ja ingliz hamrohlari bilan Amudaryodan kechib, amir Ahadxon saltanatiga qarashli yerlarga qadam qo'yishi bilan turli tekshir-tekshir-u noxushliklar boshlandi. Garchi Ahadxon imzo chekib muhr bosgan kafolat xati bo'lsa-da, chegaradagi ma'murlar Sherlok Xolms bilan Doktor Vatsonni "josus emasmikan?" degan ma'noda obdon chig'iriqdan o'tkazdi. Shu kabi yo'l azoblarini boshdan kechirgan mehmonlar nihoyat Buxoroyi sharifga yetib kelishdi.

## III

Izquvarlar o'sha davrda Buxoroning eng obro'li mehmonxonasi vazifasini o'tagan Devonbegi masjididagi yuqori va past bo'lmadan iborat shinamgina hujraga joylashtirildi.

– Amirim uch kundan keyin sizlarni qabul qiladi, – dedi o'sha kuni kechqurun mehmonlarga uyida ziyofat uyushtirgan Umar Xo'ja. – Ertaga shaharni tanishtiraman. Qolgan ikki kun esa o'z ixtiyoringizda...

Ertasi kuni mehmonlar Zargaron, Telpakfurushon, Sarrofon – uch toq ostidan o'tib, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, zangor gumbazlar, Ismoil Somoniy maqbarasi va Chashmai Ayyub kabi yodgorliklarni ko'rishdi. Keyin rasta va bozorlarni tomosha qilishdi.

Sherlok Xolms ko'ziga hind va afg'on qiyofasida ko'ringan Sharq bu yerda yangicha libos kiygan, sharqona sirli tamanno qayerda boshlanib, qayerda davom etganini bilib bo'lmadi. Buyuk izquvar nazdida Buxoro go'zal va sehrli bir ertak edi.

Keyingi kun Umar Xo'ja izquvarlarni saroyga olib bordi. Sherlok Xolms u yerdagi oldi ayvonli tahoratxonani sinchkovlik bilan ko'zdan kechirdi. So'ngra besh-o'n qadam naridagi kungurali Ark devorini ham erinmay paypaslab chiqdi. Qaytish chog'ida Umar Xo'jadan devorning narigi tomonida nima borligini so'radi. "Haram-hovli joylashgan" degan javobni go'yo eshitmaganga oldi. Bundan Umar Xo'ja ajablangan bo'lsa-da, sababini so'rashga jazm etmadi.

Xolms mehmonxonaga kelgandan so'ng Vatsonning savollariga ham lom-mim demadi. Uyqu oldidan Vatson do'stining "Ertaga yordamingiz kerak, azizim!" degan lanj taklifini eshitdi, xolos. Bu esa odatdagidek Vatsonning xunobini oshirdi.

Ertasi tushda Labihovuzdagi asosan ovro'poliklarga mo'ljallangan tamaddixonaga kirgan ikki do'st bu yerda turk, fors, arab tillarini biluvchi Farangiston jo'g'rofiya jamiyati a'zosi bo'lgan markiz de Kruaze degan kishi bilan tanishib qoldi. U bilan shom qorong'isigacha qizg'in suhbat qurishdi. Allamahalda hujraga ulardan xabar olgani kelgan Abduqodirga Sherlok Xolmsning nimanidir shipshiganini ko'rgan Vatson so'roqqa og'iz juftlagan edi, "Ertaga ish ko'p, iltimos, uxlaylik", degan qat'iy qarorni eshitib, noiloj boshini yostiqqa tashladi.

– Ertaga kechga tomon Arkni yana bir ko'zdan kechirib chiqish kerak. O'sha yerda gaplashamiz, – dedi Xolms do'stining noroziligini sezmaganga olib.

#### **IV**

Vatson ko'zini ochganda hujrada hech kim yo'q edi.

U Xolmsni rosa yozg'irgach, majburan ko'chaga yolg'iz chiqdi. Devonbegi hovuzi bo'yidagi choyxonaga borib nonushta qildi. So'ngra Sarrofon toqi yaqinidagi telegrafga kirib, ikki-uch soat ovora bo'lgach, xotiniga telegramma yuborishga erishdi. Mahkama nazoratchilari boshida Angliyaga jo'natilayotgan telegrammani umuman qabul qilmadi, keyin esa qayta-qayta yozdirdi.

Kechqurun hujraga qaytganida o'zini kutib o'tirgan Sherlok Xolms Vatsonga darhol kiyinishni buyurdi. Qorong'ilik quyuglasha boshlaganda mehmonxona oldiga kelgan foytun izquvarlarni Arkka olib ketdi. Ayvonning har xil ashqol-dashqol uyulgan pana burchagiga borishgach, Sherlok Xolms Vatsonga hushyor bo'lishni tayinlab, ehtiyotkorlik bilan bir chekkaga bekinib oldi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Ark asta-sekin sukunat og'ushiga cho'mdi. Shunda Sherlok Xolms asabiylasha boshladi.

– Biron chigallik bormi, Xolms? – deb so'radi Vatson pichirlab.

– Rejam to'g'ri. Lekin sirli Sharqda hamma narsa ro'y berishi mumkin... – dedi Xolms mavhum bir holatda g'udrangancha.

Vaqt imillab o'tmoqda edi. Nogahon g'ira-shira oy yorug'ida haram-hovli tomonda paranjil yopingan bir ko'lanka ko'zga tashlandi. U ikki o'rtadagi siyrak daraxtzordan o'tib, izquvarlar yashiringan tomon kela boshladi. Ayyonga yaqinlashgach, sarosima ichida chor-atrofga birma-bir qarab chiqdi. So'ngra kungurali Ark devori yoniga borib, pastdagi tun chulg'agan shaharga tikilib qoldi. Bir qarorga keldi, shekilli, chaqqonlik bilan egilganicha nima bilandir oyog'i ostidagi gishtni ko'chirdi. Uning ostidan kichkinagina tugunchani oldi-da, g'ishtni yana joyiga qo'ya boshladi. Shu payt Sherlok Xolms panadan unga tashlanib, Vatsonni yordamga chaqirdi. Kutilmagan hujumdan sarosimaga tushib qolgan paranjili kimsa "voy" degancha qo'lidagi tugunchani yerga tashlab yubordi. Yelkasidan ushlagan ko'yi yuzidagi chimmatni yulib olgan Vatson yoshgina chiroyli qizni ko'rib hayratdan tili tutilib, inglizchasiga nimalarnidir g'o'ldiradi. Qiz esa bamisoli hushini yo'qotgandek,

notanish odamlarga unsiz termilardi. Shu payt Xolmsning chaqiruviga ko'ra bu yerga yetib kelgan Umar Xo'ja qizni ko'rib "Zahro" degan ismni tilga oldi.

## V

Mehmonxonaga kelgan zahoti Vatson do'stini savolga ko'mib tashladi.

– Aslida, hammasi juda oddiy, Vatson, – deya gap boshladi Xolms. – Esingizda bo'lsa, Umar Xo'ja biz bilan birinchi marta uchrashgandayoq amir Ahadxonning ko'hlik ayollarga she'r o'qib berish odati borligi, harami kattaligi, shu sababli saroyda turli toifadagi kishilar to'planganini sal yoqtirmayroq gapirib o'tgan edi. Men o'shanda uning o'zida ham ayollarga nisbatan rag'bat borligini his etdim. Safarga chiqqanimizdan keyin uning sodiq mirzasi bo'lgan Abduqodir bilan osh-qatiq bo'lib oldim. U menga Umar Xo'ja to'g'risida ko'p narsalarni gapirib berdi... U ko'z ochib ko'rgan xotiniidan farzand ko'rmagach, bir bazmda amir haramidagi go'zal kanizakka ko'zi tushib es-hushini yo'qotadi. Ular keyinchalik xufyona uchrashib turgan. Biz g'arbliklar podshohlar haramini mutlaq ularniki deb bilamiz. Holbuki, qaysidir qiz yoki juvon erga tegib, bermalol haramdan ketishi mumkin. Biroq Umar Xo'ja sizni ham lol aylagan Zahro ismli kanizakka uylanishga jazm etolmaydi. Chunki tutingan aka maqomidagi amirga bu haqda og'iz ochish nafaqat uyat, balki xiyonatga teng. Buni Zahro ham yaxshi bilgan.

Bu yog'ini so'rasangiz, Umar Xo'ja safarga ketish oldidan mahubasini uchrashuvga taklif qilgan. Shunda nafs qutqusiga uchgan juvon oshig'ining qo'ynidagi yoquttoshni bildirmasdan olib qo'ygan. Ayvonga mamnun qaytib kelgan Umar Xo'ja masjid tomon ketayotganida yoquttosh yo'qolganini payqaydi. Odatda, ko'pchilik bir narsani yo'qotgan joy qolib, yo'qotganini payqagan joydan qidiradi. O'sha mahal atrofda tahorat olayotgan to'rt-besh kishi bo'lgani bois Umar Xo'ja ulardan gumonsiraydi. Zahro esa haram-hovliga kirishda tintib qolishlaridan cho'chib, yoquttoshni Ark devori tagidagi bir g'ishtning ostiga berkitib qo'yadi. Devor yonidagi kaftdek ochiq bu maydonchaga oyda-yilda biron oyoq

bosmaydi. Men dastlabki kun shahardagi yodgorliklarni ko'rganimizda ba'zi yo'lkalarga yillar bo'yi odam oyog'i tegmaganini sezdim. Eng muhimi, ishq otashida kuygan Umar Xo'ja rashk yoki ehtiyotkorlik tufaylimi – buni bilmayman, saroy ma'murlaridan to o'zi safardan qaytgunicha Zahroni haram-hovlidan chiqarmaslikni iltimos qiladi. Bundan bexabar Zahro amirga shikoyat qilishga jur'at etmay, savdogarlar orqali Umar Xo'jaga pinhona maktub yo'llab, bu tartibdan noliydi va ma'murlardan hech bo'lmasa Ark devori atrofida sayr qilishga ijozat olib berishni o'tinadi. Aslida, uning maqsadi yoquttoshni tezroq yashirilgan joyidan olish bo'lgan. Yaxshiyamki, Umar Xo'ja buni Zahroning shunchaki xarxashasi deb o'ylab, iltimosni oqibatsiz qoldirgan. Men bularni Abduqodir bilan suhbatlashish asnosida bilib oldim. Uning yordamida maktubni ham o'qib chiqishga muvaffaq bo'ldim. Zahroning maktubidan yoquttosh Ark devori tagiga yashirilganini payqadim. U yerni sinchiklab kuzatib, taxminlarimni yana bir bora tekshirib ko'rdim. Shundan so'ng Umar Xo'jaga Zahroga haram-hovlidan chiqishga ruxsat olib berishni so'radim. Bu yog'i esa o'zingizga ma'lum. Muhabbat bobida omadi chopmagan Umar Xo'janing endi Zahroni tez orada unutishi qiyin...

## VI

Kechki ovqatdan keyingi choyxo'rlik chog'ida Vatson Zahroga achinayotganidan gap ochib qoldi.

– Men ham, – dedi Sherlok Xolms. – Lekin jinoyat jinoyat-da. Ammo bu ish maxfiy bo'lgani bois hech kim ularni jazoga tortayotgani yo'q. Charx aylanib, kelgusida Umar Xo'ja unga uylanishi ham mumkin. Axir, orada ishq-muhabbat bor! Bilasizmi, azizim Vatson, shu tobda meni bu masala emas, aksincha, amir Ahadxon bizni nima uchun Buxoroga taklif qilgani o'ylantirmoqda. Menimcha, amir ikkovimizni shunchaki tanishish uchun bu yerga chaqirmagan bo'lsa kerak... Men markiz de Kruaze bilan suhbatlashganimda Ahadxonning bobosi Amir Nasrullo, otasi Amir Muzaffar johil va zolim hukmdorlar bo'lganini bilib oldim. Amir Nasrullodan birgina o'g'il – Muzaffar tirik qolgan ekan. U esa serfarzand bo'lgan, har xil xotindan

besh-o'nta qizdan tashqari, o'ttiz nafar o'g'il ko'rgan, bulardan ayrimlari otasi tirikligidayoq dunyodan o'tgan, boshqalari esa atrof muzofotlarda voliy yoki bek lavozimida ishlagan. Ammo taxt Ahadxonga tekkan.

– Og'a-inilar bunga tinchgina qarab turishmagandir? – dedi xayolida ming turfa savol aylana boshlagan Vatson.

– Bu tabiiy. Ammo o'shanda boshqacha voqea ro'y bergan ekan. Kalavaning uchi oldingi davrlarga borib taqaladi. Bu katta tarix, lekin bilish kerak. Buxoro bilan Rusiya munosabati, umuman, ming yillar burun boshlangan. Ikki o'rtada savdo karvonlari qatnagan. Ajabki, Pyotr I hukmronligi zamonidan Nikolay I hukmronligi davrigacha Turkistonni egallash rejasi tuzilgan. Nihoyat, Nikolay Ining o'g'li Aleksandr II imperator bo'lganida bu rejani amalga oshirishga kirishilgan. Amir Nasrullo zamonida Buxoro va atrofdagi o'lkalardagi qoloqlik, siyosiy napokandalik ruslarga rosa qo'l kelgan. Amir Muzaffar taxtga o'tirganidan keyin Turkistonga hujum boshlanib, chor Rusiyasi dastlab Avliyoota, keyin esa Chimkent, Toshkent, Xo'jand, Qo'qon shaharlarini bosib olgan. Amir Muzaffar esa ayni shu jarayonda goh ruslarga qarshi turib, goh Qo'qon xonligi tugatilgach egasiz qolgan yaqin-uzoqdagi yerlarni o'ziga tobe qilish bilan band bo'lgan. Amirga ruslar avval-boshdayoq sulh taklif qilgan. Biroq u qaysi yo'lni tanlashini bilmay ancha vaqt arosatda yurgan.

– Aftidan, u chorasiz qolgan, – dedi Vatson.

– Kichik baliqni bir nahang yutmasa, boshqa biri yutishi aniq-ku! Odam ba'zan sharoitning ham qurboni bo'ladi...

– Ehtimol, shundaydir. Qisqasi, orada ikki marta sulh tuzilgan, ikki marta shartnoma imzolangan. Bu – Buxoro o'lkasida bo'lgan qancha mulk tashib ketilishi, iqtisodiy talafotlar-u amirlik mustaqilligining yo'qolishiga olib kelgan. Amir faqat mamlakat ichida ish yuritadigan holga tushgan, bunday sulh urushda yengilgandan battar bo'lgani sababli kichik-kichik isyonlar ko'tarilgan. Shunday isyonlardan biriga Qarshi voliysi, amirning to'ng'ich o'g'li Abdumalik (Katta to'ra) boshchilik qilgan. Amir askar tortib, o'g'li bilan jangda ruslardan yordam so'ragan. Qonli janglardan keyin Abdumalik yengilib, Qoshg'arga qochgan...

– Baribir, Ahadxonga hech kim taxtni qo'shq'olab bermagandir? Saltanatni kurashsiz egallab bo'lmaydi.

– Bu yerda kurash o'ziga xos... Taxtning taqdirini amirzodalar emas, Rusiya, Farangiston, Angliya, Olmoniya o'zaro bahsda hal qilgan. Taomil bo'yicha Muzaffardan so'ng boyagi Abdumalik amir bo'lishi kerak. Lekin Rusiya Ahadxonga qur'a tashlaydi. Farangiston Rusiyani qo'llaydi. Yigirma olti yil hukmronlik qilgan amir Muzaffar ham o'limidan uch yil burun Ahadxonni voris deb e'lon qiladi. Buni tasdiqlatish uchun uni Rusiyaga yuboradi... Eslasangiz, bu gaplarni Umar Xo'ja ham uzuq-yuluq aytib o'tgan edi.

– Men Ahadxonning Rusiyaga munosabatini bilmayman, – dedi chuqur o'yga cho'mgan Vatson. – Xo'sh, u bizni Buxoroga nima uchun taklif qilgan?

– Hammasi juda oddiy, Vatson! Ahadxon Peterburg va Moskvada bo'lgan kunlari Aleksandr II xudkush-terrorchilar tomonidan qatl qilinib, uning o'g'li yangi imperator Aleksandr III qasamyod marosimini o'tkazgan paytga to'g'ri kelgan. Otasi tutgan siyosatni unutmagan Aleksandr III Ahadxonga "mehribonlik" ko'rsatadi. Yana uning davrida rus-farang ittifoqi tuziladi... Qiziq joyi shundaki, Rusiya Angliya bilan ham ixtilofga borishni istamaydi. Shu bilan birga, Aleksandr II imperatorligi vaqtida tobe qilingan Buxoro o'lkasi bilan orada tuzilgan shartnoma bo'yicha amirga rus hukumati ruxsatisiz biror xorijiy mamlakat fuqarosini qabul qilish taqiqlangan. Biroq Ahadxon Rusiyaning barcha talablarini endi qo'l qovushtirib bajaravermaydi. Imperatorni injitmagan holda o'zini erka tutib, ko'proq o'zi istagan tarzda ish olib boradi. Ikkovimizning Buxoroga safarimiz ham shuning natijasi...

Tirik qolgan o'n uch o'g'ildan biri bo'lgan Ahadxon, albatta, birodarlarini taxtdan chetlatib, saltanatini ancha mustahkamlagan. Ular bilan boshqaruv borasida aslo hisoblashmaydi. Ahadxon ham otasi kabi ko'p farzand ko'rgan, ammo bolalaridan yigirmatasi vabo tarqalganida qirilib, birgina o'g'il bilan qolgan. To'rt yoshli Said Olimxon o'shanda jon saqlagan. Amir oxir-oqibat saltanat shu o'g'li qo'lga o'tishiga harakat qiladi...

Mana, men ko'p kitob titkilab, oldin Umar Xo'ja va Abduqodirdan, keyin markiz de Kruazedan eshitgan uzuq-yuluq gaplarni yamab, yaxlit holga keltirgan manzara! Bu bizga asqotishi mumkin deb o'ylayman.

Vatson hamisha do'stining kerakli vaqtda va aniq yo'nalishda "savod chiqarishi"ga qoyil qolardi. Bunday pallada Xolms uchun arzimas narsalar ham muhim ahamiyat kasb etardi. So'nggi bir oy ichida Xolmsning Buxoro hayotini chuqur o'rganganiga Vatson ich-ichida tan berdi. Ular amir qabuliga taraddud ko'ra boshladi.

## VII

Amir Ahadxon Salomxonada edi.

Ko'ksi qabariq, xushqomat amirning boshida amirlik nishoni qadalgan toj, egnidagi binafsha rang to'nga zar ip bilan marvaridlar qatorasiga tikilgan. Yuzi tiniq, nigohi o'tkir amir Ahadning yoshi taxminan qirq beshda bo'lsa-da, lekin notanish kishi ilk qarashda unga o'ttiz-o'ttiz besh yosh berar edi.

Sherlok Xolms Vatsonga Ahadxon to'g'risida batafsil so'zlagan bo'lsa-da, ba'zi bir ma'lumotlar tushib qolgan edi. O'sha chog'da Karmana Buxoro o'lkasining ikkinchi poytaxtiga aylangan bo'lib, bu yerda yashashga o'rgangan amir Buxoroga ahyon-ahyonda kelardi. Bu uning Rusiyaga borishiga qiyos edi: u bu o'lkaga yilda ikki marta borar, turli marosimlarda qatnashib, go'yo ishonch rishtalarini mustahkamlab qaytar edi. Buxoroda arkoni davlatni asosan qushbegi bilan qozikalon boshqarardi. Ammo Ahadxonning hukmi – hukm: amir qayerda bo'lmasin, ilgarigidek bir maromda aylanaverar edi. Katta sulolani tashkil etgan mang'it amirlari orasida eng madaniyatli va oliyjanobi bo'lgan Ahadxon qon to'kilishiga tish-tirmog'i bilan qarshi edi. Shu sababli uning el orasida hurmati baland.

Sherlok Xolms Salomxonaga qadam qo'yib, Ahadxonga yuzlashgani zahoti amir kimning ichida nima borligini tez ilg'aydigan ziyrak kishi ekanini sezdi. Umar Xo'janing unga bergan ta'rif umuman mos kelmasligini ham xayolidan kechirdi. Chunki mashhur izquvar qarshisida salobatli va aql-idrokli shaxsni ko'rib turardi. Shu mahal Ahadxon ochiq tabassum

bilan mehmonlarga o'z yaqinidan joy ko'rsatdi. Salomxonada u yolg'iz. Eshik og'asi yoki udaychi ham yo'q. Aftidan, Umar Xo'ja mehmonlarga hamrohlikdan tashqari tilmochlikni o'z bo'yniga olgan edi. Amir Umar Xo'jaga sinchkov tikilib, undan nimanidir so'radi. Ularning avzoyidan Xolms taxminan amir yoquttosh va Zahro voqeasidan xabar topgan degan qarorga keldi.

Sal fursatdan so'ng Ahadxon uzrli tabassum bilan mehmonlarga qayta yuzlandi. Qisqacha tanishuv marosimi bo'lib o'tdi. Xolms amirga taklif uchun minnatdorlik bildirib, gap orasida saltanatda jinoyatchilikning ahvoli qanday ekani, o'ziga qanday xizmat borligini so'rashni ham unutmadi.

– Taxtga o'tirganimga uncha ko'p vaqt bo'lmagan kezlar edi, – deya gapni uzoqdan boshladi amir iltifot-u rasm-rusumlar ado etilgach. – Egri yo'l bilan boyluk to'plagan bir miroxo'ring mol-mulkini musodara qilishni buyurdim. Devonbegi amrimni ijro qilish uchun borgan ekan, miroxo'r uni otib tashlabdi. Bundan g'azablanib, miroxo'rni jazolashni el-ulusning o'ziga topshirdim. Shundan buyon yurtimizda biron kishiga o'lim jazosi berilmadi. Ilgari esa har yili yuzlab kishi qatl etilgan. Ana shu dalilning o'ziyoq jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi siyosatimiz nechog'lik samara berayotganini yaqqol ko'rsatadi deb o'ylayman, aziz mehmon! Yo mening fikrim noto'g'rimi?..

– Tarixda hukmdorning bag'rikengligidan foydalanib, taxtdan ag'darish, hayotini barbod qilish holatlari ham ko'p bo'lgan. Afsuski, ba'zan olomon o'zi qo'rqmagan hukmdor bilan hisoblashmay qo'ygisi keladi, – deb gapga aralashdi "bilimdon" Vatson.

– Barakalla. Lekin saltanatni qattiqqo'llik bilan boshqarish, har qadamda tartib o'rnatish boshqa, raiyatga zulm qilish boshqa, – dedi Ahadxon. – Menimcha, xalq orasida norozilik tug'ilmagani durust. Mabodo tug'ilsa, haq-nohaqni aniqlab, ish tutish kerak. Shunda el-ulus sizdan yuz o'g'irmaydi. Hurmatli Vatson, taxtdan ag'darilgan hukmdorlar, bilsangiz, aksar nodon kishilar bo'lgan... Otam Rusiya bilan tuzgan shartnomada janglarda asir olingan yoki o'g'irlangan kishilarni Buxoroga keltirib qul qilib sotish taqiqlangan edi. Biz



qulchilikni ham yo'qotib boryapmiz. Har qanday xo'jayin xizmatchiga kuniga bir marta dasturxon yozishi, olti oyda bir yangi ust-bosh olib berishi, ro'zg'origa qarashishi buyurilgan. Tangri taolaga shukronalar bo'lsinki, hozir yurtimiz tinch.

– Bunda Rusiyaning ham yordami bormi? – deb qiziqsindi Sherlok Xolms.

– Rusiya – bizning do'stimiz. Muhtaram imperator hazrati oliylariga sadoqatimiz cheksiz. U kishi biz bilan hisoblashadi. Bunga iqror bo'lgan holda biz dunyodagi boshqa yurtlar hayotidan g'ofil yashayolmaymiz. Farangistonda, Olmoniyada savdo rastalarimiz bor. Angliyada ham kichikroq do'konlar ochilgan... – shunday deya amir bexosdan o'ychan qiyofaga kirdi. – Endi maqsadga ko'chadigan bo'lsam, men sizlarni, janoblar, biron bir mushkul chigallikni hal etish uchun bu yerga taklif qilganim yo'q. Biz muammomizni o'zimiz hal qiladigan xalqmiz. Sizdek mashhur izquvar bilan yuzma-yuz suhbatlashish, mehmon qilishning o'ziga xos zavqi bor. Yagona iltimosim shuki, yurtingizga qaytgandan so'ng London tashqarisida yashovchi Tom Richard degan ovchini izlab topsangiz. U bilan Rusiyada tanishib, birga ov qilganman. Agar hayot bo'lsa, menga bildirsangiz. Mabodo dunyodan o'tgan bo'lsa, oilasining ahvoli bilan qiziqsangiz, boshim ko'kka yetardi.

– Bu amringizni, albatta, bajaramiz, janobi oliylari! – deya va'da berib yubordi ajablangan ko'yi Sherlok Xolms.

– Tashakkur. Yana bir gap. Hozir Rusiya, Eron, Turkiyada notinchlik boshlangan. U avjiga minib, bir kuni yurtimiz ustiga ham soya solishi mumkin. Biz ko'pdan buyon ilm-ma'rifatga e'tibor berib, yangi dunyoviy maktablar tashkil etish tarafdorimiz. Ammo har qanday o'zgarishga qarshi johil ulamolar yo'l to'sib, bosh ko'tarishga tayyor. Bu – masalaning bir jihati. Ikkinchi jihati shuki, bizda eskidan toifa – suluklar to'qnashuvi xavfi mavjud. Hozirda Bosh vazir Ostonaqul va qozikalon Badriddin do'stona-ahil ish tutib, bu ikki toifa o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizoni to'xtatib turibdi. Men ham bu borada qat'iy qarordaman. Ammo kelgusida osoyishtalik buzilishi xavfi bor. Bu – dunyodagi umumiy ahvol, sharoitga bog'liq demoqchiman... Dunyoda, aslida,

Shimol bilan Janub bahsi hech qachon bo'lmagan. Sharq-u G'arb bahsi borligi ayni haqiqat. G'arb asrlar davomida Sharq beshigida tebranib, ko'zini ochgan. G'arbda Sharqdan saboq olmagan faylasuf, shoir, hunarmand topilmaydi. Lekin G'arb Sharqqa intilgan davr tugab, endilikda Sharqning G'arbgaga intilish, taqlid qilishi kuchaymoqda. Shu bilan birga, G'arbda Sharqni kamsitish, unga bepisand qarash rasmga kirmoqdaki, bu diyonatsizlikdan o'zga narsa emas. Yurtimizdagi gazeta va kitoblarda Muhammad, Sayyid, Rasul ismlariga mazax aralash munosabatni ko'raman. "Olluhu Akbar" degan nido go'yoki buzg'unchilik, yovuzlik ramziga aylanayotir. Bunday holatda dunyoda muvozanatni saqlash qiyin... Janoblar, eng katta jinoyatlar Sharq va G'arb biri-birini anglamasligi hosilasi bo'lsa ajab emas. Bizning yurtimizda hatto kichik nizolar ham olisdagi notinchliklar to'fonida yuzaga keladi. Mening tilagim, har qadamda g'ayirlik-g'araz tomirini qirqish kerak! Buning uchun hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib hamkorlikda yashashimiz zarur...

Amir mehmonlarga tashrif uchun minnat-dorchilik bildirgach, Umar Xo'jaga murojaat qildi:

– Mehmonlar uch-to'rt kun shahar tashqarisidagi bog'imizda orom olsinlar. Kelasi hafta Navro'z bayramida qatnashib, so'ng istasalar, o'z yurtlariga qaytishlari mumkin.

## VIII

– Bu ziddiyat qachon paydo bo'lgan?! Qayerda? – dedi Vatson Sherlok Xolmsga amir huzuridan chiqqanda. – Bizni Sharq ilmi va san'ati hamisha rom etadi. Qadim yodgorliklarni ko'rishni orzu qilamiz. Bir umr Sharqqa hayratlanib qaraymiz. Ammo bunga zid ravishda doim o'zimizni ustun tutamiz, Sharqni bosib-yanchgimiz, toptagimiz keladi. Bu yerdagi xalqlarning e'tiqodi, turmush tarzi, fe'l-atvoriga yot nazar bilan qarash bizga tabiiy tuyuladi. Amirning bu haqda kuyungani tushunarli. Ovchi to'g'risidagi gapiga esa hech tushunmayapman. Nahotki, Buxoro amiri uchun London etagida yashaydigan allaqanday ovchining oilasidagi ahvol qiziq bo'lsa?! Yoki xayolga berilib, bu gapni yaxshi anglay olmadimmi?

– Biz gap tagidagi ma'noni bilmaymiz, do'stim Vatson, – dedi Sherlok Xolms. – Anglashimcha,

amir xalqaro ahvolni tushuntirish uchun biz bilan suhbatlashgani yo'q... Lekin endi Angliyaga borgandan keyin men dastlab shug'ullanadigan ish shu bo'ladi!

Hech narsani anglamagan Vatson ularga yo'l boshlagan Umar Xo'jani so'roqqa tutdi:

– Bayramga qatnashishda tomoshadan tashqari biron maqsad ko'zda tutilganmi?

– Amirim unisini aytmadilar, – dedi

Umar Xo'ja. – Ammo sizlar bilan juda oshkora suhbatlashdi. Vaholanki, u hamma bilan ham bunday munosabatda bo'lavermaydi...

O'y surib qolgan Sherlok Xolms dabdurdustdan hamrohlariga bozordagi savdo rastalarini aylanish istagini bildirdi. Juma kuni bo'lgani bois timda odam siyrak. Gumastalar-u ba'zi bir savdogarlar unda-bunda choy ichib, suhbatlashib o'tirardi. Ajnabiy mehmonlar bilan kelgan Umar Xo'jani ko'rib barcha jonlandi. Tezda hamma katga bir dasturxon atrofida to'plandi. Dasturxonga issiq non, qaymoq, asal qo'yildi. Buxoro holvalari to'kib tashlandi. Kim qaysi millat vakili bo'lmasin, barchaga birdek hurmat va mehr ko'rsatildi. Ayni chog'da davrada haqiqiy mehmondo'stlik namoyon edi. Sherlok Xolmsga hech kim sharqona tartibni buzib, g'arbona betoqatlik bilan mehmonlar xususida gap kavlashtirib tirg'almagani yanada yoqdi. Buxoroga kelganidan buyon birinchi marta uning rang-ro'yi ochilib ketdi. Bu odamlar naqadar odobli, bosiq va mulohazali! Navbat kutib, shoshmay, dona-dona so'zlashdi!

Davrada, Ahadxonning fikrini tasdiqlagandek, dunyodagi siyosiy ahvol to'g'risida gap bordi. Rusiyada podshoh Aleksandr IIIga suiqasd uyushtirilgani, fitnachilar qo'lga tushib, qatl qilingani eslandi. Sherlok Xolms dasturxon boshida Ne'matulloh Xo'ja degan do'kondor bilan chiqishib qoldi. Ular qisqa fursatda ko'ngillarida bir yaqinlik sezishdi. Biri biriga ko'z tashlaboq, unisi nima deyishini bunisi payqab turibdi.

O'rinlaridan turganda bu holat Sherlok Xolmsga yanada aniqroq sezildi. Peshin vaqti bo'lgan edi. Barcha shosha-pisha juma namozini o'qish uchun masjidga otlandi. Ularning qulfsaliti yo'q do'konlarining eshik-derazasiga oddiy matodan parda tortganicha ko'chaga yo'l olganini ko'rib hayron bo'lgan Sherlok Xolms

doktor Vatsonga qaradi. Biroq Vatson ham so'zsiz yelkasini qisib qo'ydi, xolos.

– O'g'ri tushib, bir narsani ko'tarib ketmaydimi? – deb so'radi oxiri toqati toq bo'lgan Sherlok Xolms.

– Hech kim hech narsaga tegmaydi.

Musulmonchilik! – deya kulimsiradi Ne'matulloh Xo'ja. – Oyda-yilda bir o'g'ri chiqsa, qo'li kesiladi, goh eshakka teskari mindirib sazoyi qilinadi. Birov juda muhtoj holga tushmasa, qo'rqqanidan ham o'g'rilik qilmaydi. Shu sababdan, mirshab tutmasa, biz o'g'riga ba'zan rahm-shafqat bilan qaraymiz. Ochig'i, yurt qancha zarga botgan, boy bo'lgani bilan qo'li kalta, yupun, nochor kishilar juda ko'p. Gohida o'g'rilik gunoh ekanini bila turib, birovni oqlagandek ish tutishga majbursan. Axir, buni turmush deydilar...

Mezbonlar juma namozini o'qib chiqqunicha izquvar va uning do'sti atrofni tomosha qilib turishdi.

Nihoyat, Umar Xo'ja foytunda ularni "Shir-badan" bog'iga olib bordi. Yo'lda u Sherlok Xolmsning ko'ngli uchundir, boshlangan mavzuni davom ettirib, Ne'matulloh Xo'ja to'g'risida hikoya qildi:

– Bu nuroniy kishi g'oyat dono va tadbirkor...

U bir kechasi uyda yolg'iz yotgan ekan. Shunda tomdan sirg'alib hovliga o'g'ri tushibdi. Chol esa uni ko'rib, har yoqqa qarab o'g'illariga go'yo buyruq bera boshlabdi: "O'g'illarim, ushlanglar o'g'rini! O'rab olinglar! Barno Xo'ja, ushla, o'g'ri sen tomonga ketdi! Orif Xo'ja, o'g'ri sen tomonga qochdi, ushla!".

Qisqasi, o'g'ri vahimada qaysi tomon borsa, o'g'illaridan birining nomini tilga olib, "o'g'rini tut", deb baqiraveribdi. Axiyri, o'g'ri zora rahmi kelsa, degan umidda to'g'ri cholning yoniga borib, unga taslim bo'libdi. Chol esa unga tanbeh berib, qornini to'yg'azib, so'ngra qo'yib yuboribdi.

Sherlok Xolms Buxoroda yurib olgan butun taassurotini jamlab, shu asno aniq his etdi: bu yerda olim ko'p, dono ko'p! Ular orasida Ne'matulloh Xo'ja alohida o'rin tutadi.

– Bu yerda aqlli va tadbirkor odamlar ko'p ekan. Amir ularning qadrini biladimi? – deb so'radi u.

Umar Xo'ja horg'in xo'rsindi:

– Goh biladi, goh bilmaydi... Bizning bir shoirimiz "Mulki Hind-u Marvdan kelsam, e'tibor topardim. Aybim shu yerlik ekanligim" deya she'r yozgan.

Zahro bilan bog'liq voqeadan buyon Umar Xo'janing mashqi past. Zero, u bir yoquttoshni topib, ikkinchisini yo'qotgan edi.

Buni sezgan izquvarlar uni ortiqcha urintirishmadi. Shahar tashqarisidagi bog'da bahor oftobida badani qizigan daraxtlar allaqachon barg yozgan, atrof tiniq ko'm-ko'k, g'unchalar xandaga chog'langan. Ariqlarda ko'pirgan suv allayoqlarga shoshib-yugurmoqda. Yer yuzida bundan go'zalroq jannat joy bor ekanmi?! Izquvarlar uchun bu yerdagi uch-to'rt kun xuddi tush kabi o'tdi.

## IX

Eski Buxoroning tor yo'laklaridan qayroqtosh yotqizilgan katta ko'chalariga gurros-gurros odam oqib, barcha Namozgoh sayilgohi tomon yo'nalgan edi. Navro'z bayramida hamma yangi va toza libos kiygani bois turfa ranglarga qarab ko'z qamashar, shodiyona kayfiyatdan beixtiyor yurak toshar edi. Bu o'lkada janglar, isyonlar, suronlar, hasrat-nadomat hech qachon bo'lmagandek taassurot uyg'onardi.

Abduqodir Sherlock Xolms bilan doktor Vatsonni sayilgohga boshlab kelganida butun shaharliklar Namozgohga ko'chib chiqqan, ayrimlar sholcha to'shab, guj o'tirib olgan, boshqalar esa tomoshadan quruq qoladigandek maydonda depsinib yurar edi. Izquvarlarni hayit namozi o'qiladigan masjid yaqinida Umar Xo'ja mamnun qarshilab, ularni turli toifa mehmonlar o'tirgan joyga yetakladi. Xolms va Vatsonga tanish farang markiz de Kruaze shu yerda ekan. Yana bir qancha ajnabiylar bor, davrada g'ala-g'ovur avjida edi.

Birdan maydonga sukunat cho'kdi. Saroy ahli qurshovida sayilgohga amir Ahadxon kirib keldi. U guvullagan olomon salomiga alik olib, ta'zim qilganlarga bosh tebratib, ko'chma taxtga o'tib o'tirdi. Vazirlar – qushbegi, devonbegi, xazinabon – mehtar, bosh mirshab – inoq, qo'shin boshlig'i – parvonachi, qozikalon, ulamo, obro'-e'tiborli kishilar – bari amir yaqinidan joy oldi.

Barcha duoga qo'l ochdi, bayram boshlanishiga fatvo berildi.

Karnay va surnay, nog'ora va doira sadolari osmon qopqasini ko'chirgudek jarangladi. Bir yoqda dorboz-u morbozlar, boshqa tarafda ashulachi-raqqoslar. Navro'z – o'tlig'-u piyoda

teng suyunadigan kun ekan, kimdir "ko'z boylash" o'yinlarini ko'rsatar, boshqa birov masxarabozlik qilar edi.

Tomosha tugagach, to'kin dasturxonlar yozildi. Oshpazlar bazm palovini pishirishga kirishdi. Shu damda bir ko'ngilsizlik ro'y berdi. Atrof-yer qumlik edi. Ikki paqirda yog' ko'targan yosh oshpaz qoqilib ketib, yog' yerga to'kildi. Buni ko'rib Ahadxonning qosh-qovog'i uyuldi. Biroq sal fursatda zavq bilan kulib yuborib, to'planganlarga xitob qildi:

– Qani, kim bu yog'ni qumdan ajratib oladi? Kim bu masalani hal qila olsa, unga bir hamyon tilla mukofot beriladi.

Maydonni o'ychan-xijolatli bir jimlik qopladi. Shu alfozda oradan ancha fursat o'tdi.

Sherlok Xolmsning xayolidan ayrim taxminlar kechayotgan bo'lsa-da, aniq qarorga kelishga ikkilanayotgan edi. Vatson bilan maslahatlashishdan ham biror natija chiqmadi.

Asta-sekin olomon o'rtasida bahs-munozara boshlandi.

Shu chog' odamlar orasidan yelkalari sal bukilgan chol ikki navqiron yigit bilan o'rta qoqib, Ahadxonning ro'parasiga keldi.

– Oliy hazratlari! Ruxsat bersangiz, bu masalani men yechaman.

– Ruxsat! – dedi Amir.

Sherlok Xolms ko'zlarini katta ochib, qanday kishi ekan deb cholga tikildi va...

U – Sherlock Xolmsning timda tanishgan birodari Ne'matulloh Xo'ja, yonidagi yigitlar esa, aftidan, uning o'g'illari edi.

Ota-bolalar haybatli qozonga yaqinlashdi.

Ne'matulloh Xo'ja o'choqdagi o'chgan olovni qayta yoqdi. Suv qaynayotgan boshqa qozon ostiga ham yana o't qaladi. Cholning buyrug'i bilan yigitlar qo'llariga uzun dastali tos-idish olib, yog'ga belangan qumni sidirgancha qozonga ag'dara ketdi. Oradan ko'p o'tmay qum suv ostiga cho'kib, yog' suv yuzasiga qalqib chiqdi. Ne'matulloh Xo'ja shoshmay suvning ustida qaymoq bog'layotgan yog'ni cho'michda yig'ib, katta qozonga sola boshladi. Nihoyat, u yana Ahadxonga ro'bara bo'ldi.

– Yog' tayyor, oliy hazratlari!

– Barakalla! – dedi cholning donoligi, topqirligidan ko'ngli to'lgan amir. U imo qilgani

asno mehtar Ne'matulloh Xo'jaga bir hamyon tilla tortiq qildi.

Maydonda to'planganlar cholga qoyil qolgan edi.

Nomi dunyoda mashhur izquvar ham shu damda shaxsan zafar qozongandek suyungan edi. Ko'nglining tub-tubida u nihoyat Ahadxonning maqsadini anglagandek bo'ldi. Ne'matulloh Xo'jaga uzoqdan razm solib, qiziq bir holatni tuydi. Nazarida, Buxoroga shu odamni uchratish uchungina kelgandek edi.

Osh tortilib, hali ko'p kun davom etadigan bayramning birinchi kuni yakuniga yetgach, amir Ahadxon mehmonlarga lutf ko'rsatib, bir-ikki og'iz suhbat qurdi. U Sherlok Xolms va doktor Vatson bilan quyuq xayrlashib, tashrif uchun yana bir bor minnatdorchilik bildirdi.

## X

Madrasa ro'parasida hovuz. Hovuzda xonaqoh aksi. Yon tomonda biri-biriga tutash yana ikki madrasa. Hovuzni yonlagan anhor tarafda eski va yangi imoratlar qorishiq.

Zinalari pastga enib, to'rt burchak shaklda qurilgan hovuzni o'ragan ulkan qari tutlar atrofga ertakdagidek xayoliy shakl-shamoyil va ulug'vorlik baxsh etgan. Buxoro manzarasi go'yo shu yerda mujassam bo'lgandek edi.

Mehmonxonadan chiqib atrofni so'nggi bor aylangan izquvarlar ajib g'ussaga cho'mgan. Sharq-G'arb – nisbiy, omonat tushuncha, dunyo – yaxlit holdagi vujud! Ana, Xolms yuragining bir parchasi tarvaqaylagan tut shoxlariga, jimirlagan zangor suvga ilashib, Buxoroda qolib ketayotgandek sezmoqda. Angliyadan juda olisdagi bu o'lkada odamlar uni tanib, tan olgan, uning ham ko'nglida hurmat, mehr uyg'ongan ekan, bu yurtga qanday qilib u begona ko'z bilan qarasin?! Bashariyat yaratgan yodgorliklar, asrlar bo'yi asragan ezguliklar teng-barobar barchaniki emasmi?! "Bu meniki, bu seniki" deb ajratish, bir-birining yerini, mol-mulkini egallashga urinib, Yaratganning irodasiga qarshi yurish dunyoning sho'ri emasmi?!

Hujra eshigida ularni Umar Xo'ja kutib turgan edi.

– Men sizlarni chegaragacha kuzataman, – dedi u g'amgin ohangda. – Balki, Londongacha birga ketarmiz. Ammo hozir bir narsa deya olmayman. Hay, sharoitga qaraymiz-da. Taqdirda nima borligini kishi hech qachon bilmaydi. Inson uchun sargardonlik qismat, shekilli...

\* \* \*

*Qo'lyozma shu o'rinda uzilib qolgan, davomi yo'q edi. Men uni avval Tohir Malikka, keyin Tursunboy Adashboyga o'qishga berdim. Oxirida qo'lyozmani obdon muhokama qildik.*

– Ovchi Tom Richard taqdiri nima bo'ldi? Voqea tugamagan, – dedi davomli sarguzasht asarlar yozishga moyil Tohir Malik.

– Eng qiziq joyi shu edi, – deb qo'ydi she'rni qoq belidan boshlashni yoqtiradigan Tursunboy Adashboy.

– Ehtimol, Konan Doyl uni shu holda goldirishni istagandir? Yoki ovchi voqeasini boshqa asarga kiritishni o'ylagandir? – dedim men ingliz adibi o'rnida javob berishga majbur kishidek.

– Shu voqea asosida Konan Doylga o'xshatma tarzida hashar-qissa yozsakmikan? Bu adabiyotda sinalgan tajriba. Sherlok Xolmsni bu kunga Buxoroga yuborib, zamonaviy asar ham yaratish mumkin, – dedi Tohir Malik o'y surganicha.

– Bu qiyin ish, – dedim men ko'nglim chopmay. – Sherlok Xolms – har qachongidek an'anaviy asar qahramoni.

– Lekin Umar Xo'ja bilan amir Ahadxon ham qahramonga aylanib qolgan, – deb mulohaza bildirdi Tursunboy Adashboy.

– Menimcha, Ne'matulloh Xo'ja Sherlok Xolmsga "egizak" qahramon. Asardagi eng e'tiborli jihat shu, – dedim tilla topgan gadoydek xursand bo'lib. Bu munozara uzoq davom etdi. Oxir-oqibatda esa muhim tarixiy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'lyozmani matbuotda chop ettirishga kelishdik. Ushbu qo'lyozmani siz ham o'qib chiqdingiz, endi unga qanday munosabat bildirish o'zingizga havola.



### Faxriyor

1963-yili tug‘ilgan. Samarqand davlat universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetini tugatgan. “Dardning shakli”, “Ayolg‘u”, “Geometrik bahor” she‘riy to‘plamlari, “Yangilanish an‘analari” publitsistik maqolalar to‘plami nashr etilgan.

## «Oshiqlikdan pesh maqom yo‘q»

Haqiqiy she‘r – o‘ta noyob hodisa. U har kuni, har oy, hatto har yili ham yozilavermaydi. Yozilishi ham mumkin, lekin u bari-bir ko‘p bo‘lmaydi. Yozilgani nafaqat mavjud adabiy jamiyatda qaror topgan, ko‘pincha murosasozlikka asoslangan umumiy etiket me‘yorlari, qolaversa, tasavvuringiz qirg‘oqlarini ham buzib ketadi. Binobarin, bunday she‘rga har doim talab bor, o‘quvchi uni orziqib kutadi, yutoqib o‘qiydi, lekin uni bor holicha qabul qilish oson bo‘lmasligi tayin. Chunki haqiqiy she‘r har doim adabiyot, she‘riyat haqidagi siz-u biz ko‘nikib bo‘lgan tushunchalarga, tasavvurga daxl qiladi, ularni buzadi – shu tariqa badiiy tafakkur chegaralarini kengaytiradi.

Bugungi kunda endi adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yosh qalamkashlarning mashqlarini o‘qiganda, zikr etilgan ma‘noda qandaydir urinishlar bo‘layotganini, inson fitratida mavjud, biroq ijtimoiy me‘yorlar bilan kishanlab tashlangan erkinlikni qaytarib olish istagi hissi isyon bo‘lib, bosh ko‘tarayotganini ko‘rib, to‘g‘risi, quvonasan kishi va ularni sindirib

qo'ymasak edi, degan sassiz xavotir xayolning bir chekkasini ezg'ilib turadi.

Men Jontemirning ilk she'rlarini o'qigandayoq shunday xayollarga borgan edim. Uning keyingi paytlarda yozayotgan she'rlarini, tengdoshlari ijodi, hatto o'zidan katta ijodkor aka-yu opalarining jur'atsizligidan gina qilib yozgan maqolalarini o'qib, shularni o'yladim. Ba'zan she'rlarida ham, maqolalarida ham maromiga yetmay qolgan o'rinlar bor – ular vaqti kelib, boshqa she'r-u maqolalarda tobiga yetar, qurchlanar.

U, odatda, uzoq davom etadigan shogirdlik bosqichidan o'tmaganday, biroq ijtimoiy tarmoqlarda hali siyohi qurimay, hovuri bosilmay turib e'lon qilinaotgan she'rlarida shiddatli, o'qqa-cho'qqa kirishdan ham toymaydigan shaxs gavdalanadi.

She'rlarida qilich ramz sifatida ko'p uchraydi:

*...Qinda zanglab keksaygan qilich...*

*...Isfahoniy qilichlarda zang...*

*...Iymon – qilich, nafsni chop,  
Luqmangni yut halollab!..*

She'rlarda o'ta nozikta'b, "yangi SO'Z" (o'zining ta'biri) axtarayotgan bezovta qalbni ham ilg'ash qiyin emas, u bo'rtib ko'rinadi. (Bo'ronlarga bo'shatib ber // Yurak qa'ringni... Tiz cho'kdim, yumdalab yurak qa'rini... ..o'tmish kilkir yurak qa'ridan... Yurakni tirnaysan – cho'g' tortilgan soz... Churib tushdi yurakning cheti... va hk.) U adolat istab, tirikchiligi bilan ovora bo'lib qolgan, vatan tushunchasi uying devorlari, xalq tushunchasi oilasi; ma'naviyat, millat, uning taqdiri, or tushunchalari televizor ekрани qadar toraygan xalqqa yuzlanib, uni g'aflet uyqusidan uyg'otmoqchi bo'ladi. Shunday kuyinib yozayotgan paytlar so'z – qilichni tashbih qinidan sug'urib oladi, ichiga burov solayotgan og'riqni dangal aytgisi keladi. Hech kimni ayab o'tirmaydi, ming yillik tabibday mavjud ijtimoiy dardlarga keskin tashxislar qo'ya boshlaydi:

*Menga yoqmas muloyim erlar,  
Ayg'ir qolib, maqtar baytalin.  
Pahlavonning kimligin, derlar,  
Yuzidagi chandiq aytadi.*

*Menga yoqmas ehtiyotkor do'st,  
Taqdirini qo'rquv qilmish hal.  
Lug'atimga kirmagan afsus,  
Har qadamim – Haqqa tavakkall!..*

Aslida, bu – tabiiy. Hayajonlanayotgan odam kechinmalarini ochiq ifoda qilgisi keladi, munosabati raqibiga tezroq va aniq yetib borishini istaydi.

Dastlab, bunaqa dangallikni eng ichkin, o'ziga qamalib olgan she'riyat – italyan germetizmining yetakchi vakillaridan biri Eujenio Montale ijodida ko'rib, hayron qolganman. U bir she'rida Gitlerni la'natlayotib, germetist shoir ekanini ham esidan chiqarib qo'yadi va majozlar bilan hayqiradi. Yoki urush yillarida G'.G'ulom, H.Olimjonning hayqiriqlarini eslang. "O'zbekim" bilan "O'zbekiston – Vatanim manim"ni yodga oling. Isyonkor vujud atrofidagi biqiqlik, manfaatparastlik, soxtakorlik, zamzamani yoqtirmaydi, bularning bari unga adolatsizlik bo'lib tuyuladi:



*Ko'ppaklar, ortimdan ergashmang,  
Men yurar yo'llarda suyak yo'q.  
Choponim bariga tirmashmang,  
Tilim tosh, ruhim suv, etim cho'g'...*

“Tog'larning jimligi”, “yaylovlarga itoat sepilgani” shoir ko'nglini ozurda qiladi:

*O'zboshimcha tog'larga boqing,  
Oyoq-qo'li kesib olingan...*

*...Itoat sepilgan yaylovlar  
bor ekan, qirilib ketmaysiz!..*

Lekin Jontemirni shunchalik hayqiriqlari bilan ham inja hislar musavviri, lirik shoir degisi keladi odamning – hech kimga o'xshamagan shoir. Hayqiriqlar uning hali hech kimning xayoliga kelmagan tashbih-u ko'chimplarni she'rlariga olib kirishiga monelik qilmaydi. O'quvchi ulardan zavq tuyadi.

So'fiyona ohanglar-u ma'niga yo'g'rilgan quyidagi satrlardagi so'z oqimining ravonligi, dardning teranligi she'riy tafakkurning so'nggi yillarda jilg'alanib qolgan va nazdimizda torayib ketgan soyiga selday bostirib kiradi va barmoq vazni chegaralaridan oshmay turib ham yalqov tasavvurimiz qirg'oqlaridan toshib chiqadi – shu tariqa an'anaviy she'r imkoniyatlarini kengaytiradi:

*Yirtilmagan but yaqom yo'q,  
Ruhdan bo'lak hech vaqom yo'q,  
Oshiqlikdan pesh maqom yo'q,  
meni o'ldir, “Men”ingga qo'sh.*

*Uzoq yillar tortib huzur,  
Seni kechroq topdim, uzr,  
Endi ko'rar kunim qusur,  
meni o'ldir, “Men”ingga qo'sh.*

Uning qalb tug'yonlari shiddati yangicha ohanglarni, ifoda usullarini yetaklab keladi, lekin shu holicha ham xalqona:

*balogardon qaydasiz  
qariyapti kulgichim  
ha yo hu ha yo hu  
dam soling ay ruhimga  
bo'shab qoldi-ku ichim  
ha yo hu ha yo hu*

Hayajonga esh tug'yonlar ko'p o'rinlarda barmoq vazni chegaralaridan toshib chiqadi hamda barmoq bilan sarbast qorishmasiga aylanadi, o'quvchi endi norozi bo'laman deb turgan paytda yangi topildiqlar: turli so'z o'yinlari va tashbihlar qofiya-yu turoqqa do'nadi. Bunday holatda o'quvchi shoirning so'zlarni ohang yoki tuyg'ularning o'ziga xos ifodasi talabi bilan biroz buzib, shevaga xos ishlatishini (tufroq, yoshinib, dovush va hk.) kechirib yuboradi.

*Uyg'onsang-chi,  
Osmon bilan shivirlashar bo'ychan daraxtlar,  
Ezgin xotiraday yoyilmish tuman.  
Derazani ochgin-u, dilbar –  
Yog'murni tingla!*

*Masih tomchilarga chayingin to'plab,  
Bosiriq tushlaring saboga ulash.  
Afsungar zulmatning sharobin ho'plab –  
Yog'murni tingla!*

Yoinki:

*Kuzgi bog'.  
Daraxtlar oralab kezib yurar siniq xotira.  
U qachonlardir biz yaratgan shodlik topgan  
Xotima...*

Xullas, Jontemirning she'rlari Shoirdan yangi so'zni uzoq kutgan millatga munosib sovg'a bo'lishi tayin. Unikiga o'xshash jazba bor joyda kechinma-yu fikrlarni oshig'ich, bor holicha aytish ishtiyoqi kuchli bo'ladi. Ayniqsa, yoshlikda. Bu – o'tib ketadigan holat. Binobarin, Jontemirday olovqalb shoirdan hech bir muharrirning yuragi qalam tekkizishga dov bermaydigan she'rlar kutib qolishga haqlimiz.



**Jontemir**

1994-yili tugʻilgan.  
"Darvesh qoʻshigʻi" sheʼriy  
toʻplami chop etilgan.



\*\*\*

Oy – qayralgan tunning xanjari,  
Vahimaga tutqun tevarak.  
Ruhi uygʻoq hofiz axtarib,  
Yulduzlardan ohang sevalar.

Yolgʻiz oʻzim hoʻplayman qonib,  
Kipriklarim pichirlar duo.  
Derazalar boqmas uygʻonib,  
Faqat sarson sharpalar guvoh.

Choʻzilaman namxush tuproqqa,  
Kuy tuslanar: yashil, och sariq.  
Koʻmiladi koʻzlarim oqqa,  
Ildiz otib ketar sochlarim...

## Yigit umrim oʻtmasin bekor...

### Bedor

Tun – soqoli oqarmagan chol,  
Oʻqtin-oʻqtin xoʻrsinib qoʻyar.  
...Daraxtzorda masiqqan shamol  
Uvlab jimlik koʻzini oʻyar.

Akillaydi zanjirband koʻppak.  
Sapchib chiqar hovuzdan baliq.  
Sayqallangan bir dasta ipak,  
Oqib tushar oydan sirgʻalib.

Quyuc tuman ichida shahar,  
Oʻrindiqlar mudraydi – boʻm-boʻsh.  
Nogoh kulib yuborsang agar,  
Zuhrogacha choʻzilar tovush.

Butun borliq uyquda, lekin  
Xiyobonda, jimjit yoʻlakda,  
Bedor kezar tamaki chekib,  
Ajriq bosib ketgan yuraklar...

Quadratini koʻrsatadi vaqt,  
Xiralashar samoning xoli.  
Tonggi yeldan junjekar poytaxt –  
Oqaradi cholning soqoli...

### Balogʻat

Koʻkraklari shiradan  
taranglashgan uzumzor  
tamshantirar labimni –  
tush sepilgan koʻzim lol!

Toʻshagim – Shom yo Misr,  
Ogʻzimga suv tomizing.  
Bir qoʻlida chanqovuz,  
Bir qoʻlida sibizgʻa.

Ohang izlab, soʻz izlab  
ohim choʻkar qimizga.  
Ter quyilar shovullab,  
uygʻondimi dovullar?

Choʻkka tushib boladay –  
Osmonoʻpar hayrati.  
Yoʻngʻichqaning gullarin  
hidlab-hidlab yayradim.

Bolish boshga botodi,  
Alahsib tong otodi.  
Muz yalagan yelvizak  
igna sanchar yuzimga.

Attang, tegmadi labim  
shiralangan uzumga...  
Nadir ruhim shopirgan?  
Sanoqqa zor qobirgʻam.



\* \* \*

Isfahoniy qilichlarda zang,  
So'zlar haddan ziyoda mayin.  
Biror erga xezlanib boqsang,  
Ojizaday o'tar jilmayib.

Ishq izlaysan qizlar ko'zidan,  
Seni itday toptaguvchi g'am.  
Oshiqlari olsa bo'g'zingdan,  
"Bor, yo'lingdan qolma, muttaham!"

Devonalar uchrasa saf-saf,  
Tilda zikr-u qo'lida tayoq.  
Birga kezsang Buxoro, Nasaf,  
Yalangto'sh-u ham yalangoyoq.

Mavlonoday (kelsaydi zamon)  
Tashvishlarga o'ralashmay hech,  
Es-hushingdan ayrilib tamom,  
Jazavada she'r yozsang har kech.

Hu-u tog'larda jangga qo'shilsang,  
Sharros-sharros quysa bulutlar.  
Dushman tug'in changallab o'lsang,  
Jasadingni yesa burgutlar.

Uv-v, damashqiy qilichlarda zang,  
So'zlar haddan ziyoda mayin.  
Boshqalarday yasha yashasang  
Sipqorgancha sukunat mayin...

Parvardigor, bandangni qo'lla,  
Yigit umrim o'tmasin bekor.  
Hallojsifat talvasa yo'lla,  
Mening dorga ehtiyojim bor!



\* \* \*

Yo'llar momataloq, tovoning yag'ir,  
ona, ellik yilki yelding-yugurding.  
Qismat gurzilari baxtingni yorgan  
kechalardan bo'lak nimani ko'rding?

Qoningdan ungamdim, oqdim ko'zingdan,  
Kim to'kkan yoshini ololgan to'plab?  
Sen kunda eslaysan, men-chi, yodingni  
erkalolmam hatto tushimda eplab.

Ona, o'g'il emas, tuqqansan shamol,  
Tosh tug'sang, yoningdan jilmasdi nari.  
Qanday go'zal eding, sig'inardim, rost,  
Yarashib turardi xol, sepkilling.

Momotut bag'ridan yuzingga ko'chgan  
ajinlar oralab yuribman bugun.  
Qachon ichimdagi alanga o'chgay?  
To'xtashni bilmayman qaytishim tugul.

Noraso mavjudot ekan-da shoir,  
Yo'qlik ummoniga qilar tili g'arq.  
To tirik, orqa-yu oldiga boqmay,  
tasavvur ketidan itday iliqr.

Ona, sen – sog'inch, men so'zga yukliman,  
Bor qayg'u, dardlaring xotiramga sot.  
Yuragim dard tutgan ayoldek, tavba,  
Har sahar she'r tug'ib dod soladi, dod!

O, buni ko'rmagin, bardoshing yetmas,  
Tag'in yig'laydi ham satrlar singlar.  
Ot yolidan eshib ingichka sirtmoq,  
Kutar Ajal – ovchi qaytishim senga.

Ona, tosh bo'lolmay, balki, yutqazdim?  
Ichikma, qalbingdan tushsam tayrilib.  
Tufroqdan jismingga ko'chib o'tgandim,  
Samoga ketyapman sendan ayrilib.



**Lola NURIMOVA,**

*Toshkent shahri Shayxontohur  
tumanidagi 84-umumiy o'rta ta'lim  
maktabi o'quvchisi*

## Bahorning sehrigar *boqiy chiroyi*

Ona tabiatning eng go'zal va betakror, zumrad, dur-u marvaridlarga boy fasli. Yam-yashil gilamlar uzra sariq boychechaklar, nimpushti rang nastarin, chuchmoma, binafsha-yu lolalardan gul naqshlar solinadi. Daraxtlar olmos, la'l-u gavhar ko'zli sirg'alar taqib oladi. Tog'lar esa oq qalpog'ini boshiga qiya qo'ndirib, goh-gohida nozik bodomlarga shamol purkaydi. Voy, tog'larning nafasi buncha sovuq... Lekin bahorni naqadar harorat bilan sevguvchi quyosh nurlari tog'larining boshidagi oppoq qorli qalpoqlarini erita boshlaydi. Cho'qqilarning chakkalaridan tiniq tomchilar shashqator bo'lib tomchilaydi. Go'yo quyosh nurlaridan tog'lar terlab ketgandek. Ular shunday jiqqa terlaydiki – chuqur daralarga zilol jilg'alar o'ynab, sakrab tusha boshlaydi. Tiniq suvlar buloqlarning ko'z yoshlarimi, deya o'ylab qolasiz.

Tog'lardagi buloqlar ko'zyoshlari bulutlarning o'kirib yig'lashi oldida ip esholmay qoladi. Bahor – yig'loqi nozanin. Hadeganda izillab yig'lab, hadeganda charaqlab tabassum qilib beradi.

Uvatlar, qir-adirlar chekkasiga qizg'aldoqlarni taqib oladi. Qirqokil qizaloqlardek qoqigullardan sochbargaklar yasab, boshiga kiyib oladi. Tavba, bahor ham qiz bolaga o'xshaydi-ya. Atlas liboslar, qizil durrallar, chamandagul do'ppilarni bahor qizlardan o'rganganmi yoki qizlar bahordan, deya hayron bo'lasiz.

Navbahorning go'zalligi, husn-u latofati to'g'risida oppoq qog'ozlarni to'ldirib qancha yozmaylik, bu baribir kam. Bahor – go'zal hayot. Tabiatning va inson ruhiyatining uyg'onishi. O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov: "Bahor mangu emas, uch oydir xolos",

deb yozgan bo'lsalar ham, ushbu satrlarda bahorning mangu go'zalligi tarannum etilgan. Navbahorning mana shunday go'zalligini kuylab, odamlar qalbiga joylay olgan shoira Zulfiyaxonimning "Bahor" nomli she'ri umrboqiy asar bo'lib qolgan. Bahorning ilk kunida tavallud topgan sevimli shoiramiz siymosi yuragimizda, xayolimizda bahordek doim yashaydi.

*Inson ko'zlarida jon olar bahor,  
Barcha tomirida uning to'lqini.  
O'tmishning behuda oni kabi qor,  
Beiz, bedard erib ketar uchquni.*

Bahor inson ko'zidan jon oladi, odamning tomirida bahor to'lqinlanadi – tasavvurni yorqinlashtirib yuboradigan jonli manzara. Chuqur mazmunli satrlarda tabiat va inson uyg'unligi badiiy mahorat bilan tasvirlangan. "Bahorda daraxtlar odamlarning kuchini, jonini olib qo'yar emish" degan gapni xalqdan ko'p eshitganmiz. Bu bejiz emas. Bulut – o'yinqaroq go'dak, bahor – sehrigar, uning chiroyi va yoshligi umrboqiy timsollar orqali shoira go'zallik oldida vaqtning nisbiyligini ta'kidlaydi. Bahor ko'zguni sindirib tashlaydi, ya'ni, yosh-u qari birdek go'zal ko'rinadi, degan betakror fikrdan she'riyat qudratini his etamiz. "Benihoya yaqin bo'ladi yiroq" – go'zallik qoshida masofa ham hukmini o'tkazolmaydi. Badiiy so'z va sehrli xayol bilan shoira o'zgacha go'zal olamni kashf etadi. Shuning uchun "Bahor bo'lmaganida odamzod baxtni kashf etganidek, bahorni ham kashf etardi", degan shoh satrlar kitobxonlar yuragidan joy olgan. She'rdagi barcha obrazlar chiroyli va juda yorqin ekani yodimizda qoladi, xayolimizni nurlantiradi.

# Muharrir TAVSIYASI

Hikoya



**Xolmuhammad  
KARIMIY**

1966-yili tug'ilgan.  
Toshkent davlat universi-  
tetining O'zbek filologiyasi  
fakultetini tamomlagan.  
"Hurayro", "Hurliqo",  
"Buni hayot deyдилar..."  
kitoblari chop etilgan.

Nazar jildga solingan qo'lyozmani qo'ltiqlab, dilida ulkan bir faxr bilan nashriyot binosiga kirib bordi. U bosh muharrirga o'zini tanishtirib, unga jildni topshirar ekan, o'zini yelkasidan tog' ag'darilgandek his etdi. Hozirgacha uning bir nechta hikoyasi gazetada chop etilgan, lekin endi birdaniga yigirmata hikoyani o'quvchilarga taqdim qilish mumkinligidan ko'ngli chog'. Hikoyalarni saralab bo'lgach, bir boshdan o'qib chiqqanida yillar bo'yi bekorga mashaqqat chekmaganiga quvongandi. Tabiiyki, hikoyalari nashriyot muharrirlariga ham xush kelishiga shubhasi bo'lmasa-da, baribir hayajonda. Oradan vaqt o'tgan sayin qanday baholarkan degan o'yda diqqati oshgan kunlari xabar kelib, nashriyotga uchib bordi-yov.

– Nazar do'stim, – dedi muharrir uni qarshisiga o'tirg'izib, – hikoyalarning har biriga alohida fikrlarimni yozib qo'ydim. Umuman olganda, hammasi joyida, ammo voqelikka bog'liq yana qandaydir real epizodlar yetishmayotgandek, nazarimda, buning ustiga tabiat tasvirlarining haddan ziyodligi o'quvchini chalg'itishi mumkin.

Nazar nashriyotdan chiqqach, sabri chidamay bir chetga o'tirib muharrirning yozganlarini o'qib chiqdi. Aniq-tiniq qilib yozilgan kamchiliklar haqida o'yga tildi: "Nega? Balki, u o'zining qarashlarini menga singdirmoqchimi? Men ijodkorman, bu gaplarni shogirdiga aytsa yarashadi", deya g'ashi keldi. Bir necha kun shu haqda o'ylanib yurgach, qaysarligi tutib boshqa nashriyotga borib uchrashdi. Oradan o'n kunlar o'tib, yana o'shanga o'xshash gapni eshitib, bu yerda ham meni tushunishmadi, degan o'yda uchinchi bir nashriyotga yo'l oldi. Yana yurak hovuchlab kutishlardan toqati-toq bo'lganda, nihoyat, bu muharrir bilan ham yuzlashdi. Achinarlisi, bu safar ham avvalgilarga o'xshash gaplar eshitib, alami keldi: "Bularning hammasi kelishib olganmi, – deya uchinchi manzildan chiqqanda ko'ngli huvillab qolgandek bo'ldi. – Nahotki, shuncha yillik mehnatlarim oxir-oqibat quruq gap bo'lib qolsa?" Uyga qaytgach, birinchi nashriyot muharriri yozib bergan tavsiya qo'lga ilindi-yu, uni qayta-qayta o'qib ko'rganidan

keyin, aytilganidek tuzatishga qaror qildi. Boshqa nima qilsin, qayerga uchragan bo'lsa fikrlar bir xil, tartiblar o'xshash, aslini olganda nuqson o'zida bo'lib chiqyapti. Oxir-oqibat "o'z ustida ishlashi" shart degan xulosaga kelgach, dunyoni unutilib ijod qilishga kirishdi.

Osuda tun qo'ynida qo'lyozmalarni oldi va tabiat tasvirilarini butkul o'chirib tashladi, keyin qayta o'qib ko'rdi. Bir qarashda o'quvchini chalg'itadigan narsa qolmagandek, shuning barobarida o'qiydigan narsaning ham g'ariblashgani sezildi. Nazarida, badiiy asar jozibasini yo'qolib qolganidek, biridan qutulsa, ikkinchi muammo kelib chiqadi. O'z-o'zidan muharrir tavsiya qilganidek voqeelikdan epizodlar topishi muhimligi bo'y ko'rsatar ekan, uning bilimdonligiga qoyil qolib, o'zining xato yo'lda ekaniga ochiq-ravshan iqrar bo'ldi.



Rasmlarni Asliddin Kalonov chizgan.

Shu o'yda boshi qotib yurgan kunlari hamkurslari duch kelib qoldi. Ziyofat chog'i bir o'rtog'i qo'shnisi xotinini ayamay kaltaklaganini kuyinib so'zlab berar ekan, uning yuragi jiz etdi: oilaviy muammolar yoritilgan hikoyasiga epizod tayyor. Bu holat badiiyashtirilganda tabiat tasvirlari o'chirilgan hikoyaga qayta joziba kirdi. Shundan keyin qayta-qayta o'qib ko'rgach, muharrir to'g'ri maslahat berganiga yana bir karra amin bo'ldi. Hayot esa badiiy adabiyotning qon tomiri ekanligini ana shu hayotiy misol tajribasidan keyin yorqinroq angladi. Shu tarzda epizodlar izlab odamlarning hayot tarzini kuzata boshladi. Bu orada qishning qirovli kunlari ortda qolib ketgan, u bo'lsa o'z olamiga sho'ng'ib bahor kelganini sezmay qolibdi. Eng muhimi, bahonada odamlar orasiga kirib ijodning yana bir qirrasini anglab yetdi-ku. U shundan xursand. Barcha tuzatishlarni tugatib bo'lgach, endi qat'iyat bilan yana nashriyotga yo'l oldi. Muharrir qo'lyozmani olib qolar ekan, bir haftadan keyin kelishini tayinladi. U yerdan ruhi yengil bo'lib chiqdi: albatta,

bu gal yozganlari muharrirga yoqib qoladi. Axir, ozmuncha mehnat qildimi? Bu orada o'qish-yozishga berilib ketganidan bir paytlar orttirib olgan oshqozondagi dardi qo'zib, yotib qoldi, ho'-o' bir paytlardagidek yana o'zining qo'lbola dorisini tayyorladi. Chinni kosadagi isiriq donining damlamasini och qoringa ichib yuborganida, go'yo ichiga olov kirgandek ko'zlaridan tirqirab yosh otildi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay og'riq bosildi. Musofir g'ariblar g'amini yegan Ibn Sino janoblariga tasanno, deb qo'ydi o'z-o'ziga.

Shunday sarsonchiliklar bilan oradan bir haftani o'tkazib muharrirning oldiga borganida, uning ajablanib o'tirganidan hayron qoldi. Yana nima gap?

– Epizodlar hikoya ruhiga singmabdi. Ochig'ini aytganda, qahramon xarakterini ochish uchun sharqona hikmatlardan asar syujetiga singdirishni nazarda tutgandim, – deya muharrir mujmallandi.

Bu gap go'yoki yuziga urilgan zalvorli bir mushtdek gangib qoldi. Muharrirning navbatdagi tavsiyasini ham e'tiborga olishini va'da qilgan bo'lsa-da, uning injiqligidan zo'rg'a jahlini bosib anhor bo'ylab ancha joyga piyoda bordi. Osmo ko'prikdan o'tgan joydagi muzqaymoq sotuvchisining do'konida o'tirib uzoq xayol surganidan likopchadagi atala bo'lib qolgan muzqaymoqqa qo'l tekkizmasdan adabiy jurnal muharriri bilan ko'rishish uchun jo'nadi. Talabalik davrida saboq bergan ustoz, u olim asl adabiyotni sevadi, qachon qarama kitob qo'ltiqlagan, boz ustiga o'ta talabchanligi sabab, aynan undangina kerakli maslahat olishdan umidvor bo'ldi. Joyi kelsa, otasini ham ayamaydigan olimga ro'para bo'lishdan cho'chimay, unga bor gapni bir boshdan aytib berdi. Ustoz avvaliga uning soddaligidan rohatlanib kuldi, shu barobarida tirishqoqligiga zavqi kelib yayrab ketdi.

– Shuncha izlanishlar qilibsana, albatta, tahsinga loyiq, lekin ijod faqat mehnat qilish bilan yuzaga chiqmaydi. Mahoratni sayqallash

kerak, senga tavsiyam shu, – dedi ustoz jiddiy ohangda. – Masalan, “bozorga bordim bozini ko'rdim, qulog'i uzun tozini ko'rdim...” Shunga o'xshash hikmatli iboralarni voqelikka singdirib yuborish mumkin.

Shu haqda uzoq gapirdi. Hatto jahonga mashhur lotin amerikalik yozuvchining romani misolida tushuntirib berdi. Bundan tashqari badiiy adabiyotning yozilmagan qoidalari borligini, uni tushunmoq uchun hayotni kuzatish shartligini bot-bot takrorladi. Juda ajoyib bo'lgan suhbatdan terisiga sig'may quvonib, hatto o'z fikrining tiniqlashganini his etdi.

Olimning so'zlaridan ilhomlanib, qimorboz mavzusidagi hikoyasiga ushbu sharqona hikmatni kiritib, qayta o'qib ko'rdi. Shundan keyin ustozdan minnatdor bo'lish barobarida, muharrirning sinchkovligiga hayron qoldi: shunday ajoyib narsa kerakligini qanday fahmladi ekan-a? Bekorga bosh muharrir bo'lmagan deya o'ylar ekan, uning gapidan xafa bo'lgani uchun o'zini koyidi. Shu kundan boshlab yana odamlar orasiga sho'ng'idi. Qayerda bir hikmat eshitib qolsa, darhol yon daftarchani qo'lga oladi. Va qaysi hikoyasiga mos ekanligini belgilab qo'yadi. Nihoyat, hikmatlarni topib, o'mi-o'miga joylashtirganidan so'ng bir boshdan hammasini tahrir qildi. Keyin ich-ichidan quvonib, yana muharrir oldiga bordi. Muharrir ham erinmagan odam ekan, bir hafta o'tib bu gal voqelikka ismlar mos kelmayotganini aytib qoldi.

Nazar ancha xotirjam, oddiy kamchiliklar bosh qotirishga arziqligidan ko'ngli ranjimadi. Tezroq nuqsonlarni tuzatish uchun yon daftarchani qo'lga olib ism izlashga kirishdi. Zamonaviy hikoyalarga osongina ism topildi, ammo tarixiy mavzuga bag'ishlanganlariga kelganda o'tmish voqealariga quloq tutib ko'p vaqti ketdi. Har qalay uzoq sarsonchilikdan keyin ishni uddalaganidan boshi osmon barobar yuksalib, bir necha kun rohatlanib yurdi.

Ana shundan keyin hikoyalarni o'zi o'qib ko'rib ajabladi, hech bir o'zgarish yo'q.

Nega bunday bo'ldi? Bu savol yuzasidan ustozning oldiga borishdan uyalib, boshqa adabiyotshunosga voqeani bir boshdan aytib berdi.

Bu olim ham qo'lyozma bilan tanishib chiqishga rozi bo'lgach, yana bir hafta kutishga to'g'ri keldi. Olim: "Masalan, qadimgi mavzudagi hikoya qahramonlari O'roq yoki Qilich atalsa, ishonchliroq bo'lishi aniq", dedi. Bu borada hatto muharrir ayaganini ham qistirib o'tdi.

– Hikoyalarda hayotiylik oqsab qolgani yaqqol seziladi, birinchi hikoya qahramoni bo'kib ichib, uyini zo'rg'a topib borishi tasvirida nuqson bor. Aslida bunday paytlari ichuvchi uyga yetib-yetmay bir necha bor yiqilib tushsa, o'quvchiga ishonarli chiqishi, yoki boshqa biridagi keksha chol obrazi yigitlarga nasihat qilayotganda uzoq tik turib qolgan, unga stul qo'yib berish shart emas, balki tabiiylikni ko'rsatish uchun to'nkagami yoki chetda yotgan xariga o'tirgan bo'lsa, o'quvchi rostakamiga uning gaplarini tinglay boshlashiga ishora bo'ladi. Oddiy tasvirlar ishonchsiz, o'quvchining yuragini o'rtab yuborish uchun hikoya qahramonining xarakteriga bo'yoqlarni yorqinlashtirish shart. Ana shundan keyin qahramon xarakteri yaqqol bo'rtib chiqishi mumkin.

Nazar muharrirning bosh-adog'i yo'q tavsiyalaridan miyasi g'ovlab ketgan bo'lsa ham, ammo u ortga chekinishni xayoliga keltirgani yo'q. Yana g'ayrat bilan ishga kirishib, tunda ish stoliga o'tirgach, tarixiy voqealarga bag'ishlangan hikoyalarini ajratib olib, ikkinchi bor ismlarni yangiladi. Avval-boshdagisiga Bolta, keyin navbati bilan Qilich, Qalqon, Nayza, O'roq, Ketmon va Qoziq qilib o'zgartirdi. Lekin yana ikkitasiga munosib ism tanlay olmaganidan uzoq o'ylanib, biri – juda mehnatkash qahramonini Omoch, muhabbat haqidagisini Yulg'in va Sandaloy atadi. Ayniqsa, ismlar sabab sevisganlarning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbat tafti ziyoda bo'lgandek quvonib ketdi. Keyin qahramon siymosini yaqqol ochib berish uchun holatga moslab birini qusdirdi,

birini yig'latdi, birining oyog'ini kuydirdi, ayrimlarini o'ldirib, bir boshdan bo'rttirib chiqdi. Bu orada yana naq ikki oy ovora-sarson. Ijodiy ishini tugatib, orada uch-to'rt kun dam olib, qaytadan bir sidra ko'zdan kechirar ekan, ayrim o'rinlar tahrir qilindi. Xullas, asarini bir boshdan sayqallab chiqdi.

Bu gal muharrir juda horg'in va asabiy tarzda uqtirar ekan, uning tushungani shu bo'ldi: bir necha vaqt qo'lyozmani tashlab qo'yib, asar ruhiga yangi havo olib kirishi kerak emish. Tasvirlar, ismlar, voqelar bir-biriga tabiiy holda bog'lansin ekan. Bu gaplardan Nazarning miyasi tars yorilayozdi. Shu tariqa qo'lga qalam olishdan ko'ngli sovib, oradan naq yarim yil o'tib ketdi. Ammo kutilmaganda bir gap qulog'iga chalinganda yuragi jiz etib yana ilhomi keldi. "Oh, – dedi odamlarga e'tibor bermay, – bu – uchinchi hikoyamga juda mos kelar ekan". Shu-shu yana hikoyalari haqida o'ylay boshladi. "O'h", dedi boshqa bir kuni mutlaqo boshqa odamlar orasida, bu – o'n birinchisiga uzukka ko'z qo'ygandek gap. Shunday qilib nihoyat yigirmata yangi epizod topib, hikoyalarga toza havo kiritishga muvaffaq bo'ldi. Ammo to'g'ridan to'g'ri muharrirga ro'para bo'lishdan hadiksirab, yana boshqa bir adabiyotshunos nazaridan o'tkazish uchun ko'chaga chiqdi. Ammo bu safar uchrashgan adabiyotshunosning ortidan bir oy ergashib yurib, eshitgan gaplari kutganidek bo'lib chiqmadi, u hikoyalar haqida emas, uning o'ziga yo'l-yo'riq ko'rsatdi: hikoya yozishdan oldin "falon-falon" adabiy, tanqidiy maqolalarni o'qishi kerak ekan.

Nazarning peshonasi tirishdi. Axir, u aytgan maqolalarni allaqachon o'qib chiqqan, va hatto boshqalarini ham ko'zdan kechirgan bo'lsa-yu, yozganlari shunchalik g'arib chiqibdimi? Uzoq o'ylanib yurib yangi o'sib kelayotgan yosh adabiyotshunoslar bilan hamsuhbat bo'lishga qaror qildi, hatto bittasiga hamma hikoyalarni olib borib berdi. Qizig'i, yosh adabiyotshunoslarning fikrlari uni batamom ruhlantirib yubordi. Ko'tarinki kayfiyatda

yangicha ruhda hikoyalarni qayta tahrir qilishga kirishib ketganini o'zi ham bilmay qolibdi. Yoshlar ko'proq tabiat tasvirlariga urg'u berishni tavsiya qilganidan, tabiatning har to'rt faslini kuzatar ekan, oradan bir yil o'tib asarlarida yangicha ruhdagi tabiat tasvirlari paydo bo'ldi. Yangi olamni kashf qilganidan oradan o'tgan vaqt uchun hech achinmadi. Ayniqsa, yoshlarning har qanday mavzuda uzil-kesil va keskin fikrlashi uning ilhomini yanada jo'shdirib, o'zida xuddi yoshlarga xos shijoat tuydi.

Endi mutlaqo boshqacha kayfiyatda nafaqat yangicha ruh, balki yangicha hayot nafasi ufurib turgan qo'lyozmani nashriyotga yetkazdi. Oradan bir hafta o'tib telefon qo'ng'irog'ini ham kutmasdan o'zi muharrir huzuriga bordi. Muharrir juda oddiy qilib, tavsiya bildirishdan charchaganini aytdi. Nazar hang-mang, boshini toshga urib olgandek ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Eh-he asari muharrirga xush kelishi uchun nimalar qilmadi. Hatto, shu vaqt oralig'ida oilasida nimalar bo'layotgani haqida tuzukroq o'ylab ham ko'rmabdi: "Tamom – yozish qo'lidan kelmaydi". Qat'iy qaror qildi. Bekorga o'zini qiynab nima qiladi? Aynan shu fikr miyasida charx urar ekan, anhor bo'yidagi ovloq joyga o'tirib oldi-da, bittalab hikoyalarni suvga uloqtirishga tushdi. Har bir hikoyasi havoda pirillab ovoz chiqarganida jigarini bir tilib yuborgandek ingrab qo'yadi. Ammo u qilayotgan

ishidan o'zini to'xtatolmaydi. Qo'li bo'shab, ko'ngli huvillab qolganidan keyin ham uzoq o'tirdi. Nihoyat, barisidan birvarakayiga qutuldi. Endi boshqalarni ham bezovta qilmaydi, tamom-vassalom.

Asr mahaligacha anhor bo'yida motam tutib o'tirdi. Keyin zo'rg'a sudralgancha oshnasini izlab ketdi. Yoshlikdan qadrdoni bo'lgan Nazarni o'ta tushkun kayfiyatda ko'rib, oshnasi uning ko'nglini ko'tarishga so'z topolmaganidan jimgina qarzga so'rgan pulni qo'lga tutqazdi.

Allamahalda uyga kelgan Nazar uzoq safardan qaytgandek rosa toliqqan holda o'zini to'shakka tashladi. Ertalab ko'zini ochgan zahoti xotiniga bolalarni kiyintirishni buyurdi. Qo'limdan yozish kelmas ekan, bolalarda ne ayb, loaqal ularning bolaligini suvga oqizmay degan xayolda, bolalarini yetaklagancha ko'chaga chiqdi.





**Farog'at  
XUDOYQULOVA**

*1975-yili tug'ilgan.  
O'zbekiston Milliy  
universitetining Jurnalistika  
fakultetini tamomlagan.  
"Kuy dilim, suygulim",  
"Aytolmagan so'zlarim",  
"Oydinlik" nomli kitoblari  
chop etilgan.*

### *Sevmagan bo'lsam...*

Kuz shoxlarga qizil yaproq taqmasa,  
Quvonch quchoq ochsa, g'amlar boqmasa,  
Dilni yoqqaningiz, dilga yoqmasa,  
Qaniydi, men sizni sevmagan bo'lsam.

Peshonamda beun suymoq bor ekan,  
Qahringiz o'tida kuymoq bor ekan,  
Sitamlardan quvonch tuymoq bor ekan,  
Qaniydi, men sizni sevmagan bo'lsam.

To'zg'ib xayolingiz, bo'ronday kezsam,  
Farog'at topsam-u, tinchingiz buzsam,  
Bu jon uzilmasdan umidim uzsam,  
Qaniydi, men sizni sevmagan bo'lsam.

Kun kelib,  
tantana qilgay adolat,  
Muhabbat nafratdan olgay harorat,  
O'z boshiga savdo solgay Farog'at:  
– Qaniydi, men sizni sevmagan bo'lsam.

## *To'zg'ib xayolingiz, bo'ronday kezsam...*

### *Navqiron yoshimda...*

Hatto o'rtanish ham kelmas qo'limdan,  
Netay, ovunch izlab bo'g'ilganimda.  
Ey voh, kuningizga yarardim balki,  
Men ham o'g'il bo'lib tug'ilganimda.

Cho'lpon-u Qodiriy, Usmon Nosirlar  
Chekmagan azobin yuki boshimda.  
Millatning muzlagan tomirlarini  
Yondirgan edilar mening yoshimda.

Ulardek na epchil, na mard bo'loldim,  
Navqiron yoshimda, o'ylarim sochiq.  
Qadrimni she'rdanmi, baxtdan so'rayin,  
Qoqilsam, ko'zlarim bo'lsa ham ochiq.

Hali bir tirik so'z aytmadim elga,  
Hali bir o'ksikning ko'nglin topmadim.  
O'zimni yengishni o'rgating menga,  
O'zimni anglamoq bo'lsin matlabim.

Mening pokdil otam, otajonginam,  
El kabi anglasam, himmatingizni.  
Meni o'g'illardan ko'rmagansiz kam,  
Qilolmasam hamki xizmatingizni.

Hatto o'rtanish ham kelmas qo'limdan,  
Netay, ovunch izlab bo'g'ilganimda.  
Suyangan tog'ingiz bo'lardim balki,  
Men ham o'g'il bo'lib tug'ilganimda.

O'zimni yengishni o'rgating menga...



## Buyuk uchrashuv

Sen kelmading,  
Men ham bormadim,  
Shunday kechdi yuraklar jangi.  
Dudog'lari titrab qoraydi,  
Bog' qo'ynida sevgimiz tongi.

Oy ko'ksiga bosh qo'yib, g'amnok  
Deysan, sevgi hayotmas, o'lim.  
Men-chi, oydan olisga ketdim,  
Tushmasin deb sen tomon yo'lim.

Lekin, asl haqiqat tunlar –  
Yuraklarga solarkan g'ulu.  
Bizni kutar oldinda intiq  
Biz kutmagan buyuk uchrashuv.

## Talqin...

Men she'rman...  
Dardi pishib-pishib, kechroq tug'ilgan,  
Katta davralarda o'qilmagan she'r.  
O'qilmasimdan oq yoqqanding pinhon  
Yonganimda unsiz yondi ona yer.

Kulim sovumasdan, tongim otmasdan,  
Sochib yuborganding  
Dengizga yetdim.  
Va lekin ro'y berdi, sen kutmagan hol,  
Toshlarga urilib jaranglab ketdim.



## Muhabbatga ko'm, dilni...

### Hazrati Alisher Navoiy haykali poyida

Ey ko'ngil, sen poklan, har on ulug'lar poyini o'p,  
Meningdan kech, "men" deya zalolatga botgan ko'p,  
Tomiringda tomir otsin, avliyolar otgan cho'p,  
So'zga jon baxshida et, jonga so'z baxshida et.

Dilim daryo desang-u hayqirib oqolmasang,  
Oy nuridan so'z elab, chaqmoqdek chaqolmasang,  
Yuragingni har lahza ishq deya yoqolmasang,  
Tog'laring qulamasmi-yay, yulduzlar to'kilmasmii?..

Muhabbatga ko'm dilni, yolg'on dunyo chekinsin,  
Shuuringga kuy insin, ashklaringdan gul unsin,  
Olovga aylan, sachra, kaftda quyosh ko'rinsin,  
Xalq g'amin chek, g'amingni ko'targuvchi shu xalqdir.

Xalqdirki – To'marisning qasosida tirilgan,  
Xalqqa bormoqqa abad Haq yo'lidan yurilgan.  
Bomdod chog'i yuzlarga hur nasimlar urilgan,  
Ko'rinmagan yovlardan Vatanni qo'ri, ko'nglim.

Menam shoirman deysan, bunchalar oson deysan,  
Oybek tilga kirsayu, "hayf" desa nima deysan?..  
Mohlaroyim, Uvaysiy yig'lasa nima deysan?..  
So'z uchun o'zingdan kech, so'z kechmay turib sendan...

So'zga jon baxshida et, jonga so'z baxshida et...

# “Oldinda bir yo‘l bor...”

(Mansur Jumayev ijodi haqida)



**Suhrob ZIYO**

1996-yili tug‘ilgan.  
O‘zbekiston davlat  
jahon tillari  
universitetining  
Xalqaro jurnalistika  
fakultetini tamomlagan.  
“Ko‘ngil yelkani”,  
“Ay suygulim” kitoblari  
chop etilgan.

Mansur Jumayev she‘rlari ohangida forsiy she‘riyatning nafis taronalari yangrab turadi. Ularni bir qarashda ajratib olish mushkuldek ko‘rinadi. Bundan tashqari, bu ohanglar faqat forsiy adabiyotdan o‘tib chiqqan deb bo‘lmaydi. Bu ohanglarda Rumiy bilan birga Navoiy va Fuzuliy ham bor... Ammo shoirni bunda ayblashga haddingiz sig‘maydi. Chunki barcha she‘rlarda, avvalo, bir Mansur bor. Fors adabiyoti bilan to‘yinib shoirni taqlidchiga chiqarmaydi, aslo. Bu uning she‘riy leksikasini boyitib, ijodiy imkoniyatlarini oshirib yuborganini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham Mansur Jumayevni o‘z tengdoshlari orasida badiiy so‘z boyligi eng yuqori bo‘lgan shoirlardan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Ishqulloh” she‘rida ichki qo‘fiyalar va ohanglar tizmasi bo‘y ko‘rsatadi. Faqat shakl emas, ruh ham tamoman mumtoz yo‘lga tushib olgan she‘rda:

*Kimsan – boqiyimi, foniy,  
yerlikmi yo osmoniy,  
yo fir‘avni misriysan,  
yo kisroi eroniy,  
qaysar rummoming yo,  
qavmi tubbomiding yo,  
yo sheri turk, yo ey jon,  
xulafoi musulmon,  
yo yerdagi qirolsan,  
yo ko‘kdagi hilolsan –  
nechuk sanga qul bo‘ldim,  
koshki edi bilolsam...*

Shoir ruhni o‘z yetoviga qo‘yib, uning yurgan yo‘llarini sharhlab, tushuntirib ketayotgandek tuyuladi. Ruh esa erkalikda davom etadi va kulminatsiyaga kelib:

*Kel-u oshiq qoshiga,  
boqmay ko‘zim yoshiga,  
sochib yubor ruhimni  
oshiqlarning boshiga... –  
deya jo‘mardlik qiladi.*

Bu ritm, bu musiqiy yo‘lda yaralayotgan she‘rdan shoir o‘zini to‘xtatib qo‘ymasligi uchun, o‘z fikrini ifoda etish uchun bisyor so‘z boyligi talab etilishini asar leksik komponentlaridan ham anglash mumkin. She‘rni o‘qir ekansiz, Hofiz She‘roziyning “Ey Sorbon”iga xayol ketadi. Til boshqa, mavzu boshqa, janr boshqa bo‘lsa, nega aynan shu she‘r? Sabab ohang bo‘lsa kerak. XXI asr karvonida biroz shiddat borligi ayb emas.

Mansur Jumayevning “Oldinda bir yo‘l bor ko‘p yiroq...” she‘rida islomiy motiv ustunligini ko‘pchilik sezmaydi ham. Mumtoz shoirlarning majoz tariqida Allohni vasf qilgani kabi bu she‘rda oshiq



yoriga dunyoviy visol haqida so'zlaganday bo'lib, jannatdan xabar beradi:

*Oldinda bir yo'l bor ko'p yiroq,  
tarhini topmadim kim bichgan:  
qilichim damidan o'tkirroq,  
sochlaring toridan ingichka.*

Muqaddas kitoblarda Sirot ko'prigining sifatleri aytiladi: qildan ham ingichka, qilichdan ham o'tkir, qop-qorong'i zulmat, tagida esa zulmatdan ham qora jahannam bor:

*Oldinda ko'prik bor – osti jar,  
bilmadim o'zim ne bo'laman,  
azizim, sen o'tgil bexatar,  
azizim, sen faqat qulama.*

Uning ustida qarmoq va ilmoqlar, tagida esa qadamni jarohatlaydigan, yaralaydigan o'tkir tikonlar bor. U yerdan o'tayotganda, Sirot ko'prigidan toyib, jahannam qa'riga yiqilayotgan bandalarning qattiq baqiriqlari eshitiladi. Oshiq yor ila jannatda uchrashmoqni iltijo qiladi. "Bilmadim, o'zim ne bo'laman" deb o'z holini eslaydi, lekin o'zidan ko'ra ko'proq yordan xavotir oladi: "azizim, sen faqat qulama".

Imom Abu Dovud roziyallohu anhu Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilishicha: "Bir mahal hazrati Oisha yig'layotgandi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Nega yig'layapsan?" – deb so'radilar. Hazrati Oisha:

"Jahannamni esladim, shuning uchun yig'ladim. Qiyomat kuni oila a'zolaringizni esga olasizmi?" – dedi. U zot dedilarki: "Uch joyda biron bironni o'ylay olmaydi: amallar tarozida tortilayotganda, yaxshi amallar yengil yo og'ir kelishini bilmoqchi bo'lib turganda va Sirot ko'prigidan o'tayotganda, bundan o'ta olishi yo o'ta olmasligini bilgisi kelib turganda".

Banda Sirot ko'prigidan yurib borar ekan, boshqalarning yo yiqilib, jahannamga qulayotgani yoki najot topayotganini ham ko'rib turadi. Biroq shunday vaziyat bo'ladiki, hech kim hech kimga parvo qilmaydi. Ehtimol, o'shanda u o'z ota-onasi va yaqinlarini ham ko'rar, lekin ularga ham e'tibor bermaydi. U lahzada hamma faqat o'zini o'ylaydi...

*...azizim, sen o'tgil bexatar,  
azizim, sen faqat qulama!*

Bu – oshiqning jo'mardligi, fidoligi, majnunligi.

Kishi Sirot ko'prigidan barcha gunohlarini yelkasiga ko'targan holda o'tadi. Agar gunohlari ko'p bo'lsa, juda sekin, gunohlari yengil bo'lsa, Allohning inoyati bilan chaqmoq kabi juda tez o'tadi. Oldinda esa "ostidan anhorlar oqib turadigan jannatlar" bor.

*Oldinda chaman bor, safo bor,  
xotirjam-xotirjam havo bor...*

*azizim, ungacha ozgina  
sitam bor, zulm bor, jaf bor...*

Sitam bordir, jaf bordir. Ammo shoir u kunda "zulm bor" deyishi biroz to'g'ri emasdek. U kunning qiyinchiligi zulmdan emas, Allohning banda ustidagi adolatidan bo'lmog'i shubhasiz. Shu sababdan ham "azizim, ungacha ozgina sabr bor, sitam bor, jaf bor", – degan ma'qul edi, nazarimizda.

*Ishq dedim kezib to'rt yog'ingda,  
ishq dedim, chorladim bilmayin;  
azizim, sen borar bog'ingda  
men kutib olarman jilmayib!*

Oshiq jannat bog'larida ma'shuqani kutib turganini tasavvur qiladi. Bu tasavvur ortida ikki dunyoda ham yor bilan birga bo'lish umidi bor. Shoirning yor haqqiga qilgan duosidek tuyuladi. Zero, har bir she'rda shoirning bir duosi bo'ladi.

Mansur Jumayevning yana bir mumtoz o'zbek va forsiy adabiyotdan olgan ulgisi bor. "Hadis mujdalari". U XXI asr o'zbek yoshlar she'riyatida birinchi bo'lib "arba'iy" an'anasiga qo'l urdi. Arba'iy – hadislar she'riy yo'lda yaratiladigan turkumdir.

"Arba'iy an'anasi hazrati mavlono Abdurahmon Jomiydan boshlangan. Ayni Jomiy forsiy nazm qilgan qirq hadisni hazrat Navoiy ham turkiy nazmga solib, yangi arba'iy tuzganlar. XX va XXI asrlarda ham bu an'ana davom etdi. O'z davrida buyuk ustoz Abdulla Oripov mazkur mavzuni yuksak maqomga olib chiqdilar va "Hikmat sadolari" turkumi shoir ijodining

*Biroq adabiyot  
butunlay o'zga olam,  
unda savollarga javob  
berilmaydi, aksincha,  
o'quvchilar oldiga juda  
katta savol qo'yiladi.  
Savol o'quvchidan  
emas, asarning o'zidan,  
muallifdan bo'ladi.*

gultoji bo'lib qoldi. Keyin Sirojiddin Sayyid, Shukur Qurbon, yosh shoir Mansur Jumayev o'ziga xos arba'iy tuzdilar..." (Mirzo Kenjabek, "Yoshlarga dil so'zlarim").

Forsiy adabiyotdan boshlanib, turkiy adabiyotda kamolga yetgan ushbu uslubda Mansur Jumayev o'z so'zini aytishga urinadi. O'zidan oldingi ustozlardan farqli o'laroq, hadisning o'zini emas, undan anglashiladigan ma'noni she'rga soladi. Yoki biror hadisga ishorat orqali alohida she'r yaratadi. Misol:

*Tig' tutdi degani – tildi degani,  
Tingladi degani – bildi degani.  
Mudom yaxshilikka qilgil dalolat,  
Buyurdi degani – qildi degani.*

Nasr ibn Abdurrahmon al-Ko'fiy – Ahmad ibn Bashir – Shabib ibn Bishr – Anas ibn Molik: "Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga bir kishi kelib, minishga bir ulov so'radi. U zotning oldilarida uni mindiradigan ulov topilmadi. Boshqa birovni ko'rsatib yuborgan edilar, u ulov berdi. Kelib, bu to'g'rida Rasululloh (s.a.v.)ga xabar yetkazdi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): "Yaxshilikka dalolat qiluvchi uni bajaruvchi kabitdir!" – deb marhamat qildilar". ("Sunani Termiziy", 2670-hadis).

Yoki:  
*Islom fitratida tug'ilgay har jon,  
Miysoqda guvohlik bermish bir zamon.  
So'ng ota-onasi yasaydi undan  
Yo yahud, yo majus, yoki nasoron.*

\*\*\*

*Qirda o'tov tikib, qo'noq kutgan dam,  
Eslangiz chodirdo'z mehnatini ham.  
Yaxshilik qilolgan kimsa bilan teng  
Yaxshilikka sabab bo'lgan kimsa ham.*

Ko'rib turganingizdek, shoir hadisning o'zini she'rga solib qo'ya qolmaydi. Uni o'z adabiy maqsadi yo'lida she'rga jo etadi. Bu qanchalik o'zini oqlashini vaqt ko'rsatadi. Ammo an'anaga qo'l urilganining o'ziyoq muallifning dadilligini va ilmdan begona emasligini ko'rsatib turadi. Bu kabi asarlar yangi asr o'quvchilariga islom ma'rifati bilan sug'orilgan milliy o'zligimizni his ettirish uchun bebaho manba bo'lishiga umid qilamiz.

## Qorong'ilikdagi ayol qiyofasini **YORITIB TURGAN NUR**

(Bashorat Otajonova ijodi haqida)

Tarjimaning mutarjim ijodiga ta'siri haqida ko'p gapiriladi. Bashorat Otajonovanning keyingi she'rlari bunga dalil bo'la oladi. Uning "Kumush yog'dular" kitobidagi she'rlarni o'qisangiz, shakliy jihatdan an'anaviy yo'sin shoira uslubida ustuvor ekanini sezasiz. Shu tariqa u o'z dunyosining jilvalarini, ayol qalbida kechayotgan po'rtanalarni quyuq bo'yoqlarda aks ettiradi. Kitobdagi she'rlarning umumiy manzarasi qorong'i uydagi ayol yuzini yoritib turgan darchadan tushayotgan nurning tasviriga o'xshaydi...

Bashorat Otajonova – butun shoira. Uning yozayotganlari qizlarning odatdagi dil sharhlari emas. Agar shunday bo'lganida shoira uzoq muddatli ijodiy jimjitlikdan so'ng yana qo'lga qalam olmagan bo'lardi.



Qariyb 10 yillik tanaffusdan so'ng yana "qaytish" ayollar she'riyati vakilalari orasida kam uchraydi. Chunki ayol kishi uchun adabiyot hayot-mamot masalasi bo'lishi qiyin. Shu o'rinda Bashorat Otajonova shaxsiyatida boshqa shoiralalar uchun ibrat bor. Ijoddan to'xtab, o'zini oila uchun bag'ishlab turib, yana adabiy faoliyatga qayta olish, qaytganda ham kuch va mahoratga to'lib qaytish she'riyat uchun ijobiy hodisa.

Shoironing keyingi she'rlarida zamonaviy fors she'riyatining, ayniqsa, Fo'rug' Farruxzodning ta'siri seziladi. Uning zamonaviy fors adabiyotidan qilgan tarjimalari Bobak Zamoni, Suhrob Sipehriy, Hamid Musaddaq, Sobir Qaqayi, Ahmad Shomlu,

Nastarin Vosiqiy, Bijon Ilohiy, Garus Abdumalikiyon, Alirizo Tolibipur, Orzu Forsiy, Bijan Najdi, Sobir Haqa, Rasul Yunon, Afshin Yadallohi kabi forsigo'y shoirlar ijodidan bo'lib, bu tarjimalar shoironing uslubini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etmoqda.

Masalan, "Kumush yog'dular" to'plamidagi birinchi she'rga e'tibor bering:

*Bizni qishloq tug'di,  
Yashil dalalar,  
Ko'nglimizni varrak qilib uchirdi!  
Bulutlarni yordik sodda bolalar,  
Osmon ko'zimizga hayrat ko'chirdi...*

Hayotning nurli yo'llariga ko'z tikkan qizning singlisiga dil yorishi bolalik xotiralari bilan uyg'un ifodalar ila tasvirlanadi. Ammo bu sodda bolaning tuyg'ulari yillar o'tgani sari chuqurlashib, ruhning ichkarisi tomon ildiz otib boraveradi. Shoironing uslubida ohang, ruh, she'riy tizim va ritmlar o'zgarib ketadi. Bu ohanglar, tuyumlar shoironiki. Buni u boshqacha shaklda ifoda etsa ham bo'lardi, ammo tizginsiz tuyg'ularga shunday tizginsiz shakl muvofiq tushgan.

*Mening dardim – pechakgul!  
Menga chirmashib o'sadi u.  
Kuchukka bor, deyman.  
Mushukka bor, deyman.  
Tog'larga bor, toshlarga bor, deyman.  
"Ozodlik" so'zini aytqanim sayin  
chirmashib-chirmashib o'saverar u.*

O'z dardini dunyoga haydayotgan ayol siymosi Bashorat Otajonovanning keyingi she'rlaridagi asosiy obrazlardan. Uning bir necha she'rlarida bu obrazning turli rakurslardagi qiyofalari yaqqol ko'rinib turadi.

Chalkashtirib yubordim vaqtini...  
 Ko'zlarimda dunyo chayqaldi.  
 Yetmish ikki tomirim aro  
 Ishq atalmish hulvo  
 chayqaldi.  
 Barmog'imda sehrni sezdim:  
 Lahzalarda to'zg'idim xushhol.  
 O'n sakkiz ming olamga ayting:  
 U ayolmas, bor-yo'g'i xayol...

Bu ruhning, bu uslubning takomili shoiraning Fo'rug' Farruxzod ijodidan qilgan tarjimalari bilan bog'liq, nazarimizda. Kutilmagan, ajabtovur ifoda va badiiy tasvir vositalari, tashbehtar fors shoirasi ijodida ham ko'p va xo'p uchraydi.

**Fo'rug' Farruxzod:**

meni quyosh bilan  
 tanishtirmaslar  
 eltmaslar  
 chumchuqlar ziyofatiga  
 parvozni eslab qol  
 qush esa o'lar , – desa,

**Bashorat Otajonova:**

...Ozodlik sig'maydi akvariumga.

Ummon haqda eshitsa  
 yuragi yorilib o'lsa kerak  
 baliqlarning

(Havo yetmaydi, bo'g'ilib ketaman)

Afsonalar chindir ehtimol

Masalan, mening yarmim qush, yarmim baliq, – deydi.

“...Tashqaridan qaraganda she'r meni baxtli qilolmasdek tuyular, ammo baxt men uchun butunlay boshqa narsadir. Baxt men uchun... chiroyli ko'ylak, o'ynab-kulib yashamoq yoki mazali taom emas. Ruhimning baxtiyorligi mening baxtimdir. Ruhimni esa faqat she'r baxtli qila oladi”. F.Farruxzodning B.Otajonova tarjimasidagi ushbu fikrlari ikki shoiraning she'rlarida yashiringan muddaoni ochiqalay oladi.

B.Otajonova yosh o'zbek shoiralarining aksariyati chiqolmay qolgan o'z ko'nglining o'tkinchi mayllarini she'rga solish bosqichidan allaqachon o'tib ketgan, undan endi faqat yuksak, ichkin va ulug'vor asarlar kutishga haqqimiz bor.

## “Yo'q, bu depressiya emas...”

(Tillaniso ijodi haqida)

G'arb she'riyati bugun avvalgi shonli davrlaridan farqli o'laroq shakliy va ifoda murakkabligi ichida yashashga urinib kelmoqda. Ma'no olamiga safardan zerikkan, ruhiy inqirozdan chiqishga yo'l izlayotgan Yevropa kishisining badiiy dunyosi ham shu yo'singa qarab yo'rg'alay boshladi. Bugun o'zbek yosh shoirlari orasida G'arb modernizmi ta'sirida qalam tebratayotganlari ham bor. Dunyo tillarini biladigan yoshlar bevosita adabiyot orqali u xalqlarning dunyosiga kirishga harakat qiladi. U adabiyot oziqlangan falsafiy asoslar bilan ham tanishishga urinadilar. Mutolaa esa o'z-o'zidan ijodga ta'sirini o'tkazadi. Bugun bunday yoshlar orasida Abdulaziz Akramov, Tillaniso Nuryog'di, Mirzohid Muzaffar kabi ijodkorlar bor. Ularning umumiy xususiyati G'arb adabiyotiga doir tarjima va izlanishlar olib borishayotganidadir. Ammo bu ta'sirlar doim ijobiy bo'lavermasligi bilan xavfli bir tomondan. Chunki Freyd falsafasi ta'sirida shakllangan G'arb adabiyotida hislarga erk berish va bu erkinlik taqozo etgan barcha xohishlarni so'zda ifoda qilish keng tarqalgan. Shuning ta'sirida yozilayotgan o'zbekcha ijod namunalarini bugun qabul qilish og'ir bo'lib bormoqda.

Yo'q, bu depressiya emas,  
 Depressiya yashashning shakli.

Men yashayapmanmi?

Siz-chi?

O'z hayotimning chekkasida turibman va  
 kuzataman

(Chekkada turish yaxshi)

Chekkadaman va kuzataman:

Men bir fohishaman

Tunlar hammasini unutish uchun  
 O'zgalar qo'ynida aylagan xirrom



*Mast-u alastlikka berib o'zimni  
Unu-ta-man.*

Bu misralar ijodkor ruhiyatining ruhiy holatini qanchalik aniq ifoda etmasin, badiiyatning yuksak maqomiga mos satrlar emas. Albatta, dunyo adabiyotining ijodkorga badiiy-estetik ta'siri faqat shunday bo'lavermaydi. Har qanday qop-qora badiiy bo'yoqdagi satrlar orasida ham go'zal ifodalar uchrab turadi. Ammo ularning yonidagi boshqacha misralar uning ham jilosiga putur yetkazib qo'yishi mumkin.

*Hayot shu deyman-da hayot shu deyman  
Qo'rqaman boshqa bir so'z deyishga  
Ishoning hammadan qo'rqaman  
Eng beozor insonsiz siz  
Sizdan qo'rqaman  
Qo'rqaman haqiqatingizga turtinib ketishdan  
Ko'zingizga qarashdan hatto...*

Bugungi dunyoda yashayotgan insonning qiyofasi ko'z oldingizga keladi. Bugun hamma o'z haqiqati bilan yashaydi. Bu dunyoda birovlarining haqiqatiga urilib ketishdan qo'rqib yashaysiz. Eng beozor odam ham o'zi uchun haq bo'lgan narsani jon-jahdi bilan himoya qiladi. Tillanisoning bundan besh yil avvalgi she'rlarida badiiy soflik yaqqol sezilib turganini ko'rish mumkin. Vaqt o'tgan

sari muallifning dunyo haqidagi, dunyodagilar haqidagi qarashlari tundlashib, qora bo'yoqlari quyuqlashib boraveradi. Uning 2015-yilgi she'rlari haqida, uning uslubi haqida shoir Xurshid Davron shunday deb yozgan: "Tizginsiz sochma xuddiki bo'ronda quturgan, oy ostida sokin mavjlangan qalb dengizining oynasiga o'xshaydi. Bir qarashda oson ko'rinsa-da, sochma ijodkordan yetarli tajriba va mahorat talab qiladi. Juda sodda tarzda aytsam, sochma erkin ifoda (rostgo'ylik) va fikriy ohangdorlik (tajriba)dan tug'iladi. To'g'ri, rostgo'ylik bolalikdan keladi, tajriba esa vaqt bilan yetiladi. Tillanisoning she'rlarini o'qib, shoira o'z izlanishlarida namoyon bo'layotgan rostgo'ylik va tirishqoqlikni davom ettirsa, kelgusida o'ziga xos olamini yarata olishiga ishongim keldi..." E'tibor bering, ustoz shoir muallifning ikki xislatiga to'xtaladi: rostgo'ylik va tirishqoqlik. U payt bu ikki xislat shoiraga:

*Darvesh-u, xirqamas hayotning oti,  
May-u gulob ham emas bu hayot.  
Odatiy bo'lgandek quyoshning nuri  
Hayot ham bir odat, yashash shart bo'lgan  
odat, – kabi satrlarni bergan.*

Bu misralarda shoiraning qarashlari tiniq aks etib turibdi. U yozar ekan, borgan sari ichkarilab boraveradi. Avval-boshda:

*Ichimga yutaman mudrab botayotgan shu  
ma'yus shomni,  
Ichimda yig'lar shomlar.  
Ichimga yutaman yillarni.  
(Qo'limdan kelmas boshqasi), – degan bo'lsa,  
bugun u:*

*Ichimga haydadingiz meni hayotdan  
Ichingga qamalib o'l dedingiz.  
O'ldim ichimda-ichimda o'ldim deb shivirladim  
O'chir dedingiz: boshqacha ko'rsatma o'zingni  
dedingiz, – deya yozg'iradi.*

Bu misralar orasida bog'liqlik va farqlar bor. Qahramon muttasil ichiga biqinib boradi. Boraveradi, boraveradi. Avval dunyoni anglash, uni

o'ziga singdirish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsa, bugun u o'z borlig'ini ichiga mahkum etish bilan shug'ullanmoqda. Ammo bir haqiqat bu dunyoda barqarordir. Insonning o'z ichiga safari Yaratguvchiga yaqinlashishga sabab bo'ladi. Bunday bo'lmasa, ichga safar uchun tanlangan yo'l yanglish bo'lishi mumkin.

Tillaniso badiiy dunyosidagi chigalliklar va buni ifoda etish uchun berilgan iste'dodni inkor etib bo'lmaydi. Insonning o'zlikka safari bu iste'dodni yanada yaraqlatib yuborishi shubhasiz.



Rafiq O'zturkning she'rlari Yevropa lirikasidan ko'ra, yapon milliy she'riyatiga kelbat beradi. Va o'z tengdoshlariga o'xshamagan nafis ohang bilan yozadi. Ularni modernistik asarlar deya olmaysiz, shunchaki qofiyasiz go'zal she'rlar, o'qib his qilasiz, tamom:

*Xivich bilan  
ninachini  
savalaganday  
sizga  
so'z sotaman  
sevgi haqida.*

Bitta ifoda, bitta holat. Ammo har kimda har xil kayfiyat uyg'ota olishi mumkin bu satrlar. Shoir o'z holatini bitta tashbeh bilan nishonga urib tasvirlab beradi. Masalan, shu bitta she'rdan Rafiq O'zturk degan shoir haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Har bir she'r o'z DNK sida shoirining qiyofasini tashiydi. Aslida, biz

modern deb baholagan she'r sof o'zbekona ifoda asosiga qurilgan bo'lishi mumkin.

*Uyqum  
itday qochdi  
yarim kechasi.  
O'zi  
qaytib  
kelar,  
ko'chada  
moshina  
urib ketmasa...*

Shu ham she'rmi, dersiz. "Uyqum qochdi" degan iborani bilamiz. Shoir esa "Uyqum itday qochdi" deb iyhom qiladi. Uyqu ko'zni tark etishini siz uyquning ko'chada itday shataloq otib yurishi deb tasavvur qilasiz. "Uyqu kelishi" ham bor. It ham keladi aylanib qachondir. Shoir esa o'zi o'ylab topgan holatga yumor bilan yakun yasaydi: "Ko'chada mashina urib ketmasa".

Uyqu haqidagi boshqa she'ri undan ham ajabtovur:

*to'satdan uyg'onib  
singlimning ona tili daftaridan  
yulib olsam ikki enlik qog'oz  
va she'r yozsam bitta nafasda  
va tonggacha uxlamasam  
aytishga oson albatta  
mening singlim esa xayoliy  
demak uning daftari ham yo'q...*

Rafiq O'zturk o'zi yashayotgan mavjudlikka miyig'ida kulib qaraydi. U ham Tillaniso kabi "ichkariga" berkinganlardan. Lekin bu berkinish atrofga mayin kinoya bilan qarashni taqozo qiladi. Qarashlar turfaligi ruhiyat turfaligiga, u esa she'rlar turfaligiga olib keladi.

Umuman, bugungi yoshlar she'riyati turfa xillikka asoslangan. Ularni bir qoida asosida tartiblay ham, baholay ham olmaysiz. Har biri uchun alohida qoida ishlab ham chiqolmaysiz. Aynan shu xususiyati bilan XXI asr yosh o'zbek shoirlari ijodi jahon adabiyotining bir qismi sifatida tilga olinishga arziydi. Chunki bugun global makonda yashayotgan insoniyat turli xil qarashlarni hurmat qilishga, fikrlararo hurmat saqlashga ko'nikib bormoqda.





# Muruvvat

Hikoya



**Rustam JABBOROV**

1979-yili tug'ilgan.  
O'zbekiston Milliy  
universitetining Jurnalistika  
fakultetini tamomlagan.  
"Vijdon" nomli hikoyalar  
to'plami nashr etilgan.

Uch kundirki, G'ulomjonning uyidan keldi-ketdi uzilmaydi. Avvaliga qo'ni-qo'shni, keyin uzoq-yaqindagi qarindosh-urug', oshna-og'aynilar kelishdi. G'ulomjon ular bilan quchoqlashib ko'risharkan, o'zini yig'idan tutib turolmasdi. Barcha azoblar ortda qolganiga, ozodlik onlari, dilga yaqin insonlarni yana ko'rish baxtiga musharraf qilganiga ishonolmasdi.

Besh yil! Bu onlarni u to'rt devor ortida naq besh yil kutdi, 1926 kunning erinmasdan sanab o'tkazdi.

Shu muddat ichida ko'p narsa o'zgaribdi. Ko'chalar, uylar, odamlar... O'sha mudhish voqea yuz bergan yili qizchasi 13–14 yoshlarda edi. Shu yil bahorda turmushga uzatishibdi.

O'tgan ishga salavot deydilar. Vaqtni orqaga qaytarish hech bandaning qo'lidan kelmaydi. Binobarin... o'g'lining g'amida bir yil ichida adoyi tamom bo'lgan, jigarbandining yo'lga ko'z tikib omonatini Haqqa topshirgan onaizor ham endi qaytmaydi.

– Taqdir ekan, Xudoyim yozganini bandasi buzolmas ekan-da, – deya unga tasalli berdi “karvon ko'rdi”ga kelgan tanishlaridan biri.

– Peshonangga bitilgani shu ekan, oshna, endi bu yog'iga Yaratganning o'zi qo'llasin. Mana, sen kelguningcha bolalaring ham yoningdan kiradigan bo'p qolipti, – deya ko'nglini ko'tardi yana bi- rovi.

Rosti gap ham shu-da! Bo'lar ish bo'ldi, hayot o'z oqimida davom etyapti. Umr oqar daryo, shovullab o'tib ketaverarkan.

Roppa-rosa besh yil ilgari shu kecha-kunduzda yarador qushdek tipirchilab, yuragini hovuchlagancha, tergov hibsxonasida o'z us-tidan o'qilajak hukmni kutib o'tirardi. "Ertaga sud" degan kun kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi. O'sha kungi yakuniy sud majlisining har daqiqasi uning xotirasiga, miya hujayralariga mahkam joylashib qolgan.

...Sud zali liq to'la edi. Bir tarafdan sudlanuvchining yaqinlari, ikkinchi tarafda marhumning oila a'zolari o'rin olishdi. Prokuror ham, advokat ham o'z joyida. Tergov davomida ortiqcha anglashilmovchilik bo'lmagani, ayblov xulosasida hammasi aniq-ravshan ko'rsatilgani uchun sud majlisi ham uzoqqa cho'zilmadi. Dastavval sudlanuvchini so'roq qilishdi. G'ulomjon tergov jarayonida bir necha marta aytgan iqrorini deyarli o'zgarishsiz takrorladi.

– O'sha kuni kechqurun qo'shni tumandagi tanishimnikiga to'yga boruvdim. To'y kech tugadi. To'yda sal... ko'proq ichgan ekanmiz. Ko'p narsani eslay olmayman. To'yxonadan yarim kechasi chiqqanim, mashinani o't oldirganimni eslayman. Keyin mashina yo'lda allanarsaga urilgani, ayol kishining jonholatda chinqirgani elas-elas esimda... Bir qaragam... uyga yetib kelibman. Kirib uxladim. Ertalab turib ko'rganimda, mashinamning old qismi majaqlangan, bitta fara sinib yotibdi... To'ppa-to'g'ri kechagi yo'l bo'yicha orqaga qaytdim. To'qnashuv yuz bergan joyni o'zimcha chamalab, yo'l-yo'lakay biror-bir avtohalokat sodir bo'lgan-bo'lmagani ni surishtirib ketdim.

– O'zingizning mashinangiz bilanmi? – uning gapini shart kesib so'radi o'lja qarshisidagi qoplon vajohati bilan qo'ng'iz mo'ylovli qoralovchi.

– Yo'q, o'zimnikini opchiqmadim, og'aynimning mashinasida edik. Bitta bolani to'xtatib so'raganimizda, kechqurun bitta raqamsiz mashina shu qishloqda yashovchi bir

ayolni urib ketganini, ayol kasalxonaga yetmay uzilgani, ertalab uni mozorga olib ketishganini aytdi, – G'ulomjon yig'lab yubormaslik uchun lablarini qattiq tishlab oldi. – Shunda o'sha mashinaning egasi men ekanimni tushundim. To'g'ri ichki ishlar bo'limiga yo'l oldim. Ularga ham allaqachon xabar yetib kelgan, qidiruv ishlari boshlangan ekan. O'z ixtiyorim bilan taslim bo'ldim. Bor gap shu!

Zalda favqulodda jimlik cho'kdi. Biroq ko'p o'tmay sukunatni piq-piq yig'i tovushi bosib ketdi. G'ulomjonning bosh ko'tarib qarashga majoli yetmadi. Kim u yig'layotgan? Onasimi? Ayolimi? Qizimi? Balki, marhumaning yaqinlaridan biridir? Kim bo'lsa ham alhol G'ulomjon ularning yuziga qarashga qodir emasdi.

Hammasidan ham onasiga qiyin bo'ldi. Bechora onaizor! Uning uchun farzand dog'idan ham ortiq azob bormi? G'ulomjonni ichki ishlar bo'limi hibsxonasida saqlanayotgan payti onasi arang ruxsat so'rab, ko'rgani kirgan, o'shanda ona-bola baravar yig'lab yuborishgan edi.

O'z onasining-ku ahvolini ko'rib-bilib turibdi. Bechora marhumaning validasi-chi? Qizining o'limini eshitib qay ahvolga tushdi ekan? G'ulomjon-ku, qamoqdan ertami-kechmi qaytar. Yosh umri xazon bo'lgan juvon-chi?

Sudya ayblanuvchining ko'rsatmalarini bosiqlik bilan tingladi. Keyin savolga tutdi:

– Nega ayolning chinqirig'ini eshitgan paytingizdayoq mashinani to'xtatmadingiz?

– Bilmadim, o'sha payt o'zimni boshqaradigan holatda emasdim.

– Lekin mashinani boshqardingiz?

– ...

– Demak, o'shanda mashinada sizdan bo'lak hech kim bo'lmagan, shunaqami?

– Ha.

– Sizda "odam urib yubordim" degan fikr qachon paydo bo'ldi?

– Ertalab mashinaning pachoq bo'lgan buferi, singan farasini ko'rib...

Shundan so'ng savol berish navbati prokurorga yetdi.

– Siz marhumaning homilador ekanini bilarmidingiz?

– O‘zini tanimasdim, umrimda ko‘rmaganman-ku, qanday qilib...

– Savolimga javob bering...

– Yo‘q...

– Nima sababdan mashinani ko‘chaga raqamsiz haydab chiqdingiz?

– Raqam eski edi. Almashtirish uchun shaharga olib borgandim. Eskisini olib qolishdi. O‘sha kuni nomer tugagan ekan. Uch kundan keyin bo‘ladi, deyishdi.

– Mashinani raqamsiz, buning ustiga mast holatda haydash mumkin emasligini bilarmidingiz?

– ...

O‘z mijozini himoya qilish uchun yollangan advokat qanday hukm chiqarilishini chamalab bilsa-da, vaziyatni yumshatishga tirishardi.

– Agar siz chindan ham odam urib yuboraningizni payqaganingizda unga yordam berarmidingiz?

– Nega yordam bermas ekanman?! – G‘ulomjon bo‘g‘ziga tiqilgan hayajonini yashira olmasdi. – Bilganimda, ayolni shifoxonaga yetkazgan, qo‘limdan kelgan yordamimni ayamagan bo‘lardim.

– Demak, qilgan ishingizdan astoydil pushaymonsiz?

– Mingdan ming pushaymonman. Bir emas, ikki jonning uvoliga qoldim. Shu ikki begunohning o‘rniga o‘zim o‘lib ketsam qaniydi? Aybimga iqrorman. Har qanday jazoga roziman.

– Iltimos qilaman, – sud kotibiga yuzlandi advokat. – Ayblanuvchining bu ko‘rsatmalarini protokolda alohida qayd etsangiz.

Chindan ham G‘ulomjon o‘sha paytda ming bir azob ichida o‘rtanardi. Bir tomonda yurak yutib sud hukmini kutayotgan onasi-yu jigarbandlari, ikkinchi tomonda o‘n gulidan bir guli ochilmagan juvon va uning yorug‘ dunyoni ko‘rmay nobud bo‘lgan gumonasi oldidagi vijdon azobi...

O‘shanda sud majlisi uning nazdida yillar qadar cho‘zilgandek bo‘ldi. Va bu uzun muddatning har soniyasi cheksiz dard-alam va nadomatga to‘liq edi. Ayni lahzalarda majlisning tezroq tamom bo‘lishini, hukm o‘qilib, kerak bo‘lsa, hatto tezroq otib tashlashlarini juda-juda istardi. Shunda o‘zi bu so‘ngsiz iztiroblardan qutular, jigarbandlari g‘amida ado bo‘lgan anavi jabrdiydalarning alami ham biroz bo‘lsa-da, bosilarmidi?

Keyin asosiy guvoh – marhumaning erini so‘roqqa chaqirishdi. Boshiga rangi unniqib ketgan marg‘iloncha do‘ppi kiygan, yuzlari oftob tig‘ida qoraygan, qotma yigit tutila-tutila o‘sha mudhish oqshomni xotirlashga tushdi.

– Kasal yotgan qaynonamni ko‘rgani boruvdik. Ancha o‘tirib qoldik. Kech qaytdik. Ularning uyi yo‘lning narigi betida edi. Yo‘lni avval men kesib o‘tdim. U orqada edi. Bir payt uning chinqirig‘i, mashinaning tormozini eshitib... – erkak shu yerga yetganda ovozi titrab ketdi. – Haydovchini ko‘rganim yo‘q. “Jiguli” edi. Nomeri yo‘q... Bechora... Bechora Nargiz... O‘n qadamcha nariga uchib ketgandi. Boshi bilan asfaltga urilgan ekan. Atrofi jiqqa qon. O‘tgan-ketgan mashinalarga qo‘l ko‘tardim. Bittasi to‘xtadi. Lekin... bechora yo‘lda uzildi. – Yigit yengining uchi bilan ko‘zlarini artarkan, entika-entika qo‘shib qo‘ydi. – Homilador edi. Birinchi farzandimiz...

Shundan keyin G‘ulomjon boshqa hech narsani eshitolmadi. Qora kursida qancha vaqt muk tushib o‘tirganini bilmaydi. Faqat hukm o‘qilayotgan paytidagina hushiga keldi.

Yetti yil berishdi. Jazo muddatini besh yilda o‘tab qaytdi. Qamoqda kechgan har bir kun nazarida bir yildek tuyulgandi. Hozir esa o‘sha mash‘um kecha va bugungi kun o‘rtasidagi muddat atigi bir necha soatni tashkil qilgandek tuyuldi.

“Ziyorat” chilarning qadami uzilmasdi. Bir paytlar idorada birga ishlagan hamkasblari, sinfdosh do‘stlari... negadir Murod ko‘rinmasdi.

Oila a'zolari Muroddan minnatdor. Do'stining yo'qligini bildirmadi. Qo'ldan kelgan yordamini ayamadi. Garchi G'ulomjonning akalari undan hech qanaqa yordam kutmasa-da, Qumri xolaning ma'rakalarida ham, qizining to'yida ham xarajatlarning bir qismini ko'tardi.

Chin do'st shunaqa paytda bilinarkan. Bo'lmasa, birov uning boshiga yordam so'rab borgan yo'q. O'zi bu yigitning mahalla-ko'y oldidagi obro'si ancha oshib qolgan. Topish-tutishi yaxshi. Savdo ishi bilan Xitoyga qatnaydi. Aytishlaricha, hozir ham safarda ekan.

G'ulomjon bolalikdan tepishib katta bo'lgan. Bir mayizni teng bo'lib yeyishardi. O'sha kuni qo'shni tumandagi to'yga ham birga borishgandi. To'y egasi bilan o'n yilcha avval ish yuzasidan tanishib qolishgandi. Bazm soat o'nlargacha davom etdi. Dasturxon u qadar to'kin bo'lmasa-da, ichimlik serob. G'ulomjonning ayblash mumkin bo'lgan bitta-yu bitta aybi – ichkilikka moyilligi. O'sha kuni ular o'tirgan davradan aroq uzilmadi. Bo'shagan idishlarning soni ortishi barobarida ulfatning ham kayfi oshib bordi. G'ulomjon yaxshigina "otgan" bo'lsa-da, hali eshushiyoyida edi.

U paytda Murod hozirgidek puldor emasdi. Endi mashina olaman, deb yurgan paytlari. To'ydan chiqib "Jiguli"ga o'tirishdi.

– Yana yuzta kam bo'ldi-da, – dedi G'ulomjon mashinani ko'chaga haydab chiqarkan.

– E, og'zingga shlang bilan quysa ham to'yumaysan, jo'ra, – dedi Murod labiga sigaret qistirib.

– Seni bilmadim-u, lekin men yana qittay olmasam bo'lmaydi. Hali bizning plan to'lishiga ancha bor.

– Qo'y, jo'ra, yaxshigina kayfing bor. Yetadi. Jimgina uyingga haydayver.

G'ulomjon unga quloq solmadi. Mashina yo'l bo'yidagi bir choyxona yonida to'xtadi. Og'aynisini qo'yarda-qo'ymay, mashinadan tushirdi. Tashqaridagi bo'sh karavotga joylashib olgach, bitta aroq buyurdi.

Piyolalarni to'ldirib, birini Murodga uzatdi.

– Bo'ldi, men ichmayman, – deya qat'iy bosh chayqadi Murod.

– Odam emas ekansan, – dedi G'ulomjon o'rtog'iga ola qarab va piyolani bir ko'tarishda bo'shatdi.

Shisha yarimlab qolganida, Murod uning qo'ldan tutdi:

– Menga qara, ruldasan. Uygacha kamida o'n chaqirim yo'l bosish kerak.

– Jo'rajon, – dedi G'ulomjon mastona iljayib, – kerak bo'lsa, yana bitta araq ichib, seni Hir-rotga oborib kelaman. Kkel, brr shisha araqdan garov o'ynaymiz.

Shundan keyin qolgan aroqni ichdimi-yo'qmi, eslolmaydi. Uzuq-yuluq esida qolgan ruлга o'tirayotib boshini urib olgani-yu, mashinaning allanimaga urilishi va ayol kishining jon talvasasidagi chinqirig'i...


Ko'zini ochganida mashinaning old o'rindiqlari ustida g'ujanak bo'lib yotar, tong yorisha boshlagandi. Boshi qo'rg'oshin quyilgandek og'irlashib ketgan, bo'g'zi lovullab achishar, dimog'ida allaqanday chuchmal, ko'ngilni aynituvchi is o'mashib qolgandi. Qiziq, Murod qayerga tushib qoldiykin? Garangsib tashqariga chiqdi. Darvozasiga arang yetib keldi-da, gursilatib tepa boshladi. Eri ichkari kirishi bilan ayol ko'ngli behuzur bo'lib yuzini burdi:

– O'zi... ichib kelishingizni biluvdim, – deya uyqu aralash ming'illadi. – Mashinani opkirib qo'ymaysizmi?

– Tashqarida qolsa, boshi yorilmaydi, – dedi to'ng'illab. – Kelib mashinaning ichida uxlab qopman. Chiqib uyg'otsang o'larmiding?

Bunaqa paytda eriga gap qaytarish yaxshilikka olib kelmasligini bilgan ayoli tilini tiydi. Zinapoyadan chiqishiga yordamlashish uchun qo'ltig'idan kirganida, G'ulomjon uni siltab tashladi. Tepaga ko'tarilishga chog'i kelmay, shundoqqina mehmonxonaga kirib, ko'rpacha ustiga cho'zildi.

G'ulomjon ertalab boshining g'uvillab og'rishidan uyg'ondimi, darvozaning zarb bilan taqillashidanmi, o'zi ham bilmaydi. Arang



devorni ushlab tashqari chiqdi. Bo'sag'ada Murod turardi.

– Ha, kallayi saharlab nima qilib yuribsan? – so'radi lohaslik bilan kerishib.

– Bu yoqqa yur, gap bor, – dedi Murod sarosimasini yashirib.

Bu odati G'ulomjonga bolaligidan tanish. Boshqalardan berkitadigan gap bo'lmasa ham, bir chetga olib o'tadi. G'ulomjon ensasi qotib, ergashdi. Tashqarida, o'n-o'n besh qadam narida turgan mashinasiga ko'zi tushib, kapalagi uchdi.

– Qayerga urib oldim?! – deya qichqirib yuborganini bilmay qoldi.

Murod mashinaga qaramadi ham. Og'ir qadamlar bilan borib, ancha naridagi tosh ustiga omonatgina o'tirdi.

– Kecha nima qilib qo'yganimizni bilasanmi?..

Oshnasidan bor tafsilotni eshitganida, boshiga bir botmon tosh ag'darilgandek, garangsib qoldi.

– Nahotki, bunday bo'lishi mumkin emas, – deya qichqirdi-yu, shu asnoda yashin tezligida mudroq xotirasining bir chetiga ilashib qolgan faryod qulog'i ostida takror eshitilgandek bo'ldi. Miyasidagi g'ala-g'ovur ichidan ajralib chiqqan shu alamli chinqiriq, ko'z o'ngidagi pachoq bufer va siniq faralar tasviriga qo'shilib, do'stidan hozirgina eshitgan mudhish haqiqatni tasdiqlab turardi. G'ulomjon bir muddat tamomila o'zini yo'qotib qo'ydi.

– Nega o'shanda indamading? “Mashinani to'xtat” deb musht tushirmaysanmi?

– Juda qo‘rqdim. Men ham o‘zimni yo‘qotib qo‘ygandim.

– Qayerda bo‘lganini eslaysanmi?

– Shu... Xotinko‘prikka yetmagandik, hali...

G‘ulomjon ko‘zlarini yumib, xiyla lablarini tishlaganicha turib qoldi.

– Yomon urildimi?

Murod ko‘zini yerga qadaganicha, bosh irg‘adi:

– Tezlik katta edi. Mashina ayolning qoq belidan urdimi, deyman. Bir tarafga uchib ketdi sho‘rlik. Bir to‘xtab keyin yana gazini bosding.

G‘ulomjon og‘ir uf tortdi-yu, shartta mashina eshigini ochdi:

– Chiq, ketdik, borib bilaylik-chi, nima bo‘lgan ekan o‘zi? Ishqilib ayol tirik bo‘lsin-da!

Murod xuddi shuni kutib turgandek, shi-mining orqasini qoqib, o‘rnidan turdi.

– Mayli, boramiz, faqat bu mashinada emas.

Taksi ushlab, kecha noxushlik yuz bergan joyga yetib kelishdi. Yo‘lovchi boladan haqiqatni bilgach, G‘ulomjonning yuragidagi so‘nggi ilinj shu‘lasi ham so‘nib, butun borlig‘ini qorong‘i zulmat qopladi. Kechagi ishlardan afsuslanishni ham, juvonmarg ayolga achinishni ham, o‘zini kutayotgan muqarrar jazo qarshisida dovdurashni ham bilmasdi. Murodning ham ahvoli unikidan pesh emasdi.

– Tamom, – dedi Murod peshonasiga mushtlab, – ikkovimiz ham ketdik.

Birozdan so‘ng G‘ulomjon so‘niq, befarq ovozda so‘radi:

– Sen nega ketarkansan?

– Ikkovimiz bitta mashinada edik, birga ichganmiz, birga qochdik.

Shu onda Murod faqat o‘zini o‘ylab, tashvishga tushayotgani G‘ulomjonning g‘ashini keltirdi.

– Sen nimadan qo‘rqasan? Hammasiga men javob beraman.

– Kemaga tushganning joni bir.

– Sen men bilan bitta kemaga tushma-

gansan, bo‘ldimi? – kesatdi G‘ulomjon. Murod yalt etib oshnasiga qaradi. – Mashinada sen bo‘lmagansan. Men bir o‘zim edim. Tamom-vas-salom.

Murodning yuziga qon yugurgandek bo‘lsa-da, lablarini qimtib, keskin bosh chayqadi.

– Yo‘q, boshga tushganni ko‘z ko‘radi.

Shunaqa paytda seni yolg‘iz tashlab ketsam, shuncha yillik do‘stligimiz qayerda qoladi? Nima bo‘lsa bo‘lar...

G‘ulomjonning fikri endi ancha tiniqlashgan, shuning barobarida sal bo‘lsa ham o‘zini bosib olgandi. Oldingi gaplari shunchaki piching bo‘lsa-da, chuqurroq mulohaza yuritib, o‘zining kasriga og‘aynisi ham qolib ketayotganini angladi. Rost, melisa zotidan har narsani kutsa bo‘ladi. Hech bo‘lmaganda. “jinoyatni yashirgansan” deb u sho‘rlikning ham bo‘yniga bitta “modda”ni ilishadi. Boyoqish oilada bitta o‘g‘il. Chol-kampirning boshqa suyanchig‘i yo‘q.

– Og‘ayni, meni tushun, – dedi endi samimiyat bilan. – Bo‘lar ish bo‘ldi. Sen yonimda bo‘lganing bilan menga beriladigan jazo yengillashib qolmaydi. Eng yaxshi yo‘limiz shu. Sen o‘sha kuni mening mashinamda bo‘lmagansan.

Murod ancha vaqt jim bo‘lib qoldi.

– Endi nima qilmoqchisan? – so‘radi og‘ir tovushda.

G‘ulomjon mashina to‘xtatish uchun yo‘lining o‘rtarog‘iga chiqdi.

– Rayon markaziga, melisaxonaga, – dedi to‘xtagan mashina haydovchisiga...

U gapida sobit qoldi. Tergovda ham, sudda ham biror marta Murodning nomini tilga olmadi.

Shu bois, Murodning do‘sti qamalganidan keyin uning oilasiga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligi hammani ajablantirsa-da. G‘ulomjon buni tabiiy qabul qildi. Qolaversa, u do‘stining muruvvati ham sadoqatiga shubha qilmasdi.

...Murod jonajon do‘sti uyga qaytganining uchinchi kuni Pekindan uchib keldi. O‘zining aytishicha, aeroportdan chiqishi bilan to‘g‘ri shu tomonga oshiqibdi. Ular uzoq muddat bir-birini

bag'ridan bo'shatmadi. Har ikkisining yelkasi ustma-ust silkinar, unsiz yig'lashardi.

– Seni ozodlikda ko'rar kun bor ekan-ku, oshna, – dedi Murod entikib.

G'ulomjon gapirmas, lekin lablari unsiz pichirlardi. Besh yil ichida Murod ancha o'zini oldirib qo'yibdi. Chakkasiga oq oralab, yuzlari ham allanechuk so'lg'inlik kasb etibdi.

– Ancha o'zgaribsan, – dedi G'ulomjon do'stidan ko'z uzmay.

– Rost, o'sha voqeadan kiyin ichishni umuman tashladim. Negadir ishim birdaniga yurishib ketdi. Tez fursatda o'zimni tiklab oldim. Imorat soldim. Ota-onamni hajga obordim. O'zimning ham bir oyog'im masjidida, – dedi Murod mayin jilmayib.

G'ulomjon og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Mening ham ko'zim ochildi, jo'ra, faqat kech ochildi-da, – dedi alam bilan. – Nasib etsa, umrimning qolganini halollikda, taqvo-yu toatda o'tkazmoqchiman. Yoshimiz ham qirqdan oshdi. Gunohning ming bir ko'chasiga yo'rg'alab ko'rdik. Azobini ham tortdik, jo'ra. Endi oxiratni o'ylamasak bo'lmas.

Murodning yuzida yana nurli tabassum jilvalandi.

– Allohning o'zi seni ham hidoyatga boshlasin, – dedi va uzrli qiyofada do'stiga yuzlandi. – Ancha o'tirib qoldim, endi bizga ruxsat.

Fotiha o'qilgach, G'ulomjon do'stini kuzatgani chiqdi. Darvoza oldida Murod eski odatiga ko'ra, u yoq-bu yoqqa alanglab, do'stiga shivirladi:

– G'ulom. Yur bu yoqqa jo'ra, gap bor!

G'ulomjon ixtiyorsiz unga ergashdi. Dastlab e'tibor qilmagan ekan. Ko'chada oldinma-ketin ikkita bir xil rangdagi "Neksiya" turardi.

Murod ulardan biriga yaqinlashib, qo'lidagi pult tugmasini bosdi. Eshiklar g'iyqillab ochildi.

– O'tir!

G'ulomjon hech narsani tushunmay, orqa o'rindiqqa cho'kdi. Murod peshoyna tepasidagi yoqqichni bosib, salon chirog'ini yoqdi:

– Murod, anavi oldinda turgan mashina kimniki?

– Meniki, dedi Murod kulimsirab.

– Yo'g'e, unda bunisi-chi?

– Seniki...

G'ulomjon hayratdan og'zi ochilib qoldi. Do'stining hazillashmayotganini payqab ko'zlarida yosh tirqiradi.

– Jinni bo'ldingmi? – dedi baribir ishongisi kelmay.

– Alhamdulillah, aql-u hushim joyida, – dedi Murod bosiqlik bilan. – Niyat qilib opqo'yuvdim. Hech kimga aytganim yo'q. Qilgan ishim shov-shuv bo'lishini yoqtirmayman. Endi... qo'limni qaytarma, jon jo'ram bo'lsang.

G'ulomjon shoshib qoldi.

– Arzimas sovg'a? – dedi kulimsirab yoshlarini artarkan. – Unda arziydigani qanday bo'larkan?

– E, jo'ram-a. Sen har qanday mukofotga arziysan. Bitta temir quti-ku bu?

– Gapirasan-da! Men yo'g'imda uydagilardan xabar olib turding. Har ikki-uch oyda zonaga borib ko'rib kelding. Oilamizga juda ko'p yordaming tekkanini eshitib boshim ko'kka yetgandi. Endi bo'lsa... bu yaxshiliklaringni qanday qaytaraman endi?

– Sening yaxshiliging oldida meniki nima degan gap? – u shunday deya qo'lidagi kalitni do'stiga tutqazdi. – Ana, hamma hujjatlar bardachokda turibdi. Ertaga birga rasmiylashtiramiz.

G'ulomjon kalitlarni olarkan, yosh boladek, ko'zlari porlab ketdi.

– Rahmat, do'stim, iloho, Xudo biringga ming bersin. Lekin, – u yalt etib, do'stiga qaradi. – Senga biror yaxshilik qilganim esimda yo'q.

– Mening esimda, – dedi Murod ko'zini yumib. – Sening yaxshiliging – mening yomonligim, – deya oldi, xolos.

Shunda Murodning qulog'iga urib yuborgan ayolning chinqirig'i eshitildiki, titrab ketdi.

# YOSHLAR – ishonchimiz va tayanchimiz

## Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik

*“O'ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati Prezidentimizning 2018-yil 9-iyuldagi “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan, faqat magistral gaz quvurlari tarmog'iga xizmat ko'rsatuvchi operator sifatida alohida shaklda qayta tashkil etilib, tabiiy gazni import va tranzit qilish, ichki bozorga va eksportga yuqori bosimli quvurlar orqali yetkazib berishga mas'ul tashkilot etib belgilandi.*

*Bugungi kunda mamlakatimizdagi 13200 km.ga yaqin magistral gaz quvurlari tarmoq faoliyati orqali xalqimizga xizmat qilmoqda. Biroq gaz quvurlarining 60 foizidan ortig'ining qurilganiga yarim asrdan oshgan. Shu bois keyingi 3-4 yil ichida tarmoqqa katta e'tibor qaratilmoqda. Tizimni modernizatsiya qilish ishlariga xorij sarmoyasini jalb etish, sohada ilg'or tajribaga ega mashhur kompaniyalar bilan hamkorlik qilish yo'lidagi ishlar jonlandi. Xususan, joriy yilda tizimdagi magistral gaz quvurlarining 400 kilometrdan ortiq qismini yangilariga almashtirish tadbirlari olib borilmoqda.*

### **Mashaqqatli yo'ldan borayotganlar**

**M**Magistral gaz quvurlarida ishlashning o'ziga xos zahmatlari bor. Chunki yil davomida hududlar bo'ylab piyoda yurib, tabiiy gaz o'tayotgan quvurlarning sozligini nazorat qilish, biron kamchilik sezilgan taqdirda uni bartaraf etish choralari ko'rish, quvurlarda elektr tarmoqlarining uzluksizligini ta'minlash, yirik hajmdagi quvurlarning karroziyaga uchragan qismlarini aniqlash ishlarini bajarish, yana zamonaviy texnik bilimlarni mukammal egallash... Eh-he, aytaversak, bu boradagi yumushlarning adog'iga yetish qiyin.

Bu sohaning murakkabligi shundaki, magistral gaz quvurlari yerning bir metr





chuqurligida ko‘miladi va ularning juda ko‘p qismi cho‘l sharoitida joylashgan. Avtomobilda cho‘l o‘rtasidan kesib o‘tar ekansiz, atrofda saksovul-u yulg‘unlardan boshqa narsa ko‘rinmagan bu bepoyon qumlilarda hayot yo‘qdek tuyuladi. Lekin shu zamin ostidan mamlakat iqtisodiyotining qon tomirlari bo‘lmish yirik gaz quvurlari o‘tgan. Afsuski, bu haqda hammamiz ham bilavermaymiz. Bilganimizda, cho‘l hududlarda yayov kezganimizda edi, bizga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoq xodimlari mehnati naqadar mashaqqatli ekanini anglab yetardik.

## **Yoshlar – asosiy kuchimiz**

Tizimdagi 13 ta korxonada va tashkilotda mehnat qilayotgan mutaxassis va ishchi-xodimlarning ikki ming nafardan ortig‘i yoshlardir. Ularning orasida mehnatsevar, o‘z ishining ustasi bo‘lgan serg‘ayrat va mas‘uliyatli xodimlar ham ko‘p. “Urganchtransgaz” unitar korxonasi tizimida mehnat qilayotgan Artur Axtyamov, Kallibek Yerjanov, Muzaffar Tangriberganov, Jahongir Hasanov, Gazli MGQBdan Fazliddin Gulboyev, Sunnat Choriyev, Toshkent MGQBdan Dilshod Sultonov, Farg‘ona MGQBdan Ulug‘bek Ismoilov ana shunday yoshlardan.

Bunday tashabbuskor va iqtidorli yigit-qizlarning bilim va malakalari oshirilib, erishgan natijalari rag‘batlantirilmoqda. Zero, tizimda mehnat qilib, kasb sirlarini mukammal egallashga intilayotgan turli millat vakillaridan iborat ahil jamoa yoshlari shunga munosib, ular korxonaning ertangi umidlaridir.

## **Tuleyda bir yigit bor...**

Turli millat vakillari ahil-inoqlikda mehnat qilayotgan “Urganchtransgaz” UK tarkibidagi yirik tashkilotlardan biri – Tuley magistral gaz quvurlari boshqarmasida ham o‘z kasbining fidoyisi bo‘lgan yoshlar ko‘p. Qo‘ng‘irotlik tarmoq ekspluatatsiya xizmati elektrgazpayvandchisi Jonpo‘lat Bisenbayev shunday yoshlardan. Suyagi mehnatda qotgan, hamkasblari orasida



obro‘ topgan bu yigit bugungi kunda jamoaning faxriga aylangan. U nafaqat o‘zi ishlayotgan boshqarmada, balki magistral gaz quvurlari tizimining asosiy mutaxassisidir.

Jonpo‘lat mehnat faoliyatini 2007-yilda Tuley MGQBda boshlagan, avvaliga ta‘mirlash-ishlatish xizmatida, keyinchalik tarmoqli-ishlatish xizmati elektrgazpayvandchisi sifatida ishlab, malakasini oshirdi. Tinimsiz intilishlari natijasida korxonaning eng taniqli va mohir payvandchilari qatoriga qo‘shildi. Kasbini sevganni o‘zgalar ham sevadi, qadrlaydi, jamiyat ham tan oladi. Shu sabab Jonpo‘latga 2019-yilda “Tarmoq ekspluatatsiya xizmatining 6-darajali elektrgazpayvandchisi” maqomi berildi. Bu esa mutaxassis uchun beriladigan yuqori daraja va yuksak bahodir.

Aslida, elektrgazpayvandchilik orzu va havas kasbi emas. Ular yozning jazirasida, qishning qahratonida, murakkab cho‘l sharoitida ishlashi, oilasidan uzoqda, vaqtinchalik chodirlarda oylab yashashiga to‘g‘ri keladi. Ular shunday mehnatlari evaziga xalqimiz xonadoniga to‘kinlik, iliqlik ulashmoqda.



## ***Gazlidagi tengdoshim***

Gazli MGQB jamiyatning yirik va ahamiyatga molik tuzilmalaridan biridir. Bu yerda 1100 nafarga yaqin xodim mehnat qiladi. Ularning ham asosiy qismi yoshlardir. Shu bois jamoada tashabbuskor va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun sharoit yaratishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Qolaversa, ularning salomatligi ham e'tiborga olingan.

Jamiyat orasida o'z vazifasini qoyillatib bajaradigan, shuning ortidan ko'pchilik ichida hurmat qozongan, qolaversa, sport, san'at va boshqa sohalarda iqtidorga ega yoshlar ham bor. Yigit kishining ilmida ham, bilagida ham kuch bo'lgani yaxshi-da. Buni hayotining maslagi qilib olgan Fazliddin ham biladi. Avtosaroy elektrpayvandchisi bo'lgan bu yigit sportning kurash turi bo'yicha o'smirlar o'rtasida viloyat va respublika birinchiligi uchun o'tkazilgan turli musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab, o'ndan ziyod medal, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan.

Tezkor ishlab chiqarish xizmati gaz yig'uv punkti operatori Sunnat Choriyevni esa hamkasblari haykaltarosh sifatida yaxshi tanishadi. Sababi u shu yo'nalishda o'tkazilgan musobaqalarda qatnashib, ko'p bora e'tirof etilgan. Yana bir operator yigitimiz Jasur Boltayevning

bo'lsa, cholg'u san'atida iste'dodi bor. U doira va dovulni mahorat bilan chala oladi. Jasurning bu hunari boshqarmada o'tadigan tantanali tadbirlarga bayramona ko'tarinkilik bag'ishlaydi.

Jamiyatimizda qizlar ham o'z o'rniga ega. Ulardan biri metrologiya xizmati operatori Mohigul Kamolova milliy hunarmandchilikning tikuvchilik, zardo'zilik va patdo'zlik turlarini puxta o'rgangan. U asosiy ish faoliyatidan tashqari hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Bu yumush unga qo'shimcha daromad ham olib kelmoqda.

Mazkur stansiya yoshlari orasida tarix va adabiyotni sevuvchilar ham topiladi. Chilangar Azamat Mengliyev joriy yilda tizim tashkilotlari xodimlari ishtirokida o'tkazilgan "Navoiy bilimdonlari" tanlovida "Navoiy tarixi bilimdoni" sifatida e'tirof etilib, munosib taqdirlandi.

Shu kunlarda Gazli shaharchasidagi yopiq sport majmuasi boshqarma tomonidan kapital ta'mirlanmoqda. Majmuada jamoaviy sport turlari bilan bir qatorda, individul tarzda shug'ullanish uchun ham imkoniyalar yaratiladi. Bu esa boshqarmaning yoshlarga qaratayotgan e'tiboriga yana bir dalildir.

## ***Farg'onadan gapiramiz...***

Farg'ona vodiysida 1600 km.dan ortiq magistral gaz quvurlari hamda 115 ta gaz taqsimlash shoxobchasi joylashgan. Ularda 500 nafarga yaqin ishchi-xodim faoliyat yuritadi.



Aytish joizki, mehnat jamoasidagi yoshlar o'zlarining intiluvchanligi bilan korxonaning kelajak bunyodkorlaridir. Boshqarmadagi faol yoshlardan biri Ulug'bek Ismoilov 2010-yilda Toshkent davlat texnika universitetining "Neft va gaz ishi" fakultetini tamomlab, Farg'ona MGQBga ishga kelgan. Ulug'bek hozirgi kunda boshqarmaning dispetcherlik xizmatida katta dispetcher lavozimida faoliyat yuritadi. Shuningdek, u korxonaning tinib-tinchimas yetakchi xodimlaridan biri sifatida jamoat tadbirlarida faol qatnashib, boshqarmaning barcha yoshlariga o'rmak bo'lib kelmoqda. Mas'uliyatli va o'z ishining ustasi sifatida jamoada hurmat qozonayotgan Ulug'bek kabi mutaxassislar sohaning kelgusi egalari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa kelajakka umid uyg'otadi.

### ***Shimoliy So'x geosida nima gap?***

Shimoliy So'x gazni yer ostida saqlash inshooti Farg'ona vodiysi iste'molchilarini tabiiy gaz bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega strategik obyektlardan biri. Inshootda bugungi kunda 330 nafar xodim mehnat qilmoqda. Ularning yuzga yaqinini yoshlar tashkil qiladi.

Izlanuvchan va jamoada o'z o'rni hamda obro'siga ega yoshlar haqida gap ketsa, avvalo, jamoadoshlar ko'z oldida Nazir Bo'taboyev gavdalanadi. Yosh xodimning iqtidori va imkoniyatlarini, o'ziga bo'lgan ishonchini his qilgan mehnat jamoasi va "O'ztransgaz" AJ boshqaruvi unga ishonch bildirib, qo'llab-quvvatlab, maxsus tavsiyanoma berdi. Bu unga Toshkent davlat texnika universitetida o'qish imkoniyatini yaratdi.

Universitetda "Foydali gaz va neft konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish" yo'nalishi bo'yicha ta'lim olgan Nazir 2015-yildan buyon inshootda faoliyat yuritadi. Avvaliga gaz tozalash va quritish sexi texnologik uskunalari chilangari, muhandisi bo'lib ishlagan bo'lsa, bugungi kunda sanoat va ekologiya xavfsizligi muhandisi va zamonamiz qahramonlaridan biridir.



Har qanday xodim kasbining haqiqiy ustasi bo'lish uchun, avvalo, pillapoyaning dastlabki bosqichini, ya'ni sohasining eng kichik va eng qiyin ishlarini bajarishi kerak. Shunday mehnatkash yoshlardan biri Abrorjon Ergashev ham inshoot faollaridan. U shimoliy So'x GEOSida mashinist, chiziqli kompressor stansiyasi mexanik uskunalarini ta'mirlash chilangari vazifalarida ishlab tajriba orttirdi va bugunga kelib yaxshi muhandis bo'lib jamoada o'ziga xos hurmat qozondi.

\* \* \*

Tizimdagi iqtidorli yoshlar haqida yozaversak, ularning har birining o'z iqtidori, aytsa arzigulik tomonlari ko'p. Ammo biz ularni keyingi hikoyalarimizning qahramonlari etib qoldiramiz. Bu yoshlar halol mehnati bilan tizim rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan qahramonlardir. Ular "O'ztransgaz" AJning doimiy e'tiborida.

**Farida TOJIBOYEVA,**  
"O'ztransgaz" AJ  
Axborot xizmati bosh mutaxassisi



**Munisa A'ZAMOVA**

*1998-yili tug'ilgan.  
O'zbekiston davlat jahon  
tillari universitetining  
Xalqaro jurnalistika  
fakulteti talabasi*

\*\*\*

Ko'zimni kuydirdi G'arb  
Sharqimni bilmaysizmi?  
Qorman – eridim, desam  
Dilxira bo'lmaysizmi?  
Bahor istamaysizmi?

Kulgularni qiynamay  
Yoshlarimdan yashnasam,  
Marhamat qilsa tunlar,  
Uyg'oq tushda yashasam,  
Meni eslamaysizmi?

Na-da bo'lmasam g'olib,  
Na-da etmasam talab,  
Oyoqlasa o'ylarim  
Olib ketsa olislab,  
Meni izlamaysizmi?

Yashamadim dunyoni  
Ishq bilan teng kelsa vaqt.  
Tan berib Haq Mezon  
Bir kuni yengilsa vaqt,  
Meni eslamaysizmi?  
Meni izlamaysizmi?

\*\*\*

Barchasi menga yaqin,  
Barchasi mendan uzoq.  
Yangi oy – ko'kka tumor,  
Yangi oy – yerga tuzoq.

Namozshom cho'kkan soyga –  
Parilar bazmi qizir.  
Qaydandir tiniq ohang  
Qaygadir kirar sizib.

Rangidan kechib ranglar  
Shom kiyar oq-qora to'n.  
Salqinlab baqachalar  
Yo'talar o'qtin-o'qtin.

Nimadir yana olis  
Va nedir yaqin shuncha.  
Men bo'lib ulgurdi shom  
Siz tong bo'lib kelguncha.

\*\*\*

Teraklarni shamol kuyida  
Bir maromda tebratadi tun  
Va xazonlar qay bir ilinjda  
Tor xonaga to'kadi yukin.

Bunda bir qiz – sochlari to'zg'in  
Uyqusida topolmay halak.  
Yonog'idan tomchi-tomchilab  
Tuyg'ulari bo'lyapti halok.

Qo'llariga yetmas mador, yo  
Derazani yopishga jur'at.

Chaqirmoqchi bo'lar kimnidir  
Ismi bilan... sig'dirolmas had.

Tor xonaga nur indi bir dam  
Bir dam shamol shovqini tindi.  
Shu tob qizni olis-olisdan  
Ismi bilan chaqirdi kimdir.

\*\*\*

Garchi hamma tomonim isyon,  
Garchi hamma tomonim taskin.  
Qish, qor... yana ovundi umrim,  
Fevral – yana sog'inchning aksi.

Bo'y ko'tardi eski taraddud,  
So'ng yig'ina boshladim she'rga.  
O'sha katak qog'ozli maktub –  
O'ylaringni o'nglatib bergan.

Oshiqadi qaygadir ilhaq  
Yalpiz kutgan ariqlar labi.  
Lahzalarim zarrasigacha  
Ismingni yod etgani kabi.

Bahslashadi hislar Sen uchun  
Keltirgan tuhfamni tortqilab.  
Biram ko'rqli ko'rindi, qara  
Yelkalarining hayotim bilan.



# Ruhim ozod bo'lsa mendek qolipdan...

\*\*\*

Namozshom. Sochlarin yoyar izg'irin,  
Dilda esar armon yelvizaklari.  
Qunishib, omonat quchar bir-birin,  
Yaproqlar – hayoning egizaklari.

Yaldo tuni kabi o'ylarim uzun,  
Sabr qalbga o'yar dastxatlarini.  
Sarsonlikni kiydim asramoq uchun,  
Shamol ermak qilgan hasratlarimni.

Yorilib ketsaydi cho'ng tomirlarim,  
Ruhim ozod bo'lsa mendek qolipdan.  
Yarador jangchidek besas ihradim,  
Holi mag'lublardan abgor g'olibman.

Bekat:  
Tamakining qoldiqlarida  
Akslanar chekilgan dardlar vujudi.  
Ayyub ruhi bordek chinor bag'rida,  
Shunchalar go'zalmi daraxt sujudi?!

Oqqushlar – norizo ketgan pirlarim,  
Sabog'in unutgan noshud tolibman.  
Qaniydi, yorilsa cho'ng tomirlarim,  
Ruhim ozod bo'lsa mendek qolipdan.

\*\*\*

Yomg'ir:  
Dilxun samo mungli she'r o'qir.  
Og'ir  
Odimlaydi soyabon – so'qir.  
Chog'ir  
Quyiladi ko'ngil jomiga.  
Sag'ir  
Tuyg'ularni tortar domiga  
Zamin –  
Titroqlardan darz ketgan bag'ir.



**Sardor SALIMOV**

1994-yili tug'ilgan.  
Respublika yosh  
ijodkorlarining an'anaviy  
Zomin seminari  
ishtirokchisi



\*\*\*

Qachonki qayg'urang ko'zingga boqsam,  
Nido yaqin kabi tuyulaverar.  
Tilimdan o'rmalar so'zlarim oqsab,  
Vido yaqin kabi tuyulaverar.

“Men seni hech kimga bermasman, ishon”,  
Va'dalar ko'ksimga sanchilar chunon.  
Turna, bahor keldi deganing yolg'on,  
Yaldo yaqin kabi tuyulaverar.

Buncha ko'nikuvchan odamzod ko'ngli,  
Biroq hijronlardan ketarkan o'ngib.  
Yomg'irzor chorlaydi. Kuzdayin mungli  
Sado yaqin kabi tuyulaverar.

Tobora baxt bizdan chekinar nari,  
Yurakka yiqilar g'amlarning bari.  
Sendan yiroqlashib ketganim sari  
Xudo yaqin kabi tuyulaverar.

# Singan olcha daraxti



**Jessi STYUART**

O'zining hikoyalari, she'rlari va romanlari bilan shuhrat qozongan Jessi Styuart (1906 – 1984) – amerikalik yozuvchining shu paytgacha 460 dan ortiq hikoyasi nashr etilgan. Eng mashhur va ko'plab tillarga tarjima qilingan hikoyalari orasida "Singan olcha daraxti" alohida ajralib turadi.

Tarjimon:

**Sojida SAMANDAROVA,**  
O'zDJTU magistranti

Hikoya

– Darsdan so'ng qolaveraman-u, lekin uning o'rniga xivich bilan savalab, uyga ertaroq ketishimga ijozat bersangiz yaxshiroq bo'lardi. Uyga ikki soat kech borsam ham, baribir otamdan kaltak yeyman, – dedim professor Gerbertga.

– Savalashga endi kattalik qilasan, biroq baribir o'sha olchaga tirmashib chiqqaning uchun mendan jazo olasan. Bu yaxshi ish emasligini bilib turib qilgansizlar. Qolgan beshalovi bir dollardan berib qutuldi. Faqat sen qolding daraxtga pul to'lamagan. Birovdan qarz olib tursang bo'lmaydimi?

– Yo'q, ololmayman. Jazo olishdan boshqa ilojim yo'q. Nima bo'lsa ham, ishqilib tezroq tugaydigan jazo bo'lsin-da.

Professor Gerbert o'rnidan turdi va menga tik qaradi. U oq oralagan sochiga monand kulrang kostyum kiyib olgan basavlat kishi edi.

– Siz otamni bilmaysiz. Biroz eskicharoq odam, u bizga to yigirma bir yoshimizgacha tarbiya bermoqchi, o'zi aytdi. Uning ta'kidlashicha, agar qamchi bo'sh qolsa, bola taltayib ketar ekan. Otamga olcha voqeasini hech qachon tushuntirib berolmayman. Oilamizda o'rta maktabga qatnayotgan birinchi farzandman.

– Sen jazo olishing shart, – dedi professor Gerbert. – Bugun va ertaga darsdan keyin ikki soat qolasan va har bir soat uchun yigirma besh sentdan kechaman. Bu o'rta maktab o'quvchisi uchun ancha yaxshi pul. Maktabning polini yuvib, sinf xonalarini, derazalarini chinniday tozalaysan. Qarzingni o'zim to'lab yuboraman.

Professor Gerbertdan hech qachon qarz so'ray olmasdim, u ham shu paytgacha biron marotaba qarz berib turishni taklif etmagandi. Noiloj maktabda qolib farroshga yordamlashish orqali soatiga yigirma besh sentdan ishlab jarima pulini to'lashga majbur bo'ldim.

Polni yuvayotib miyamda savollar g'ujg'on o'ynaydi: "Otam indamasmikan? Uyga qaytganimda qanaqa yolg'on to'qiyman? Negayam o'sha la'nati olcha daraxtiga tirmashib chiqib, sindirib qo'ydig-a? Nimaga tog'da guruhimizdan ajralib jinnilik qildig-a?"


Nega bunday bo'ldi? Bittagina mitti kaltakesak ortidan daraxtga olti bola bo'lib chiqdig-a! Nima uchun daraxt sinib, biz bilan yerga quladi? Axir, baquvvat daraxt edi-ku! Daraxtning egasi If Krabtri kelib-kelib o'sha payti yer chopadimi? Bitta daraxtga naq olti dollar to'latadigan qanaqa odam u o'zi?"

Maktabdan chiqqanimda allaqachon soat olti bo'lgan edi. Uygacha hali olti milya bor. Soat yettidan o'tganda uyga yetsam kerak. Uyda otam ikkimizga ancha-muncha ish qalashib yotibdi: yettita sigirmi sog'ish, o'n to'qqiz bosh qoramol, to'rtta xachir, yigirma besh cho'chqaga yem berish, o'choqqa o'tin chopib, quduqdan suv tashish kerak. Uyga kirib borganimda kelavermaganimdan jahli chiqqan otam bu ishlarni o'zi qilayotgan bo'ladi.

Tund, shir-yalang'och daraxtlar ostidan jadal uyga chopdim, tepaliklardan yugurib tushdim.

Yer ham muz qotgan, lekin shoshilishim shart. Pichanzorimizga eltuvchi qirdan ham chopib o'tib ketdim. Shamol ta'sirida ter bosgan yuzim quruqshagan. Pichanzorni kesib o'tib uyga kirdim, kitoblarimni irg'itib, qoramollarga yem berish uchun to'g'ri somonxonaga chopdim. Toza ust-boshimni eski uy kiyimimga almashtirishga ham vaqtimni qizg'ondim. Ombordan chiqib qarasam, otam allaqachon chorvaga yem berayotgan ekan. Bu ish shu kungacha mening zimmamda edi. Panjaradan oshib tushib: "Ota, menga bering, o'zim qilaman. Sal kechikib qoldim, kechiring", dedim. Otam o'girilib menga qaradi va: "Ko'rib turibman", dedi. Uning ko'zlarida g'azab olovlangandi.

– Nimaga buncha qolib ketding? Vaqtida kelib yordamlashsang bo'lmaydimi? O'zi bittang maktabga qatnaysan, u ham bo'lsa bu ahvol!



Indamay turaverdim, kech qolishim sababini aytgim kelmadi. Otam yem berishdan to'xtab nigohini menga tikdi:

– Nega shu paytgacha qolib ketding deyapman! Aytasanmi yoki shu yerning o'zida qamchimning mazasini totib ko'rasanmi?

Axiyri "Darsdan keyin olib qolishdi", dedim, otamga yolg'on gapirolmadim, chunki maktabga borib haqiqatni baribir bilib oladi. Aldaganimni bilsa, o'zimga juda yomon bo'ladi.

– Xo'sh, nega olib qolishdi maktabingda? – so'radi otam.

– Bugun biologiya darsida tabiat bag'riga ekskursiya uyushtirgandik. Men va yana beshta bola olcha daraxtiga tirmashib chiqib uni sindirib qo'ydik. Daraxt uchun har birimiz bir dollardan tovon berishimiz kerak ekan. Yonimda pulim yo'qligi uchun professor Gerbert uni ishlab topishimni taklif qildi. Tushdan keyin qolsam soatiga yigirma besh sentdan berishini aytdi, shuning uchun qoldim. Ertaga ham qolishim zarur.

– Sen rost gapiryapsanmi? – so'radi otam.

– Gaplarimning hammasi rost. Ishonmasangiz borib uning o'zidan so'rang.

– Ertaga tongda boraman ham! Kimning daraxtini sindirib qo'ydinglar?

– If Krabtirinikini.

– Iya, uning bog'ida balo bormidi senlarga?

Axir u maktablaringdan to'rt milya narida yashaydi-ku. O'qituvchilarning tashqariga olib chiqib, tog'da izg'itguncha sinfda tinchgina kitob o'qitsa bo'lmaydimi senlarga? Agar o'qish shunaqa ahvolda bo'lsa, endi maktabga bormaysan, Deyv. O'zim senga ish topib beraman.

– Otajon, hademay bahor keladi. Hozir maktabda hasharotlar, ilonlar, gullar, kaltakesaklar, qurbaqa va o'simliklarni o'rganuvchi biologiya degan fan o'tyapmiz. Bugun havo yaxshi bo'lganligi uchun ularni o'zimiz topib, tuzilishini, yashash muhitini o'rganmoqchi bo'ldik. Tasodifan olcha daraxtida kaltakesakni ko'rib qolib, barchamiz uni tutish uchun daraxtga chiqqandik. Olti kishini ko'tarolmay sinib ketdi. Janob If pastda yer haydayotgan ekan, yugurib kelib kimligimizni so'rab bilib oldi. Boshqa bolalar chekiga tushgan

pulni berishdi, menikini esa professor Gerbert to'laydigan bo'ldi. Maktabda ishlab shu pulni qaytarishim kerak-ku endi.

– Kambag'alning bolasi deb o'ylab o'zicha mehribonlik ko'rsatmoqchi bo'lgan-da... Tongda borib o'zim unga ko'rsatib qo'yaman. U bu yerlik emasga o'xshaydi. Kitob o'qitmay tog'ma-tog' izg'itib yuradigan qanday maktab bo'ldi u? Men o'qigan payt unaqa emasdi-da, o'g'lim!

– Ota, bormay qo'ya qoling, menga ellik sent bering, jarimamning qolganini to'layman. U yerga borib professor bilan bir baloni boshlashingizni istamayman!

– Keksa otangdan uyalyapsanmi, Deyv? Seni katta qilish uchun tinmay ishladim, mendan yaxshiroq yashasin deb maktabga berdim. Bi ishni o'zim to'g'rilayman hali. O'sha o'qituvchining boshqalarni uylariga jo'natib, seni puling yo'qligi uchun olib qolishga umuman haqqi yo'q! Men boy emasman va bundan uyalmayman. Miltig'imdagi o'q bilan boy va kambag'alni ajratish qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yaman o'sha Gerbertga. Qani, bo'l, nasibangni berib qolmasimdan burun qimirla tez-tez!

Bir laha yem saqlanadigan omborxonada uzra yastangan o'rmonlar bo'ylab chopib uyni ham, maktabni ham tashlab, otam tuta olmaydigan uzoq-uzoqlarga ketgim keldi. Qochish to'g'ri yo'lmi? Otam bilan birga maktabga bora olmasdim, chunki uning miltig'i bor, mabodo o'qituvchimni otib qo'ysa-chi? Uning qo'lidan nimalar kelishini aytmay qo'ya qolay. Otamga tog'dagi maktab uning yoshligidagi maktabdan tamomila o'zgarib ketganini, qurbaqalar, qushlar, ilonlar, kaltakesaklar, gullar va hasharotlarni o'rganishimiz zarurligini yotig'i bilan tushuntirsam ham, u baribir tushunmasdi. U uydan qochib ketsam-da parvo qilmay, ilojini qilib o'qituvchim Gerbert bilan uchrashadi, mening qochishimda maktabimni va o'qituvchim Gerbertni ayblaydi. Shu bois ham bundan naf yo'q, undan ko'ra uyda qolib chorvaning qornini to'ydiraman va ertaga ertalab otam bilan maktabga boraman. Shu qarorga kelgach, yemni hovuchlab mollarning oldiga tashladim...

Sovuq mart osmonida to'lin oy nur sochardi.



Oy yorug'ida ishimni tugatib qo'ydim. Professor Gerbert uyda bir dunyo ishim borligini qaydan ham bilsin, agar bilganida pulni o'zi to'lab yuborib, meni maktabda ushlab o'tirmagan bo'larmidi. U tog'da yashab ko'rmagan, tog' bolalari maktabga borish uchun ishlashlari kerakligini bilmaydi. Lekin hozir uning o'zi ham o'rta maktabda tog'dagi fermalardan qatnaydigan bolalarga dars beryapti-ku.

Ishlarimni tugatib, uyga kirib, soviy boshlagan ovqatimni yeb oldim. Otam va onam allaqachon ovqatlanishgan ekan, ularning narigi xonada men haqimda gaplashayotganlarini eshitib qoldim.

– Bugun hamma sutni o'zim sog'dim, o'tinni ham o'zim chopdim. Kuni bo'yi dalada ishlab charchab ketdim, axir. Ertaga ishga bormay o'sha maktabga o'taman. Balki, anavi o'qituvchidek aqlli emasdirman, lekin unga yaxshilab saboq berib kelish qo'limdan keladi.

– Qo'ysangiz-chi, Lyuster. Aralashib yana bir muammo orttirib yurmang tag'in. Sizni gamab qo'ysalar, nima qilasiz? Maktabda janjal qilib, Deyvni sinfdoshlari oldida uyatga qo'ymoqchimisiz?

– Uyatmi, boshqami, men unga bitta o'quvchisini olib qolib, qolganlarini qo'yib yuborish nohaqlik ekanligini ko'rsatib qo'yaman. Axir, o'g'limning ulardan kam joyi yo'q-ku. O'sha o'qituvchining peshonasidan darcha ochaman, o'zini uyaltiraman. Ertaga borib hammasini to'g'rilayman. Hasharot-u ilonlar, kaltakesak va qurbaqalarni quvib, olcha bog'larida izg'ish, kaltakesak ketidan chiqib daraxtni sindirish ham dars bo'ldimi?

Ovqatimni yeb, sekin yuqoriga chiqib chiroqni yoqdim. Hammasini unutishga urindim, geometriya va biologiyadan uyga berilgan topshiriqlarni bajargan bo'ldim. Lekin otamni o'ylab baribir yaxshi o'qiy olmadim. U tongda men bilan boradi. Yonida to'pponcha bo'ladi. O'qituvchimiz shundan keyin men haqimda nima deb o'ylarkan-a? Otam ketgach, balki unga vaziyatni tushuntirarman. Otam uni otib qo'ysa-chi? U bilan ketgim kelmayapti. Ehtimol, ertagacha hovuridan tushib, qaroridan qaytar.

Otam tong bilan soat to'rtida uyg'onib, o'choqqa o't qalab uyni isitdi, keyin onamni uyg'otib, nonushta tayyorlashni buyurdi. Shundan so'ng ikkalamiz nonushtagacha chorvaga yem berib, sigirlarni sog'ib keldik. Nonushta qilib bo'lgunimizcha kun yoyilib, usti oppoq qirov bilan qoplangan emanlar yorishib ko'rindi. Tepaliklar ham oppoq qirovga burkangan, salqin shamol esayotgandi. Saldan keyin musaffo osmon bag'ridan quyosh chiqib qirovni, yer ustidagi muzlarni bir zumda eritib tashlaydi, nuri bilan isitadi. Hamma yoq loy bilan qoplanib, tepalikdagi mitti jilg'alardan loyqa suv oqa boshlaydi.

– Xo'sh, Deyv, endi maktabga otlan. Sen bilan borib hayvonlar va hasharotlarni o'rganishingiz-u daraxt sindirishlaringni o'zim bir ko'rib kelay. Bunaqa tarzda o'qish g'irt jinnilikdan boshqa narsa emas.

Demak, otam kechagi qarorini unutmadmi. Endi maktabga birga otlanamiz. Lekin erta ketayotganimiz bir jihatdan yaxshi, chunki otam o'qituvchimning peshonasiga to'pponchasini tirab qolsa, hech qaysi sinfdoshim ko'rmaydi. Otam egniga jemper, moviy rang ko'ylak va qo'y terisidan tikilgan paltosini, oyog'iga kattakon etik va boshiga qora shlyapasini qo'ndirdi. To'pponchasini beliga qistirdi. Tepalik osha maktabga qarab ketdik.

Maktabga ancha barvaqt kelibmiz. O'qituvchimiz Gerbert ham yaqinda kelgan ekan. Zinadan ko'tarilar ekanman, miyamda turfa o'ylar g'ujg'on o'ynardi: ehtimol, otam o'qituvchimizning yaxshi odam ekanligini bilib qolar. Hali bir-birini tanimaydilar-ku. Men ham boshida o'zlari bilan ko'rishib gaplashmaguncha anavi Lambertlarni umuman yoqtirmasdim. Ular bilan maktabga birga qatnab gaplashib ko'rgach, do'stlashib qoldik. O'zgalar bilan yaqindan tanishishda gap ko'p.

– Siz o'g'limning o'qituvchisi bo'lasizmi? – so'radi otam o'qituvchimizning xonasiga kirganimizdan so'ng.

– Ha. Siz Deyvning otasi bo'lsangiz kerak, – javob qaytardi o'qituvchimiz.

– Shunday, – dedi sovuqqina qilib otam va to'pponchasini chiqarib o'rindiqqa qo'ydi. To'pponchani ko'rib, professor Gerbertning qora ko'zoynagi ostidagi ko'z qorachilari kengayib, zaxil yuziga qizillik yugurdi. Otam gapni aylantirmay maqsadga ko'chib qo'ya qoldi:

– Maktablarning haqida bir-ikkita narsani aniqlashtirib olmoqchi edim. Deyvni o'qitib, olim qilish niyatim bor edi. O'n bitta farzandim ichidan faqat u maktabga qatnayapti. Kecha uning uyga kech kelishi oqibatida hamma ish o'zimga qoldi. O'g'limning aytishicha, o'quvchilarni hasharot va hayvon oviga olib boribsiz va bular bexosdan olcha daraxtini sindirib qo'yishibdi. Darsdan so'ng olib qolib, singan daraxtning pulini chiqarib olibsiz. To'g'rimi?

– Hmm, shunaqa shekilli, – g'o'ldiradi o'qituvchimiz. Uning ikki ko'zi to'pponchada edi.

– Unda bu yer umuman maktab degan nomga loyiq emas ekan! Bu yer qandala-yu kaltakesak va ilonlar maktabi, hech qanaqasiga maktab emas! – jazavasi tutdi otamning.

– Nima uchun bu yerga to'pponcha olib keldingiz? – dabdurustdan so'radi professor.

– Mana bu kichkina teshikni ko'ryapsizmi? – otam moviy rangli qirq to'rtinchi kalibrli to'pponchasini olib, uzunchoq quvur uchiga qo'lini nuqdi. – O'q shu yerdan chiqib, boy-kambag'alga ajratmay, nishondagi odamni o'ldiradi, hatto u o'qituvchi bo'lsa ham. Biroq bu yerga kelib sizni ko'rgach, to'pponchaga hojat yo'qligini tushundim. Atigi bir necha soniya ichida qo'lim bilan majaqlab tashlasam ham bo'larkan.

Qorachadan kelgan otam o'qituvchining qarshisida anchagina gavdali va ulug'vor ko'rinardi. Otamning haybatini oldin sezmagani ekanman, uning oldida men uchun doim basavlat ko'ringan o'qituvchimiz mittigina bo'lib qoldi.

– Men davlat tomonidan belgilangan mashg'ulotlar doirasida o'z vazifamni ado etdim, janob Sekston!

– Mashg'ulot?! Qanaqa mashg'ulot? Qandalalarni o'rganish mashg'ulotmi? Dars vaqtida o'quvchilarni o'rmonga olib borasiz, bu yoqda esa bechora keksa ota-onalar ularning

o'qishi uchun quldek ishlaydi. Shuncha o'g'il-qizni birga olib yurish noto'g'ri ekanligini yaxshi bilasiz-ku!

Maktabga o'quvchilar kela boshlashdi.

– Deyv, eshikni yop. O'quvchilar eshitib qolishmasin, – buyurdi o'qituvchim. Borib eshikni yopib keldim. Ahvolim shamolda titrayotgan barg singari edi. Otam har daqiqada o'qituvchimga tashlanib qoladigandek, chunki uning oftobda qoraygan yuzi jahldan qizara boshlagandi.

– O'quvchilarga hech qanaqa yomonlik qilganim yo'q. Ularning har qadamini kuzatib yurdim. Ular bilan boshqa o'qituvchi emas, shaxsan o'zim bordim. Xo'sh, o'g'il va qiz bolalarni birga olib yursam, nima bo'пти?

– Bu ishingiz va bir to'p yoshlarni butun tuman bo'ylab olib yurishingiz, daraxtning singani-yu, o'quvchini darsdan so'ng majburan olib qolishingiz menga yoqmadi.

– Janob Sekston, Deyvga boshqa qanday chora ko'rishim mumkin edi? Bitta kaltakesak izidan hammasining daraxtga tirmashishiga balo bormidi? Bittasi chiqib, olib tushaversin edi. Fermerga naq olti dollar to'ladik. To'g'ri, sal qimmatroq, lekin baribir to'lashimiz kerak-ku. Nima, sizning o'g'lingizga indamay, qolgan beshtasiga to'lattirishim kerakmidi? Pulim yo'q deganidan so'ng o'sha pulni ishlab topishga o'zi rozi bo'ldi. U men uchun emas, maktab uchun ishlayapti.

– Unga qanday chora ko'rishingiz o'zingizga havola, masalan, xivich bilan savalasangiz ham bo'lardi.

– O'g'lingiz endi savalash uchun kattalik qiladi, bo'y-bastiga bir qarang, – dedi o'qituvchimiz menga qo'lini bigiz qilib.

– Men uchun Deyv hech ham katta yigit emas. Umuman, bolalar yigirma bir yoshigacha katta sanalmaydi. Bittasini maktabda ishlatib, qolganiga ruxsat berib yuborganingiz adolatdan emas. O'rta maktabda qandalarni o'rganishning nima keragi bor?

Otamning to'pponchani olib g'ilofiga solib qo'yishi o'qituvchining yuzidagi qizillikni aritdi. U sal hovuridan tushgan otamga yana tushuntira ketdi. Otamning maktabimizga ilk marotaba

kelishi bo'lganligi uchun uni bu yerda ko'rish kulgili edi.

– Biz faqat ilon, itbaliq, gul, kapalak va kaltakesak tutmadik, janob Sekston, balki inkubatorga solib, protoza olish uchun quruq timot o'tlaridan ham terib keldik.

– Uning qanaqa o'tligini bilmayman-u, ammo inkubator – tovuqlarni aldab jo'ja ochtirishning yangicha usuli. Siz aytgan jo'ja turini esa birinchi eshitishim.

– Mikrob nimaligini bilasiz, to'g'rimi, janob Sekston?

– Menga Lyuster deb murojaat qilavering.

– Xo'p, Lyuster, mikroblar haqida bilasizmi?

– Albatta, lekin ularning mavjudligiga ishonmayman. Oltmish besh yoshdaman va shu paytgacha birortasini ko'zim bilan ko'rib, qo'lim bilan tutmaganman.

– Ularni oddiy ko'z bilan ko'rishning iloji yo'q. To'pponchani g'ilofiga yaxshilab joylab qo'ying va bugun maktabda men bilan ozroq qoling. Sizga ko'rsatadigan bir necha narsalarim bor. Lyuster, tishingiz yuzasida mikroblar bo'lishi mumkinligini hech o'ylab ko'rganmisiz?

– Nima, tishimda mikrob bormi? – hayratlandi otam.

– Ha, bor. Xuddi o'sha mikrob tirik chipor ilonni yorib ko'rsak, undan ham chiqadi.

– Gapingizni inkor qilmoqchi emasman, lekin tishimda mikrob borligiga ishonmayman.

– Men bilan qolsangiz, sizga uning isbotini va maktabimizni ko'rsataman. Siz o'qigan davrlardan beri maktab ancha o'zgardi. Menimcha, u paytlar tumanda o'rta maktablar umuman bo'lmagan.

– Yo'q edi, borlarida ham faqat o'qish, yozish va shifrlash o'rgatilardi. Biz hech qanaqa qandala, qurbaqalarni o'rganmaganmiz, tish va chipor ilondan mikrob ham topmaganmiz. Dunyo o'zgarib, ko'p narsadan bexabar qolibmiz, shekilli.

– Ha, umid qilamanki, yaxshi tomonga o'zgarimoqda. Sizning o'g'lingiz singari bolalar shunday o'zgarishlarga hissa qo'shishadi. O'g'lingiz men sizga hozir aytib bermoqchi bo'lgan hamma ma'lumotlarni yaxshi biladi. Men bilan picha qoling.

– Albatta, qolaman, tishimdagi mikrobn ko'rishni istayman.

Otam doim “Ko'rish bu – ishonish” deb aytardi, hozir ham shu shioriga sodiq qolmoqchi edi. Otam o'qituvchimiz bilan xonadan chiqdi. Ishqilib, o'qituvchimiz otamning to'pponcha o'qtalgani ustidan biron joyga arz qilmasaydi. Otam doim janjalli vaziyatlarda to'pponchasini o'zi bilan olib yuradi.

Qo'ng'iroq chalindi va darsimiz boshlanishiga oz qoldi. Sinfdoshlarim otamga ajabsinib qarab, bir-biriga imlab, ko'z urishtirib o'tishardi. Otam esa ularni jimgina eshik oldida kuzatib turardi. O'quvchilar ikkita uzun saf hosil qilib, sinfga kirishdi. Qizlar ham, o'g'il bolalar ham orasta kiyingan edilar. Otam qip-yalang'och eman ostida qo'y terisidan tikilgan paltosi va katta og'ir etiklarida turardi. Ko'ylagi yoqasidan moviy rangli ish kiyimi ko'rinar, qora shlyapasi ostidan oqargan sochi chiqib turar, yuz terisi dag'al va pishgan pichan rangidek qorayib ketgan edi. Qo'llari katta va yonidagi eman daraxti ildizidek yo'g'on edi.

Birinchi soatdagi darsga kirar chog'imda otam va o'qituvchimizning maktabni aylanib yurganiga ko'zim tushdi. Ular sinfga kirib kelishganida geometriya fanidan sinf taxtasida o'z yechimlarimizni tushuntirib berayotgandik. Ular jimgina kirib biroz o'tirishdi. Fred Vutsning Glen Armstrongga shivirlab: “Bu qariya kim bo'ldi? Ey Xudo, namuncha qo'pol ko'rinmasa bu nusha”, deganini va Glenning unga javoban: “Menimcha, bu odam Deyvning otasi bo'lsa kerak”, deganini eshitib qoldim. Otamning maktabda nima ishi borligiga qiziqqan o'quvchilar o'girilib unga qarashdi. Ular dars tugamasdanoq chiqib ketishdi, keyin o'yin maydonchasida ko'rdim – o'qituvchim Gerbert unga nimanidir tushuntirayotgandi. Otam yurganida paltosi tagidan to'pponchasi xiyol ko'zga tashlanib turardi.

Tush payti esa maktab oshxonasidagi o'qituvchimiz doim yolg'iz o'zi o'tirib ovqatlanadigan kichik stolda birga tushlik qilishdi. Otamning ovqatni sanchqi o'rniga

pichoqda yeyishini ko'rgan bolalar baqrayib qolishdi. U mening otam ekanligini bilishgach esa menga achinish nazari bilan qaradilar, biroq aslo achinishlari shart emasdi. Otamning o'qituvchimizni otish niyati yo'qligini bilganimdan so'ng undan sirayam uyalmadim, qaytanga ikkalasi do'stlashib qolganliklaridan sevindim. Otam xuddi men Lambertlarni yaxshi bilib olganimdek maktabni aylanib, o'qish tarzimini o'rgandi. Tushdan so'ng biologiya darsiga kirsak, otam ham shu yerda, mikroskop yonidagi katta kursida o'tirgan ekan. Uning borligini sezmagandek darsimizni boshlab yubordik. Otam pichog'i bilan o'zining tish emalidan ozgina qirib olib o'qituvchimizga berdi. O'qituvchimiz uni mikroskop oynasiga qo'yib, shtativni otamga to'g'rilab qo'ydi-da: "Mana, Lyuster, qarang! Bir ko'zingizni yorug'likka to'g'rilab, ikkinchisini biroz yuming", dedi.

Otam boshini egib o'qituvchimiz aytgandek qilib qaradi.

– Voy, rostdan ham uni ko'ryapman! Kim o'ylabdi deysiz tishda ham mikroborligini? Ishqilib, bu matohingiz xato ko'rsatmayaptimi?

– Yo'q, aslo. Bu chindan ham mikrobor. Ular hamma yerda, hamma narsada mavjud, lekin oddiy ko'z bilan ilg'ashning iloji yo'q. Faqat mikroskop orqali ko'rish mumkin. Tanamizda millionlab mikroborlar mavjud bo'lib, shulardan ba'zilari zararli va ba'zilari bezarardir.

Otam boshini xiyol egib yana mikroskopga qaradi. Biz ham darsdan chalg'ib uni tomosha qildik. U baland stulga o'tirib olgan, oyoqlari uzunligidan tizzalari stol qirrasiga tegib turardi. Egilganida ustidagi paltosi surilib, to'pponchasining dastasi ko'ringach, o'qituvchimiz tezda uning paltosini to'g'rilab qo'ydi.

Otam nima bo'lganini sezib o'rnidan turdi va paltosini pastga tushirdi. Uning yuzi sal-pal qizarinqiragan edi. Maktabga qurol olib kelish mumkin emasligini u yaxshi bilardi.

– Anavi burchakda kecha biz tutib olgan katta chipor ilon yotibdi, – dedi professor Gerbert. – Istasangiz, uni xloroform bilan zararsizlantirib, zaharini ajratib olamiz va ilonning tanasida ham mikroborlar borligini sizga ko'rsatamiz.

– Unaqa qilishingiz shart emas, – dedi otam. – Sizga ishonaman. Meni deb ilonni o'ldirmang. Men hech qachon ilonlarni o'ldirmayman. Ular sichqonlarni tutib, fermada bizga katta yordam beradi. Men qora ilonlarni yaxshi ko'raman. Odamlarning ularni o'ldirishlariga chidab turolmayman. Mening hududimdagi ilonlarni o'ldirishlariga hech ham yo'l qo'ymayman.

O'quvchilar otamga qarab qolishdi. So'nggi gapidan keyin otamning cho'ntagida qurol bo'lishiga qaramasdan ilonlar haqida qayg'urishi o'quvchilarga ijobiy ta'sir qilib, uni yoqtira boshlashgandi. Otam uydagi xachirni, qoramollarni hech qachon qamchi bilan urmagan.

– Inson o'zini o'zi himoya qilishi mumkin. Ammo mollar va xachirlar bunaqa qila olmaydi, – derdi otam. – Faqat yuraksiz odamgina mehnatkash xachirni kaltaklaydi.

Professor Gerbert otamni butun laboratoriya bo'ylab aylantirib chiqdi, biz bajarayotgan turli tajribalar bilan tanishtirdi, jihozlarni ko'rsatdi. Bizning boshimizda turib biroz suhbatlashishdi-da, keyin birgalikda xonadan chiqib ketishdi. Ular zalga chiqqandan keyin ovozlari balandroq kela boshladi. Biologiya fani tugagach, sinfdan chiqdim. Bu so'nggi darsimiz edi. Singan olcha daraxtining pulini to'lash uchun supurgi bilan ikki soat maktabning atrofini supurishim kerak. Otam bu jazodan qutqarib qolmasmikan degan ilinjda uni qidira boshladim. U yo'lakda turganicha o'quvchilarning tashqariga chiqishini kuzatardi. Otam xuddi nish urib kelayotgan barglar bilan qoplangan daraxtdagi yagona sarg'aygan bargga o'xshardi.

Men supurgini olib ishga kirishdim. Professor Gerbert oldimga kelib: "Boshqa safar qolib qila qol, mayli. Hozir otang bilan uyingga ketaver. Tashqarida seni kutib turibdi", dedi. Shundan so'ng supurgini joyiga qo'yib, kitoblarimni oldim va zinadan pastga tushdim. Otam meni ko'rib: "Sen hali ikki soat maktab tevaragini supurib chiqishing kerak emasmidi?" deb ajablendi. Men: "Professor Gerbert boshqa safar tozalashim mumkinligini aytib, siz bilan uyga ketishimga ruxsat berdi", deb javob qildim.

– Yo‘q. U nima ish buyurgan bo‘lsa, bajar. Gerbert yaxshi odam ekan. Maktab ham biz o‘qigan davrdan beri ancha o‘zgarib ketibdi. Men o‘lik bargman, Deyv. Zamondan ancha ortda qolib ketgan ekanman. Agar u ruxsat bersa, men ham qo‘limga supurgi olaman, ikkalamiz bir soat ichida hammayoqni yog‘ tushsa yalagudek qilib supurib qo‘yamiz, shunday qilib, qarzingdan qutulamiz. Undan so‘rab ko‘ray-chi, senga yordamlashishimga ruxsat berarmikan.

– Men qarzni bekor qilaman, – dedi professor Gerbert shu mahal bizga yaqinlashib. – Shunchaki o‘g‘lingiz o‘z aybini tushunishini xohlagandim, Lyuster.

– Buni yaxshi tushunaman, – dedi otam. – Tushunganim uchun ham u daraxtni sindirgani uchun to‘lov qilishi kerak. Men esa unga biroz ko‘maklashmoqchiman.

– Yo‘g‘-e, buning hech ham hojati yo‘q. Hammasini o‘zim joy-joyiga qo‘yaman.

– Yo‘q, yo‘q, bunaqasi ketmaydi. Biz adolatli va halol odamlarmiz. Bajarilmagan ish uchun mukofot ololmaymiz. Professor Gerbert, siz hozir yanglishyapsiz, men esa haqman. Shuning uchun menga quloq soling. Bugun sizdan ko‘p narsani o‘rgandim, o‘g‘lim esa o‘rganishda davom etishi kerak. Men oilamni boqish uchun tog‘larda poda haydab yurganimda butun dunyo o‘zgarib ketibdi. Men halol odamman, bo‘ynimda qarz bilan yurishni aslo istamayman. Maktabda yaxshi bilim olmagan bo‘lsam ham, yaxshi va yomonni ajrata olaman.

Professor Gerbert xayrlashib uyiga ketdi. Otam va men yana bir soat maktabda qolib binoni supurib chiqdik. Otamning supurgi ushlayotganini ko‘rib kulgim qistadi. U shu paytgacha biron marta ham qo‘liga supurgi olib ko‘rmagandi. Uyni onam supurar, otam esa dalada mehnat qilardi. Otam biroz ishlaganidan keyin oxiri chidamay:

– Supura olmayapman. Shuncha supursam ham izimda yana axlat qolyapti-ku! Bunaqa ish mendaylarga emas shekilli. Lekin qo‘limdan kelganicha harakat qilaman. Supurgi juda yengil narsa bo‘larkan. Mayli, Deyv, qiynalib bo‘lsa ham

supurib senga yordamlashaman. Bilasanmi, men bu maktab haqida yanglish fikrlagan ekanman.

– Professor Gerbert maktabga qurol olib kelib, hammaning ko‘z oldida namoyish qilganingiz uchun shikoyat qilib, suddan order olishi, hatto sizni sudsiz aybdor deb topishlari mumkin! – dedim xavotir bilan.

– Men xato ish qilmadim, – beparvo gapirdi otam. – Aksincha, to‘g‘ri ish qildim. Professor Gerbertning sudga murojaat qilish niyati yo‘q. Unga yoqib qoldim, menga ham o‘qituvching ma‘qul bo‘ldi. Bu yog‘ini o‘zimiz kelishib oldik. Sen bundan zig‘ircha tashvishlanma.

Bironta ham darsingni qoldirmay o‘qishga kelasani endi. Shuncha yillardan beri og‘ir mehnat qilib kelsam-da, jismonan juda kuchli odam bo‘lsam-da, tog‘lar orasida yuraverib dunyodan va rivojlanishdan ancha ortda qolgan ekanman, Deyv. Men kichkina odamman. Sen yaxshi o‘qib, ilm olsang, qo‘llaring menikidek qavarmaydi, qadoq bosmaydi. Egning ham bus-butun bo‘ladi, gard yuqmaydi. Qari va isqirt otangdan ming marta tozaroq yurasan. Faqat, Deyv, qarzlaringni vaqtida to‘lash va halol yashash kerakligini doimo esingda tut. Hayvonlarga ozor berma, ilonlarni bezovta qilma. Men maktabda yaxshi o‘qimaganman, lekin senda hali imkoniyat bor.

Ishimizni tugatib tashqariga chiqqanimizda endi qorong‘i tusha boshlagan ekan, to uyga yetgunimizcha osmonga oy va yulduzlar chiqib atrof zimziyo bo‘lib qoldi. Yer ham yaxlab qolgandi. Otam yo‘lda asta yurib kelganligi uchun uni tashlab kechagidek chopib keta olmadim. Fermadagi qolib ketgan ishlarimizni tugatgunimizcha soat o‘nga yaqinlashdi. Kechki ovqat uchun dasturxon atrofida yig‘ilganimizda otam onamga uni ham vaqt topib mikrobn ko‘rsatishga olib borishini aytib, maktabimiz va o‘qituvchimiz Gerbert haqida, o‘zi o‘qigan davrdan beri maktabda yuz bergan o‘zgarishlar to‘g‘risida gapirib berdi. Onam ham umrida biron marta mikroblarni ko‘rmagan ekan.



Alixonto'ra Sog'uniy o'z hayotining zimziyo kunlarida nima sababdan tarjima qilish uchun aynan “Temur tuzuklari” va “Navodir ul-vaqoye”, Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” yoki Darvesh Ali Changiyning “Musiqqa risolasi”ni tanladi? Axir u nafaqat jangchi, qo'mondon, ayni paytda diniy ulamo ham edi-ku! O'z zamonasida qancha-qancha diniy kitoblarni o'qimadi, deysiz. Sharq olamining manaman degan olimlarining insholarini tinchgina tarjima qilib, diniy idora kutubxonasiga “esdalik” uchun topshirib qo'yib, el-yurtning ziyofatlarida, to'y-hashamlarida mazza qilib, davrini surib yuraversa bo'lmasmidi? Yo'q! Bo'lmas edi, deb javob berishadi Alixonto'ra Sog'uniyning hayoti va ijodi bilan ozgina bo'lsa ham tanish odamlar! Chunki Alixonto'ra Sog'uniy faoliyat odami edi.

**Yoqubjon XO'JAMBERDIYEV,**  
yozuvchi

# Alixonto'ra

## SOQ'UNIY

Alixonto'ra Shokirxo'ja o'g'li (taxallusi Sog'uniy) 1885-yili tug'ilgan. Din va jamoat arbobi, ulamo, yozuvchi. Arabiston (Madina) da va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Chor ma'muriyatining yerli aholini mardikorlikka olish siyosatiga qarshi chiqqanligi uchun podsho maxfiy politsiyasi ta'qibida bo'ldi. 1916-yilgi qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgach, siyosiy muhojir bo'lib Qashqar (Xitoy)ga ketdi, keyin Sharqiy Turkistonga bordi. Omma orasida hurriyat g'oyalari targ'ib qilganligi sababli 1937-yili Xitoy ma'murlari tomonidan hibsga olinib, umrbod qamoq jazosiga hukm etildi. 1941-yili adliyaviy taftish natijasida ozod qilindi. 1944-yilning 12-noyabrida Sharqiy Turkiston jumhuriyati e'lon qilinib, Alixonto'ra Muvaqqat inqilobiy hukumat raisligiga saylandi. Milliy qo'shin tashabbuskori bo'ldi va unga qo'mondon

etib tayinlandi. 1946-yili sho'ro ayg'oqchilari tomonidan maxfiy ravishda tazyiq bilan Sharqiy Turkistondan olib chiqib ketilgan Alixonto'ra umrining oxirigacha Toshkentda yashadi va 1976-yili vafot etgan.

Adib Ahmad Donishning “Navodir-ul vaqoye”, Darvish Ali Changiyning “Musiqqa risolasi”, shuningdek “Temur tuzuklari” kabi asarlarni tarjima qildi. Alixonto'raning “Devoni Sog'uniy” she'riy to'plami, “Tarixi Muhammadiy”, “Shifo ul-ilal” (“Xastaliklar davosi”), “Turkiston qayg'usi” avtobiografik asarlari bor. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Alixonto'ra Sog'uniyning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkentning Yakkasaroy tumanidagi o'rta maktabga, Chilonzor tumanidagi mahallaga, Shayxontohur tumanidagi ko'chaga uning nomi berildi.



*Ezop miloddan avvalgi 6-asrda yashab o'tgan yunon masalchisi. Rivoyatlarga qaraganda, Ezop frigiyalik qul bo'lib, umrining ancha qismini qiyinchilikda o'tkazgan. Antik davrda ma'lum bo'lgan deyarli barcha masallarning syujeti Ezopniki deb hisoblangan. Ular miloddan avvalgi 4-3-asrlardan boshlab to'plangan va "Ezop masallari" kitobiga kiritilgan.*

*Ezop masallarining personajlari, asosan, hayvonlar. Masallarda voqealar ixcham bayon qilingan, tili sodda. Ezop masallari syujeti Yevropa masalchiligi syujetining asosini tashkil etgan.*

## EZOP

### *Ikki do'st va ayiq*

Ikki do'st o'rmonda aylanib yurganida to'satdan ayiqqa duch kelib qolishibdi. Ulardan biri shoshib daraxtga chiqib olibdi va ayiqning changalidan qutulib qolibdi.

Ikkinchisi esa ilojsizlikdan o'zini o'lganga solibdi.

Ayiq yerda yotgan kishining oldiga kelib, qulog'ini hidlab, hatto uni turtib ham ko'ribdi. Uni o'lgan deb o'ylab, unga tegmasdan ketib qolibdi.

Ayiq ketgach, haligi do'sti daraxtdan tushib kelib:

– Do'stim, ayiq qulog'ingga nima deb shivirladi? – deb so'rabdi.

– U menga qiyinchilik paytida tashlab ketadigan do'st bilan sayohatga chiqishni yaxshilab o'ylab ko'rmabsan-da, dedi, xolos, – deb javob beribdi pastda qolgan kishi.

### *Tulki va echki*

Baxtsiz tasodif tufayli bir Tulki o'raga tushib ketibdi. U hech o'radan chiqishning ilojini qilolmabdi. Bir payt tepadan Echki o'tib qolibdi. U Tulkidan pastda nima qilayotganini so'rabdi.

– Ey, hali eshitmadingmi? – debdi Tulki.

– Yaqinda qurg'oqchilik bo'larmish, shuning uchun men bu yerga suv borligiga ishonch hosil qilish uchun tushdim. Balki sen ham tusharsan?

Echkiga bu maslahat ma'qul kelib, pastga sakrabdi. Ammo Tulki tezlik bilan uning orqasiga chiqib, oyoqlarini uning uzun shoxlariga qo'yibdi-da, o'radan chiqib olibdi.

– Xayr, do'stim, – debdi Tulki, – keyingi safar esingda tursin. Hech qachon o'zi mushkul ahvolda qolganning maslahatiga quloq solma.

## Sichqonlar kengashi

Mushukning doimiy xavf solishidan tushkunlikka tushgan sichqonlar muammoni hal qilish uchun kengash chaqirishibdi. Ular birin-ketin bildirilgan fikrlarni o'rtaga tashlab, ma'qulini topishmabdi.

Oxiri bir yosh Sichqon mushukning bo'yniga qo'ng'iroq osib qo'yishni taklif qilibdi.



– Qanday ajoyib fikr, – deb gichqirishibdi sichqonlar, – bu Mushuk kelganda qochish uchun juda yaxshi ogohlantirish!

Ular bu taklifni zavq-shavq va olqishlar bilan qabul qilishibdi. Shunda kekxa bir Sichqon o'rmidan turib:

– Bu rostan ham juda yaxshi taklif, shubhasiz, bizning muammomizni hal qiladi, – debdi.

– Biroq Mushukning bo'yniga qaysi birimiz qo'ng'iroq ilamiz?!

## Ko'rshapalak, qushlar va yirtqichlar

Qushlar bilan yirtqichlar o'rtasida katta nizo chiqibdi. Ikkala tomon ham o'ziga qo'shin yig'a boshlabdi.

Ko'rshapalak qaysi tarafga qo'shilishni bilmay, ikkilanib qolibdi. U turgan shox oldidan o'tib ketayotgan qushlar:

– Yur biz bilan, – deyishibdi.

Ammo Ko'rshapalak:

– Men yirtqichman, – debdi.

Keyinroq ini tagidan o'tib ketayotgan yirtqichlar tepaga qarab shunday deyishibdi:

– Yur, bizga qo'shil.

Lekin u:

– Men qushman, – debdi.

Xayriyatki, oxirgi lahzalarda tinchlik o'rnatilibdi, hech qanday urush bo'lmabdi. Shunda Ko'rshapalak qushlarning oldiga borib ulardan o'zini xursandchiliklariga sherik qilishini so'rabdi. Ammo barcha qushlar undan yuz o'girib, uchib ketishibdi. Shundan keyin Ko'rshapalak yirtqichlarning oldiga boribdi. Biroq tezda u yerdan ham chekinishga majbur bo'libdi, zero, yirtqichlar uni burda-burda qilishga shay turardi.

Shunda Ko'rshapalak o'ziga o'zi shunday dedi:

– Fazilati bo'lmaganning do'sti ham bo'lmas ekan.



**Muqovada**

Ahmad To'ra

olgan suratdan foydalanildi.

Bosishga 10.07.2021-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi: 84x108 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot hisob tabog'i: 8

Obuna indeksi – **822.**

ISSN 0207-9137.

Jurnal 2007-yil 4-mayda

O'zbekiston Matbuot va

axborot agentligi tomonidan

N° 0253 raqami bilan

ro'yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

“Yoshlik”dan olindi” deb

izohlanishi shart.

“SILVER STAR PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma N° 37. Adadi: 984.

Toshkent shahri,

Uchtepa tumani,

22-mavze, 17-uy.